

ILIM HÁM JÁMIYET

Ilimiy metodikalíq jurnal

FAN VA JAMIYAT

Ilimiy-uslubiy jurnal

2026/3-1



www.journal.ndpi.uz



ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayidan baslap shuğa basladi

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MEKTEPKE
ShEKEMGI HÁM MEKTEP BILIMLENDIRIWI
MINISTRILIGI**



**Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik
pedagogikalıq institutı**



ILIM hám JÁMIYET

Ilmiy-metodikalıq jurnal

Seriya: Tábiyy hám texnikalıq ilimler

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti**

FAN va JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

Seriya: Tabiiy va texnika fanlari

**Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза**

НАУКА и ОБЩЕСТВО

Научно-методический журнал

Серия: Естественно-технические науки

**Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz**

SCIENCE and SOCIETY

Scientific-methodical journal

Series: Natural-technical sciences

№ 3/1

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti
hám jurnal redakciyası jámaáti
Shólkemlestiriw komiteti bashlıǵı, NMPI rektori – A.T.UBBIYEV
Bas redaktor – A.K.PAZÍLOV**

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ

tex.i.f.d. **Abro Abdul Ahad** (Pakistan);
b.i.d. (DSc), prof. **Ajiev A.** (Nókis);
b.i.f.d. (PhD), doc. **Begjanov M.** (Nókis);
tex.i.d., doc. **Dawletmuratov B.** (Nókis);
e.i.f.d. (PhD), doc. **Eshimbetov U.** (Nókis);
b.i.d., prof. **Ferah Sayim** (Turkiya);
f-m.i.k., doc. **Ibragimov M.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Ismaylov Q.** (Nókis);
tex.i.d., prof. **Jephias Gwamuri** (Zimbabve);
a/x.i.d., prof. **Jumamuratov A.** (Nókis);
b.i.d. (DSc), prof. **Jumamuratov M.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Kamalov A.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Karajanov S.** (Norvegiya);
f-m.i.d., prof. **Khalilov R.** (Azerbayjan);
x.i.f.d., Ph.D **Kumar Deepak** (Hindstan);

f-m.i.d., prof. **Qudaybergenov K.** (Qıtay);
b.i.d., prof. **Markov M.** (Moskva);
x.i.d., prof. **Mustafayev I.** (Azerbayjan);
x.i.d., doc. **Nawbeyev T.** (Nókis);
f-m.i.d. (DSc), prof. **Otemuratov B.** (Nókis);
f-m.i.d. (DSc), prof. **Prenov B.** (Nókis);
b.i.d. (DSc), doc. **Saparov A.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Sasirekha V.** (Hindstan);
tex.i.d. (DSc), prof. **Seytnazarov Q.** (Nókis);
x.i.d., prof. **Toremuratov Sh.** (Nókis);
g.i.d., prof. **Turdimambetov I.** (Nókis);
e.i.d., doc. **Tajibaeva K.** (Tashkent);
f-m.i.k., doc. **Tanirbergenov S.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Uteuliev N.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Yavidov B.** (Nókis).

Q.Biysenbaev – juwaplı xatker
Z.Xodjekeeva – korrektor
N.Allamuratova – operator

Juwaplı redaktorlar:
f.i.d. (DSc), doc. **S.Matyakupov – ózbek tili boyınsha**
f.i.d. (DSc), prof. **G.Kdirbaeva – rus hám inglis tilleri boyınsha**
p.i.d. (DSc), prof. **D.Seytkasimov – qaraqalpaq tili boyınsha**

Jurnal 1992-jıldan
«Qaraqalpaqstan muǵallimi»
atamasında shıǵarıla baslaǵan.
2004-jilda «Ilim hám jámiyet»
atamasına ózgertilip, 01-022-
sanlı gúwalıq penen
Qaraqalpaqstan Respublikası
Baspasóz hám xabar agentligi
tárepinen dizimge alınǵan.
2020-jılı 7-avgustta
Ózbekstan Respublikası
Prezidenti Administracyası
janındaǵı xabar hám ǵalaba
kommunikaciýalar agentligi
tárepinen qayta dizimge alınıp,
1098-sanlı gúwalıq berilgen.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan
Respublikası Ministrler Kabineti janındaǵı Joqarı
Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı
menen tómende kórsetilgen ilimler boyınsha ilim
doktori dárejesin alıw ushın maqalalar
járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine
kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 02.00.00 – ximiya ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

TÁBIYIY HÁM TEXNIKALÍQ ILIMLER

Fizika-matematika. Texnika. Informatika

UO‘K 677.051

**PAXTA TOZALASH MASHINALARI TARKIBLI ISHCHI ORGANLARI DINAMIKASI
TADQIQI BO‘YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR TAHLILI**

Abdovaxidov Mutaxxirxon Muboshirovich – *texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
Mutahhir_74@mail.ru

Namangan davlat texnika universiteti

**ИССЛЕДОВАНИЕ ДИНАМИКИ СОСТАВНЫХ РАБОЧИХ ОРГАНОВ
ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНЫХ МАШИН И АНАЛИЗ ПРОВЕДЁННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Абдувахидов Мутаххирхон Мубоширович – *доктор философии по техническим наукам, доцент*
Наманганский государственный технический университет

**RESEARCH ON THE DYNAMICS OF COMPOSITE WORKING BODIES
OF COTTON CLEANING MACHINES AND ANALYSIS OF CONDUCTED STUDIES**

Mutaxxirxon Muboshirovich Abdovaxidov – *Doctor of Philosophy in Engineering Sciences, Associate Professor*
Namangan State Technical University

Tayanch so‘zlar: paxta tozalash mashinasi, tarkibli ishchi organ, arrali silindr, dinamika, egilish tebranishlari, buralish tebranishlari, bikrlilik, kritik tezlik, siqish kuchi, rezonans.

Rezyume. Maqolada paxta tozalash mashinalari tarkibli ishchi organlari dinamikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Arrali silindrlar va arra-qistirma taxlamli ishchi organlarning egilish hamda buralish tebranishlari jarayonlari bo‘yicha mavjud nazariy va eksperimental ishlarga sharh berilgan. Tarkibli ishchi organlarining mexanik parametrlarini aniqlash, ayniqsa, ularning dinamik jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha mavjud tadqiqotlarning holati baholangan. Tadqiqotlar asosida arra-qistirma taxlamlarining bikrligini aniqlash, siqish kuchi ta‘sirini hisobga olish hamda egilish va buralish tebranishlarini aniqlashning zamonaviy usullarini qo‘llash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, tarkibli ishchi organlar dinamikasini takomillashtirish orqali ularning mustahkamligi, ishonchliligi va ish unumdorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Ключевые слова: хлопкоочистительная машина, составной рабочий орган, пильный цилиндр, динамика, изгибные колебания, крутильные колебания, жёсткость, критическая скорость, усилие сжатия, резонанс.


Резюме. В работе представлен анализ исследований, посвящённых динамике составных рабочих органов хлопкоочистительных машин. Рассмотрены существующие теоретические и экспериментальные исследования процессов изгибных и крутильных колебаний пильных цилиндров и рабочих органов с пакетами пило-прокладочных элементов. Проведена оценка современного состояния исследований по определению механических параметров составных рабочих органов, в частности по изучению их динамических процессов. На основе анализа выполненных исследований обоснована необходимость применения современных методов определения жёсткости пакетов пило-прокладочных элементов, учёта влияния усилия сжатия, а также методов расчёта изгибных и крутильных колебаний. Показаны возможности повышения прочности, надёжности и производительности составных рабочих органов за счёт совершенствования их динамических характеристик.

Key words: cotton cleaning machine, composite working body, saw cylinder, dynamics, bending vibrations, torsional vibrations, stiffness, critical speed, compressive force, resonance.

Summary. This paper presents an analysis of studies devoted to the dynamics of composite working bodies of cotton cleaning machines. Existing theoretical and experimental studies on the processes of bending and torsional vibrations of saw cylinders and working bodies with saw-spacer disk assemblies are reviewed. The current state of research is evaluated on determining the mechanical parameters of composite working bodies, particularly the investigation of their dynamic processes. Based on the analysis of previous studies, is substantiated the necessity of applying modern methods for determining the stiffness of saw-spacer disk assemblies, accounting for the influence of compressive forces, as well as methods for calculating bending and torsional vibrations. The possibilities of increasing are demonstrated the strength, reliability, and operational performance of composite working bodies through the improvement of their dynamic characteristics.

Kirish. Paxta tozalash mashinalarining ko‘pchiligida asosiy ishchi organlari tarkibli tuzilishga ega va ularning asosiy qismi yassi ishchi va arralararo qistirmalarni markaziy valga terib va bo‘ylama kuch bilan siqib hosil qilingan taxlamga ega. Bular qatorida jinning arrali silindri, valikli jinning jinlovchi valigi, tola tozalash mashinalarining arrali silindrlari, linterlarning arrali silindrlari, delinterning metallo‘tkali barabanlari, bir qator laboratoriya jihozlari bor. Bu toifadagi ishchi organlarning umumiy xususiyatlari shuki, ularda siquvchi kuchning kattaligi ularning yaxlit qattiq jism kabi

ishlashlari uchun yetarli bo‘ladi. Shuning uchun bu ishchi organlarning arra-qistirma taxlamlari faqat siqilishga emas, balki egilish va buralishga ham ishlaydi.



1-rasm. Arrali silindr

1-rasmda bunday ishchi organlarining eng xarakterlisi bo'lgan arrali silindr ko'rinishidagi tarkibli ishchi organning tuzilishi keltirilgan. Uning tarkibida: 1-arrali val, 2-arralar, 3-arralararo qistirmalar, 4-yonbosh siquvchi shaybalar va 5-siquvchi gaykalar bor.

Ba'zi bunday ishchi organlarida val ishchi qismining markaziga qo'zg'almas shayba o'rnatilib, uning ikkala tomoniga arra va qistirma diskleri terilgan bo'ladi. Arralarni buralib ketishdan saqlash uchun ularning valga o'rnatish teshiklarida chigitli paxtadan arra disklariga tushuvchi yuklamalarni o'ziga qabul qiluvchi tilchalar bo'lib, ular val bo'yab o'yilgan ariqchaga kirib turadi.

Adabiyotlar tahlili. Paxta tozalash mashinalari tarkibli ishchi organlari dinamikasi bo'yicha tadqiqotlar ma'lum darajada to'qimachilik mashinasi dinamikasi bo'yicha bajarilgan ishlar va ularda ishlab chiqarilgan usullariga asoslanadi. P.A.Malishhev, M.Ya.Kushul, Ya.I.Koritisskiy, A.I.Makarov, shuningdek, V.L.Biderman, A.N.Krilovlarning tadqiqotlari fundamental ahamiyatga ega. R.G.Mahkamov, R.V.Korabelnikov, R.Z.Burnashev, P.N.Tyutin, M.M.Shukurov va boshqalar o'z tadqiqotlarida bir qator mashina va alohida detallar dinamikasini texnologik jarayonlarni tekshirish bilan bogliq holda o'rgandilar [2]. Paxta tozalash mashinalari dinamikasining ayrim masalalarini ularga mashina agregatlari dinamik sistemalari sifatida qaralib, H.X.Usmonho'jaev va A.Djuraev tomonidan tadqiq qilingan [4]. Ko'rilayotgan masalalarga ko'p jihatdan yaqin bo'lgan paxtachilik mashinalari tarkibli ishchi organlari bo'yicha ham muhim tadqiqotlar bajarilgan. Bu sohaga H.T.Turanov katta hissa qo'shgan bo'lib, u ko'plab tarkibli ishchi organlar dinamikasini o'rgangan [5].

Tahlil va natijalar. Paxta tozalash mashinalarining eng muhim ishchi organlari dinamikasi bo'yicha ancha ishlar bajarilgan [5,6]. Ko'rsatilgan tadqiqotlardan [4-6] ishlar diqqatga sazovor bo'lib, ularda jin arrali silindrning egilish va buralish tebranishlari bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Egilish tebranishlarini tekshirganda muallif yoyilgan parametrlri texnik nazariyaga rioya qiladi va mos ravishda egilish tebranishlarini 4-tartibli xususiy hosilali differentsial tenglama bilan ifodalaydi:

$$EJ \frac{\partial^4 y}{\partial x^4} + m \frac{\partial^4 y}{\partial t^4} = F(x, t)$$

Egilish bikrligi EJ val bo'yicha aniqlanadi, uning hisobiy massasi m esa val massasiga arra va qistirmalar massalarini qo'shib topiladi va bir tekis taqsimlangan deb hisoblanadi. Tenglamaning yechimi ma'lum chegaraviy shartlar asosida Krilovning fundamental funktsiyalaridan izlanadi.

EHM dagi hisoblar natijasida arra qistirma taxlami hali asosiy valda taranglik hosil qilinmagan 80, 90 va 100 arrali silindrlar uchun mos ravishda kritik tezliklar 1560, 1475, 1400 ayl/min ga teng ekanligi topiladi.

Siqish kuchi ta'sirini hisobga olish uchun muallif cho'zilib turgan holatdagi sterjen uchun olingan ma'lum bog'lanishdan foydalanadi:

$$\omega_1 = \omega_0 \sqrt{Q/P_{kr}}$$

Bu yerda: Q - cho'zuvchi kuch kattaligi;

P_{kr} - sterjen uchun kritik kuch kattaligi;

h_{kr} - cho'zuvchi kuch hisobga olinmagandagi sterjenning xususiy egilish tebranishlari chastotasi;

Eksperimental tadqiqotlar natijasida muallif taxlamni siqish kuchi ta'siri qiymati siqish kuchining ikki barobariga teng bo'lgan valni cho'zuvchi kuch ta'siriga ekvivalent deb hisoblash mumkinligi haqida xulosaga kelgan. Taxlamni siquvchi kuchning turli kattaliklari hisoblab aniqlangan arrali silindrning kritik tezliklarini eksperiment natijalari bilan solishtirib muallif ishlatilgan usulning to'g'riligiga ishonch hosil qilgan.

Muallif shuningdek, arrali tsilindrning buralish tebranishlari differentsial tenglamalarini tuzib, ularni tadqiq qilgan va yechgan. Bunda arrali silindrning 1-kritik tezligining kattaligi 7553,4 ayl/min ekanligi aniqlangan.

Boshqa bir tadqiqot mualliflari jin arrali silindrlari egilish tebranishlarini taqribiy hisoblaganlar [7]. Hisoblar solishtirib ko'rish uchun Reley va Donkerley usullarida 80 va 100 arrali silindrlar uchun bajarilgan. Bu hisoblar arra-qistirma taxlamlari bikrlilari hisobga olib va olmay bajarilgan. Bunda taxlamning bikrligi u bilan bir xil material va o'lchamlarga teng yaxlit qattiq jism bikrligiga teng deb hisoblangan.

Boshqa bir tadqiqot mualliflari arrali silindrning xususiy egilish tebranishlari chastotasini quyidagicha aniqlaganlar [7-8]

$$\omega_1 = \frac{\pi}{2} \sqrt{\frac{gEI_{np}}{GL^3}}$$

Bunda:

g - og'irlik kuchi tezlanishi;

E - val materialining elastiklik moduli;

I_{kl} - val materialiga keltirilgan silindrik ko'ndalang kesim inertsia momenti;

L - silindrning uzunligi.

Tadqiqot mualliflari hisob natijalarini eksperiment natijalari bilan solishtirib, natija qoniqarli, degan xulosaga kelganlar.

Adabiyotlarda P.N.Tyutin va R.Y.Melamedovlarning kattagina nazariy-eksperimental tadqiqot natijalari haqida ma'lumot bor [4]. Bularda mualliflar arrali silindrlarning alohida xususiyatlariga boshlangich parametrlar metodi eng ko'p mos keladi deb hisoblaydilar va uni qo'llaydilar. Shuningdek, bu tadqiqotlarda silindr tayanchlarining beriluvchanligi hisobga olinadi va hisoblar A.N.Krilov va M.I.Kushullarga ergashgan holda bajariladi. Mazkur tadqiqotda katta hajmdagi qimmatli eksperimentlar bor ekanligini alohida qayd etish lozim.

Yuqorida zikr qilingan har ikki tadqiqotda ham taxlamni siqish kuchining ta'siri hisobga olinmagan. Siqish kuchining ta'sirini hisobga olish uchun esa arrali silindrlar egilish bikrligini aniqlash eksperimentlari o'tkazilib, natijalar bo'yicha hisoblarga tuzatishlar kiritilgan. Va nihoyat [3] da muallif shu bir xil tuzilishga ega bo'lgan jin va tolatozalagich arrali silindrlari dinamikasi masalalarini 2 xil yo'l bilan yechishni tavsiya qiladi. Jin arrali silindrlari kritik tezligini topish uchun muallif ko'p bo'g'inli vallar uchun M.A.Kushulning metodini qo'llaydi [3]. Bu holda tayanchlarning qayishqoqligi, val massasi, arralar giroskopik momentlari ta'sirlari hisobga olinadi. Oxirgi aytilgan hisobga olingan omil ta'sirining ahamiyatsizligi tadqiqot oxirida tan olingan. Arralar va qistirmalar val bo'yicha bir tekisda taqsimlangan deb hisoblanadi va ularning massalari val massasiga qo'shib hisoblanadi. Taxlamni siqish kuchining ta'siriga kelsak, bu ta'sir shu kattalikdagi cho'zuvchi kuch ta'siri bilan bir xil deb

hisoblanadi. Hisob misoli va arrali silindr kritik tezligining arra-qistirma taxlamini siqish kuchiga bog'liq ravishda o'zgarishining eksperimental grafigi keltiriladi.

Ko'rilayotgan manbada 3OVP tolatozalagich arrali silindrlarning kritik tezliklarini topish uchun V.L.Biderman ishlanmasidagi Reley metodi qo'llandi [8]. Bu holda arrali silindr xususiy egilish tebranishlari chastotasi mana bu formula bo'yicha aniqlanadi:

$$p = \sqrt{\frac{2U_0}{L}}$$

Bunda: U_0 -arrali silindrning amplitudaviy siljishidagi potensial energiyasining kattaligi;

L - valning uzunligi;

Bu yerda ham taxlam elementlarining massalari yoyilgan massa holatida valning massasiga qo'shiladi hamda taxlamni siqish kuchining ta'siri xuddi shu kattalikdagi kuchning valni cho'z gandagi ta'siriga tenglashtiriladi.

Maxsus adabiyotning yuqoridagi sharhi shuni ko'rsatadiki, tarkibli ishchi organlari paxta tozalash mashinalarining ko'pchiligida asosiy texnologik vazifalarni bajaradi va ularga amalda yaxlit variantdagi muqobil konstruksiyalar yo'q. Bular qatoriga arrali va valikli jinlarning arrali silindr va jinlovchi valiklari, tolatozalagichlarning arrali silindrlari, linterlar va delinterlarning arrali silindr va metallcho'tka barabanlari, shuningdek paxta terish mashinalarining paxtatozalagichlari arrali silindrlarini kiritish mumkin. Bu ishchi organlari bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, ularning mexanik parametrlarini aniqlash, ayniqsa, ulardagi dinamik jarayonlarni o'rganish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarning tematikasi, hajmi va ilmiy saviyasi zamonaviy talablarga to'la javob bermaydi. Shuning uchun quyidagi asosiy muammolarni imkon qadar tezroq hal qilish zaruriyati bor:

1. Arra-qistirma taxlamli ishchi organlarining egilish va buralish tebranishlarini mos turdagi bikrliklarni ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan qulay usullar [7] bilan aniqlash asosida tadqiq qilish.

Masalaning texnologik jihatdan muhimligi avvalo, tebranishlarning texnologik jarayonga ko'rsatadigan salbiy ta'siri bilan bog'liq. Masalan, [1] bo'yicha tolatozalagichlarda arra tishlari va kolosnik orasidagi ruxsat etilgan tirqish kattaligi 0,3...0,5 mm va arralarning yonsirtga urishiga ruxsat esa 0,15 mmga teng. Tolatozalagich arrali silindrining o'z og'irligi ostidagi salqiligi o'Ichab ko'rilganda 1,6...1,8 mm ekanligi aniqlandi. Tebranishlarning amplitudasi esa ishchi tezliklarida 0,5...0,6 mm va rezonansga yaqin tezliklarda 1,5...3,0 mm ni tashkil etadi [1]. Sodda geometrik hisoblar bunday holda tirqish kattaligining o'zgarishi ishchi tezliklarda 2,1...2,4 va rezonansga yaqin holda 3,1...4,8 mm ni tashkil etishini ko'rsatadi. Bu degani esa hatto ancha past ishchi tezliklarda ham arra va kolosnik orasidagi tirqish kafolatli bo'lmaydi va tasodifiy yuklama o'zgarishda tishlar kolosnikka tegadi. Haqiqatan ham, arrali silindrli mashinalarda chiqadigan yong'inlarning deyarli yarmida yong'in keltirib chiqargan metall bo'lakchasi topilmaydi va bu hollarda yong'in tebranish jarayonida arra kolosnikka tegib ketganidan kelib chiqqan deyishga asos bor. Mazkur natijalardan kelib chiqib, silindrlarning xususiy tebranish chastotalarini

maksimal darajada oshirish orqali tarkibli ishchi organlar tezligini oshirish mumkinligi aniqlanadi.

Muammoning dolzarbligi [4] manbalarda keltirilgan quyidagi misol bilan tasdiqlanadi: tolatozalash mashinalari arrali silindrlarining aylanish tezligini 24,16 s⁻¹ dan 33,33 s⁻¹ va undan yuqori qiymatlarga oshirish kuchli titrashlarni bartaraf etish imkoniyati bo'lmagani sababli amalga oshirilmadi. Vaholanki, texnologik jihatdan tezlikni bunday oshirish tozalash effekti va ish unumini oshirish nuqtai nazaridan zarur ekanligi aniq isbot qilingan edi. Arrali silindrning titrashi arra-qistirma taxlamini siquvchi gaykaning asta-sekin bo'shshiga va siqish kuchining kamayib butunlay yo'q bo'lib ketishigacha olib kelishi mumkinligi amaliyotdan ma'lum. Bu esa jinlovchi ishchi organ egilish bikrligining kamayishiga va xususiy tebranishlar chastotasining pasayib, ishchi tezliklar sohasida rezonans rejimidagi tebranishlar paydo bo'lish xavfini tug'diradi. Umuman olganda tarkibli ishchi organlar paxta tozalash mashinalarining eng ishonchsiz elementlari hisoblanadi. Bularning natijasida har yili aylanuvchi tarkibli ishchi organlarni, asosan arrali ishchi organlarini almashtirishga to'g'ri keladi va bunday ishchi organlari bilan bog'lik nosozliklarni yo'qotish uchun ish vaqtining 40% gacha qismi sarflanadi [7]. Paxta tozalash sanoatidagi texnologik mashinalarni ekspluatatsiya qilishda kuzatilayotgan bunday holat tarkibli ishchi organlar dinamikasi bo'yicha tadqiqotlarning yetarli darajada olib borilmaganligi hamda natijada ular uchun mustahkamlik va ishonchlilik hisoblarini amalga oshirishga mo'ljallangan zamonaviy metodikalarning amalda mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Paxta tozalash mashinalari tarkibli ishchi organlarining egilish va buralish tebranishlari bo'yicha kompleks tadqiqotlar bajarish uchun [8] manbalardagi ishlar ishonchli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu ishlarda, avvalo paxta tozalash mashinalari tarkibli ishchi organlarining arra-qistirma taxlamlari siqilganda hosil bo'ladigan qo'shimcha bikrlikni siquvchi kuch kattaligiga bog'liq ravishda hisoblab topishning ilmiy jihatdan asoslangan, ishonchli va ishlatishga qulay metodlari ishlab chiqilgan. Ko'rsatilgan ishlarda tarkibli ishchi organlari dinamikasi masalalarini hal qilishda differensial tenglamalarni tuzish uchun yagona uslub sifatida Gamilton prinsipi va 2-tur Lagranj tenglamalari qo'llanilgan.

2. Tarkibli ishchi organlarni egilish va buralish tebranishlari turli dinamik effektlarning ta'sirini tekshirish. Bunday tadqiqotning zarurati shundan kelib chiqadiki, bir tomondan ishchi organlarning ko'pchiligiga dinamik jarayonlarga ta'sir ko'rsata oladigan ancha katta kuch faktorlari ta'sir qiladi. Ikkinchi tomondan, ko'pchilik tarkibli ishchi organlarning geometrik parametrlari ularni kalta vallar deb hisoblashni taqozo qiladi. Masalan, paxta terish mashinasi tozalagichi arrali silindrini diametrining uning uzunligiga nisbati 0,55 atrofida xolos.

Keltirilgan mulohazalar, ishchi organlari geometriyasi va ish sharoitlarining xususiyatlari ularning egilish va buralish tebranishlariga bo'ylama, ko'ndalang va burovchi tashqi kuch omillarining ko'ndalang kesimlar deplanatsiyasi va ularning buralish inersiyasi hamda siljish deformatsiyalari ta'sirlarini hisobga olishni taqozo qiladi. Bunday tadqiqotlar ham [9] manbalarda keltirilgan uslublarni qo'llab bajarilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur ishning maqsadini va vazifalarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

1. Yassi disksimon elementlardan bo'ylama siquvchi kuch yordamida hosil qilingan taxlamlarning bo'ylama, egilish va buralish birkliklarini nazariy aniqlashning zamonaviy usullarini qo'llab paxta tozalash mashinalarining arra-qistirma taxlamli ishchi organlarining egilish va buralish tebranish jarayonlarini tekshirish.

2. Egilish va buralish tebranishlari jarayonlariga ko'ndalang va burovchi kuch omillari, deplanatsiya, ko'ndalang kesimlarning buralish inertsiya momentlari va siljish deformatsiyalarining ta'sirini konstruktiv xususiyatlarga bog'lagan holda o'rganish.

3. Paxta tozalash mashinalari arra-qistirma taxlamli ishchi organlarining egilish tebranishlari jarayonlarini tashqi ko'ndalang kuchlar, ko'ndalang kesimlarning buralish inertsiyasi va siljish deformatsiyalarining ularning turli elementlariga ta'sirini hisobga olgan holda tekshirish. Turli ishchi organlar uchun egilish tebranishlarning mos differensial tenglamalarini olish.

4. Paxta tozalash mashinalari arra-qistirma taxlamli ishchi organlarining buralish tebranishlari jarayonlarini tashqi burovchi kuch faktorlari, ko'ndalang kesimlar deplanatsiyasining va ularning turli elementlariga ta'sirini

hisobga olgan holda tadqiq qilish asosida turli ishchi organlari uchun buralish tebranishlarining mos differensial tenglamalarini olish.

5. Paxta tozalash mashinalari arrali silindrlari egilish va buralish tebranishlarini eksperimental tekshirish. Ayni shu mashinalar ishchi organlari egilish tebranishlari differensial tenglamalarini tadqiq qilish va EHM da yechish hamda hisobiy va eksperimental natijalarni solishtirish.

6. Arrali silindrlarning arra-qistirma taxlamini siqish kuchi kattaligini sozlab yig'ish qurilmasini yaratish va siqish kuchining tola ajratish texnologik jarayoni va tola sifatiga ta'sirini eksperimental tadqiq qilish.

7. Umumiy xulosalar chiqarish tadqiqotlar natijalarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda paxta tozalash mashinalarining arra-qistirma taxlamli ishchi organlarining egilish va buralish tebranish jarayonlarini tekshirish va arrali silindrlarning arra-qistirma taxlamini siqish kuchi kattaligini sozlab yig'ish qurilmasini yaratish va siqish kuchining tola ajratish texnologik jarayoni va tola sifatiga ta'sirini eksperimental tadqiq qilish ahamiyatli hisoblanadi. Shu bois tadqiqotlar natijalarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish lozim.

Adabiyotlar

1. Мирошниченко Г.И. Основы проектирования машин первичной обработки хлопка – Москва: «Машиностроение», 1972.

2. Тютин П.Н., Меламедов Р.Ю. О регламентации допусков на джинные междупильные прокладки и пилы. // – Ташкент: Сборник НИР., вып. 27, 1975.

3. Тютин П.Н., Меламедов Р.Ю. Применение калибровки при изготовлении междупильных джинно-линтрных прокладок. // Хлопковая промышленность, №3, 1975.

4. Туранов Х.Т., Дулабаев А. Экспериментальное исследование энергоёмкости куракоуборочной машины СКО-5.4. // Механизация хлопководства, №8, 1977.

5. Усманходжаев Х.Х., Джураев А., Рахматқариев Ш.У. Исследование вопросов машинного агрегата с упругим ротационным отбойным органом джина. / Доклады Ан. УзССР, 1976, №6, – С. 22-23.

6. Усманходжаев Х.Х., Рахматқариев Ш.У., Джураев А.К. К исследованию технологических машин хлопкоочистительной промышленности. // – Алма-Ата: Материалы 1-Всесоюзного съезда по ТММ. 1977, – С. 268-269.

7. Коритисский Я.И. Динамика упругих систем текстильных машин. – Москва: «Легкая и пищевая промышленность», 1982.

8. Абдувахидов М. Об изгибных колебаниях составных роторов с учетом влияния сдвига и поворота сечений на пакете. // – Москва: Депонированная рукопись. ЦНИИТЭИлегпром, №3340, 31.07.91.

9. Абдувахидов М. Исследование изгибных колебаний составных роторов. – Ташкент: Труды международной конференции «Проблемные вопросы механики и машиностроения», 1993.

**TABIY TILNI QAYTA ISHLASHDA SEMANTIK O'XSHASHLIKNI
ANIQLASHNING FORMAL USULLARI**

Abdullayev Elmurod Zaylobidinovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
elmurod_abdullayev@mail.ru
Andijon davlat universiteti

**ФОРМАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОДОБИЯ
ПРИ ОБРАБОТКЕ ЕСТЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА**

Абдуллаев Элмурод Зайлобидинович – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент*
Андижанский государственный университет

**FORMAL METHODS FOR DETERMINING SEMANTIC SIMILARITY
IN NATURAL LANGUAGE PROCESSING**

Abdullayev Elmurod Zaylobidinovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, associate professor*
Andijan State University

Tayanch so'zlar: tabiiy tilni qayta ishlash, semantik o'xshashlik, formal model, vektor fazosi, algoritmik tahlil.

Rezyume. Maqolada tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida semantik o'xshashlikni aniqlash masalasi nazariy va formal yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Semantik o'xshashlik tushunchasi matematik va algoritmik modellar orqali aniqlanib, vektor fazosiga asoslangan, ehtimolli hamda grafik modellarning nazariy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda semantik o'xshashlikni baholashning formal mezonlari ishlab chiqilib, ularning umumlashtirish qobiliyati va hisoblash xossalari bilan bog'liqligi asoslab beriladi. Olingan natijalar NLP algoritmlarini nazariy baholash va takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ключевые слова: обработка естественного языка, семантическое сходство, формальные методы, векторное представление, алгоритмический анализ.

Резюме. В статье рассматриваются формальные методы определения семантического сходства в обработке естественного языка. Понятие семантического сходства анализируется с позиций математических и алгоритмических моделей, включая векторные, вероятностные и графовые подходы. Разрабатываются формальные критерии оценки семантического сходства и обосновывается их связь с обобщающей способностью и вычислительными свойствами алгоритмов NLP. Полученные результаты могут быть использованы для теоретической оценки и совершенствования алгоритмов обработки естественного языка.

Key words: natural language processing, semantic similarity, formal methods, vector space model, algorithmic analysis.

Summary. This paper examines formal methods for measuring semantic similarity in natural language processing. It discusses the concept of semantic similarity using mathematical and algorithmic models, such as vector-space, probabilistic, and graph-based approaches. Formal criteria for evaluating semantic similarity are proposed, and their links to generalization ability and computational features are scientifically supported. The findings offer a foundational framework for assessing and enhancing NLP algorithms.

Kirish. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida semantik o'xshashlikni aniqlash muammosi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Matnlar, so'zlar yoki tushunchalar o'rtasidagi semantik yaqinlikni aniqlash axborot qidiruvi, matnlarni klasterlash, mashina tarjimasi, savol-javob tizimlari va bilimlarni chiqarish kabi ko'plab masalalarning nazariy asosini tashkil etadi. Shu sababli, semantik o'xshashlikni aniqlash usullarini formal modellar asosida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlarda semantik o'xshashlik ko'pincha empirik ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Biroq, nazariy informatika nuqtayi nazaridan ushbu tushunchani matematik va algoritmik jihatdan asoslash, uning hisoblash xossalari aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, NLP algoritmlarining umumlashtirish qobiliyati va barqarorligi semantik o'xshashlikni aniqlashning formal mezonlariga bevosita bog'liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi tabiiy tilni qayta ishlashda semantik o'xshashlikni aniqlashning formal usullarini nazariy jihatdan tahlil qilish, ularni matematik modellar asosida tasniflash va baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Semantik o'xshashlik tushunchasi dastlab tilshunoslik va kognitiv fanlarda

shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik u informatika va mashinaviy o'rganish nazariyasida formal modellar orqali ifodalanadigan tushunchaga aylandi. Vektor fazosiga asoslangan modellarning nazariy asoslari Salton tomonidan axborot qidiruvi kontekstida ishlab chiqilgan [1]. Keyinchalik bu yondashuv NLP sohasiga keng tatbiq etildi.

Jurafsky va Martin ishlarida semantik o'xshashlikning statistik va ehtimolli modellar orqali ifodalanishi keng yoritilgan [2]. Word embedding modellarining nazariy asoslari Mikolov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular semantik yaqinlikni vektor fazosidagi masofa orqali aniqlash imkonini berdi [3]. Goldberg esa neyron tarmoqlarga asoslangan semantik modellarni formal nuqtayi nazardan tahlil qilgan [4].

Biroq, mavjud tadqiqotlarning aksariyati amaliy tajribaga yo'naltirilgan bo'lib, semantik o'xshashlikning formal va algoritmik xossalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois, mazkur maqolada ushbu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda matematik modellashtirish, vektor fazosi nazariyasi, ehtimollik va statistik tahlil, algoritmik murakkablikni baholash kabi nazariy metodlar qo'llanildi.

Semantik o'xshashlik $\text{sim}(x,y)$ funksiyasi sifatida aniqlanib, u so'z yoki tushunchalar orasidagi masofani formal tarzda ifodalaydi. Ushbu funksiya metrik yoki psevdometrik xossalarga ega bo'lishi mumkin.

Asosiy qism. Tabiiy tilni qayta ishlashda semantik o'xshashlikni aniqlash masalasi algoritmik va matematik modellashirish nuqtayi nazaridan murakkab ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Semantik o'xshashlik til birliklarining ma'nodagi yaqinligini ifodalaydigan abstrakt tushuncha bo'lib, uni formal ifodalash uchun til birliklarini matematik obyektlar sifatida tasvirlash talab etiladi. Nazariy informatika doirasida bu masala avvalo, mos fazoni aniqlash va ushbu fazoda masofa yoki yaqinlik funksiyasini kiritish orqali hal etiladi [1].

Eng keng tarqalgan formal yondashuvlardan biri vektor fazosiga asoslangan modellar hisoblanadi. Ushbu modellar doirasida so'zlar, iboralar yoki matn birliklari R^n kabi yuqori o'lchamli vektor fazosida tasvirlanadi. Bunda har bir koordinata ma'lum statistik yoki semantik xususiyatni ifodalaydi. Semantik o'xshashlik esa ikki vektor orasidagi kosinus o'xshashlik, Evklid masofasi yoki boshqa metrik funksiyalar orqali aniqlanadi [1, 9]. Ushbu yondashuvning nazariy afzalligi shundaki, u chiziqli algebra va metrik fazolar nazariyasiga tayanadi hamda algoritmik jihatdan nisbatan samaralidir.

Biroq vektor fazosiga asoslangan modellar semantik munosabatlarning barcha jihatlarini to'liq ifodalay olmaydi. Xususan, sinonimiya va polisemantiklik kabi hodisalar ba'zi hollarda faqat statistik yaqinlik bilan chegaralanib qoladi. Shu sababli ehtimolli modellar semantik o'xshashlikni aniqlashda muhim alternativ yondashuv sifatida qaraladi. Bu yondashuvda semantik o'xshashlik til birliklarining kontekstual ehtimollik taqsimotlari orqali aniqlanadi [2]. Masalan, ikki so'zning bir xil yoki o'xshash kontekstlarda uchrash ehtimoli ularning semantik yaqinligini ifodalaydi. Ushbu yondashuv Bayes ehtimollik nazariyasiga va statistik o'rganish modeliga asoslanadi [6, 8].

Ehtimolli modellar semantik noaniqlikni hisobga olish imkonini bersa-da, ularning hisoblash murakkabligi yuqori bo'lishi mumkin. Shu bois, nazariy informatika nuqtayi nazaridan ehtimolli yondashuvlar algoritmik barqarorlik va umumlashtirish qobiliyati bilan bog'liq holda tahlil qilinadi [11]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ehtimolli modellar to'g'ri regularyarizatsiya qilinganda, semantik o'xshashlikni barqaror va ishonchli aniqlash imkonini beradi [6].

Semantik o'xshashlikni aniqlashning yana bir muhim formal yondashuvi grafik modellar bilan bog'liq. Ushbu yondashuvda til birliklari grafik tugunlar sifatida, ularning semantik munosabatlari esa qirralar sifatida ifodalanadi. Masalan, WordNet kabi leksik resurslarda sinonimiya, giperonimiya va antonimiya munosabatlari grafik tuzilma orqali ifodalanadi [5]. Semantik o'xshashlik grafikdagi eng qisqa yo'l uzunligi yoki tugunlar orasidagi strukturaviy yaqinlik orqali baholanadi. Bu yondashuv mantiqiy va ierarxik munosabatlarni formal tarzda ifodalash imkonini beradi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, grafik modellar diskret strukturalarga asoslangan bo'lib, ular semantik munosabatlarni tushuntiriladigan shaklda tasvirlaydi. Biroq, katta hajmdagi matnlar uchun grafik modellarni qurish va

qayta ishlash katta hisoblash resurslarini talab etadi [7]. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda grafik yondashuvlar ko'pincha vektor yoki ehtimolli modellar bilan integratsiyalashgan holda qo'llaniladi.

Umuman olganda, semantik o'xshashlikni aniqlashning formal usullari bir-birini inkor etmaydi, balki o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Vektor modellar uzluksiz fazoda statistik yaqinlikni ifodalaydi, ehtimolli modellar noaniqlikni hisobga oladi, grafik modellar esa mantiqiy va strukturaviy munosabatlarni aniqlaydi [3, 4, 10]. Nazariy informatika nuqtayi nazaridan, ushbu yondashuvlarni yagona formal model doirasida umumlashtirish NLP algoritmlarining umumlashtirish qobiliyati va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, semantik o'xshashlikni aniqlash masalasi NLP algoritmlarining fundamental nazariy xususiyatlaridan biri bo'lib, u algoritmik samaradorlik, hisoblash murakkabligi va barqarorlik bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu masalani formal modellar asosida chuqur tahlil qilish kelajakda nazariy jihatdan asoslangan va tushuntiriladigan sun'iy intellekt tizimlarini yaratish uchun mustahkam ilmiy po'ydevor bo'lib xizmat qiladi [2, 7, 11].

Natijalar va muhokama. Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, semantik o'xshashlikni aniqlashning formal usullari NLP algoritmlarining umumlashtirish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Vektor fazosiga asoslangan modellar hisoblash nuqtayi nazaridan samarali bo'lsa-da, ular kontekstual va mantiqiy munosabatlarni to'liq aks ettira olmaydi. Ehtimolli modellar esa noaniqlikni hisobga olish imkonini bersa-da, ularning hisoblash murakkabligi yuqori bo'lishi mumkin.

Grafik modellarga asoslangan yondashuvlar semantik munosabatlarni aniq ifodalash imkonini beradi, biroq ular katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda murakkablik muammosiga duch keladi. Shu bois, formal nuqtayi nazardan eng samarali yechim ushbu yondashuvlarni integratsiyalash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Nazariy va formal tahlillar natijasida aniqlandiki, semantik o'xshashlikni aniqlash tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining samaradorligini belgilovchi eng muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida vektor fazosiga asoslangan modellar, ehtimolli yondashuvlar hamda grafik modellarning nazariy va algoritmik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, semantik o'xshashlikni aniqlashda har bir model alohida afzalliklarga ega bo'lib, ular NLP algoritmlarining umumlashtirish qobiliyati va hisoblash samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Vektor fazosiga asoslangan modellar semantik yaqinlikni matematik jihatdan ifodalashda eng samarali formal yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu modellar doirasida so'zlar va matn birliklari yuqori o'lchamli vektorlar ko'rinishida tasvirlanadi hamda ular orasidagi o'xshashlik kosinus o'xshashligi yoki masofa funksiyalari orqali aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur yondashuv katta hajmdagi korpuslarni qayta ishlashda yuqori tezkorlikni ta'minlaydi va algoritmik jihatdan samarali hisoblanadi. Biroq ayrim hollarda statistik yaqinlik haqiqiy semantik yaqinlikni to'liq ifodalamaydi. Ayniqsa, polisemantik birliklar va kontekstga bog'liq

ma'nolarni aniqlashda vektor modellarining cheklovlari kuzatildi.

Ehtimolli modellarni nazariy tahlil qilish jarayonida ularning semantik noaniqlikni hisobga olish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvda til birliklarining kontekstual ehtimollik taqsimotlari asosiy mezon sifatida qaraladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ehtimolli modellar murakkab semantik munosabatlarni aniqlashda nisbatan yuqori aniqlik beradi. Ayniqsa, kontekstual ma'no farqlarini aniqlashda Bayes nazariyasiga asoslangan modellar samarali natija ko'rsatadi. Shu bilan birga, ehtimolli modellar uchun katta hajmdagi ma'lumotlar va yuqori hisoblash resurslari talab qilinishi ularning amaliy qo'llanishini murakkablashtiradi.

Grafik modellarga asoslangan yondashuvlar esa semantik bog'lanishlarni strukturaviy va mantiqiy jihatdan ifodalash imkonini berdi. Tadqiqot davomida WordNet kabi leksik grafiklar asosida qurilgan modellar sinonimiya, antonimiya va giperonimiya munosabatlarini aniqlashda yuqori interpretatsiyalanuvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. Grafik modellar semantik strukturalarni tushuntirish nuqtayi nazaridan samarali bo'lsa-da, katta hajmdagi tarmoqlar bilan ishlashda algoritmik murakkablik ortishi kuzatildi. Bu esa real vaqt rejimida ishlovchi NLP tizimlarida muhim muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokamalar natijasida semantik o'xshashlikni aniqlashda yagona modeldan foydalanish yetarli emasligi asoslandi. Chunki tabiiy til ko'p qatlamli murakkab tizim bo'lib, unda statistik, mantiqiy va kontekstual munosabatlar birgalikda shakllanadi. Shu sababli, vektor, ehtimolli va grafik modellarni integratsiyalashgan holda qo'llash eng samarali yondashuv sifatida baholandi. Integratsiyalashgan formal modellar NLP algoritmlarining barqarorligi, aniqligi va umumlashtirish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Olingan nazariy natijalar semantik o'xshashlikni formal modellar asosida chuqur o'rganish kelgusida tushuntiriladigan va ishonchli sun'iy intellekt tizimlarini yaratishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi.

Xulosa. Mazkur maqolada tabiiy tilni qayta ishlashda semantik o'xshashlikni aniqlash masalasi formal va nazariy informatika nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Semantik o'xshashlik tushunchasi matematik va algoritmik modellar orqali ifodalaniib, uning NLP algoritmlarining umumlashtirish qobiliyati va hisoblash xossalari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, semantik o'xshashlikni aniqlash uchun vektor fazosi, ehtimolli va grafik modellariiga asoslangan yondashuvlar har biri alohida nazariy afzalliklarga ega. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning cheklovlari ham mavjud bo'lib, ularni kompleks qo'llash orqali bartaraf etish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, semantik o'xshashlikni aniqlashning formal usullari NLP sohasida nazariy va amaliy tadqiqotlarni birlashtiruvchi strategik yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, formal modellashtirish orqali NLP algoritmlarining interpretatsiyalanuvchanligi, barqarorligi va umumlashtirish qobiliyatini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa kelgusida sun'iy intellekt tizimlarining ishonchligini oshirish va inson tilini chuqurroq tushunadigan

algoritmlarni yaratish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, semantik o'xshashlikni formal modellarga asoslangan holda o'rganish NLP sohasida fundamental ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar kelgusida ishonchli va tushuntiriladigan sun'iy intellekt tizimlarini yaratishga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Semantik o'xshashlikni baholash uchun yagona formal mezonlar tizimini ishlab chiqish. Hozirgi kunda tabiiy tilni qayta ishlashda semantik o'xshashlikni aniqlash turli empirik va kontekstga bog'liq mezonlar orqali amalga oshirilmogda. Bu holat NLP algoritmlarini nazariy jihatdan solishtirish va ularning umumlashtirish qobiliyatini baholashda muhim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, semantik o'xshashlikni aniqlash uchun metrik va psevdometrik xossalarga ega bo'lgan yagona formal mezonlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday me'zonlar vektor fazosi, ehtimollik taqsimotlari va grafik strukturalar asosida aniqlanib, NLP algoritmlarini nazariy baholash uchun umumiy standart vazifasini bajarishi mumkin.

2. Vektor, ehtimolli va grafik modellarni integratsiyalashgan nazariy model doirasida birlashtirish. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, semantik o'xshashlikni aniqlashda qo'llaniladigan mavjud formal yondashuvlarning har biri alohida afzallik va cheklovlarga ega. Vektor modellar hisoblash jihatdan samarali bo'lsa, ehtimolli modellar noaniqlikni hisobga oladi, grafik modellar esa mantiqiy va strukturaviy munosabatlarni aniqlik bilan ifodalaydi. Shu bois, ushbu yondashuvlarni yagona integratsiyalashgan nazariy model doirasida birlashtirish taklif etiladi. Bunday model semantik o'xshashlikni ko'p qatlamli formal struktura sifatida ifodalash imkonini berib, NLP algoritmlarining nazariy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

3. Semantik o'xshashlikni aniqlash algoritmlarining hisoblash murakkabligini nazariy tahlil qilish. Semantik o'xshashlikni aniqlash algoritmlarining samaradorligi nafaqat aniqlik, balki ularning hisoblash murakkabligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli, ushbu algoritmlarning vaqt va xotira murakkabligini formal modellar asosida chuqur tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, katta hajmdagi matnlar va yuqori o'lchamli vektor fazolari bilan ishlash sharoitida algoritmik murakkablikning semantik aniqlikka ta'sirini nazariy jihatdan baholash dolzarbdir. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar optimallashtirilgan va barqaror NLP algoritmlarini yaratishga xizmat qiladi.

4. NLP tizimlarini loyihalashda formal semantik mezonlarni optimallashtirish kriteriyasi sifatida joriy etish. Amaliy NLP tizimlarini ishlab chiqishda ko'pincha empirik samaradorlik ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Biroq, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, formal semantik mezonlarni optimallashtirish kriteriyasi sifatida joriy etish NLP algoritmlarining umumlashtirish qobiliyati va ishonchligini oshiradi. Shu bois, kelgusida NLP tizimlarini loyihalashda semantik o'xshashlikning formal mezonlarini algoritmik optimallashtirish jarayoniga kiritish tavsiya etiladi. Bu yondashuv nazariy jihatdan asoslangan, tushuntiriladigan va barqaror sun'iy intellekt tizimlarini yaratishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Salton G. Automatic Text Processing: The Transformation, Analysis, and Retrieval of Information by Computer. Reading (MA): Addison-Wesley, 1989.
2. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. 3rd ed. – Pearson Education, 2023.
3. Mikolov T., Chen K., Corrado G., Dean J. Distributed Representations of Words and Phrases and their Compositionality. // Advances in Neural Information Processing Systems. 2013. Vol. 26. – P. 3111-3119.
4. Goldberg Y. Neural Network Methods for Natural Language Processing. – San Rafael (CA): – Morgan & Claypool Publishers, 2017.
5. Fellbaum C. (Ed.) WordNet: An Electronic Lexical Database. – Cambridge (MA): MIT Press, 1998.
6. Vapnik V. N. Statistical Learning Theory. – New York: Wiley-Interscience, 1998.
7. Mohri M., Rostamizadeh A., Talwalkar A. Foundations of Machine Learning. 2nd ed. – Cambridge (MA): MIT Press, 2018.
8. Bishop C. M. Pattern Recognition and Machine Learning. – New York: Springer, 2006.
9. Manning C. D., Raghavan P., Schütze H. Introduction to Information Retrieval. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
10. Cover T. M., Thomas J. A. Elements of Information Theory. 2nd ed. – Hoboken (NJ): Wiley-Interscience, 2006.
11. Bousquet O., Elisseeff A. Stability and Generalization. // Journal of Machine Learning Research. Vol. 2, 2002. – P. 499-526.
- Zhang T. Statistical Behavior and Consistency of Classification Methods. // Annals of Statistics. Vol. 32, №1, 2004. – P. 56-134.

LOKAL TARMOQ ISHINI OPTIMALLASH TIRISH MASALALARI HAQIDA

Alaminov Muratbay Xaytbaevich – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

alaminov1962@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

О ЗАДАЧАХ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЛОКАЛЬНОЙ СЕТИ

Аламинов Муратбай Хайтбаевич – кандидат физико-математических наук, доцент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

ABOUT THE TASKS OF OPTIMIZING LOCAL NETWORK OPERATION

Alaminov Muratbay Xaytbaevich – Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: lokal tarmoq, tarmoq yuklamasi, auditori, konfiguratsiyani optimallashtirish, samaradorlik, monitoring, nosozliklar.

Резюме. Maqolada lokal tarmoq ishini optimallashtirish masalalari koʻrib chiqilgan. Lokal tarmoq ish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim boʻlgan usullari muhokama qilingan. Lokal tarmoq ishini samarali tashkil qilishda nimalarga eʼtibor berish muhimligi koʻrsatilgan.

Ключевые слова: локальная сеть, сетевая нагрузка, аудит, оптимизация конфигурации, производительность, мониторинг, сбои.

Резюме. В статье рассматриваются вопросы оптимизации работы локальной сети. Обсуждаются важные методы повышения эффективности работы локальной сети. Показано, на что следует обращать внимание при эффективной организации работы локальной сети.

Key words: local area network, network load, audit, configuration optimization, performance, monitoring, troubleshooting.

Summary. The article discusses the issues of optimizing the work of a local area network. Important methods for increasing the efficiency of local area network operations are discussed. It is shown what is important to pay attention to when organizing the work of a local area network effectively.

Kirish. Axborot asrimizda, lokal tarmoq samaradorligi korxonaga yoki muassasaning muvaffaqiyatli ishlashi va qulay muloqot qilishi uchun muhim omilga aylanib bormoqda. Lokal tarmoq koʻlamidan qatʼi nazar – kichik ofis yoki maktab boʻladimi – uning ish faoliyatini optimallashtirish juda muhimdir.

Shuning uchun lokal (mahalliy) tarmoqni optimallashtirish masalalarini va foydalanuvchilar duch keladigan asosiy muammolar koʻrib chiqish hamda tarmoq ish faoliyatini yaxshilash uchun amaliy yechimlar taklif qilish hozirgi davr tarmoq texnologiyalarining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Materiallar va asosiy usullar. Tarmoq ishlashi bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etish uchun potentsial toʻsiqlarni aniqlashdan tortib, aniq yechimlarni amalga oshirishgacha boʻlgan tizimli va metodologik yondashuv talab etiladi. Bu jarayonda baʼzi asosiy bosqichlar quyidagilardan iborat:

Tarmoq yuklamasini tahlil qilish – Birinchi qadam tarmoq qanday ishlatilayotganini tahlil qilishdan iborat. Bunga uzatilayotgan maʼlumotlar hajmini baholash, turli qurilmalar va ilovalardan foydalanish chastotasi va intensivligini aniqlash hamda eng yuqori faollik vaqtlarini aniqlash nazarda tutiladi.

Uskuna tekshiruv – Routerlar, kommutatorlar va Wi-Fi ulanish nuqtalari kabi tarmoq uskunalarning holati tekshiriladi. Dasturiy taʼminotni yangilash va uskunaning optimal sozlamalarda ishlayotganiga ishonch hosil qilish zarur boʻladi [1].

Konfiguratsiyani optimallashtirish – IP-manzil ziddiyatlari, notoʻgʻri Wi-Fi kanal sozlamalari va kanal oʻtkazish qobiliyatining yetarli emasligi kabi potentsial muammolar uchun tarmoq konfiguratsiyasini tekshirish kerak boʻladi [6].

Toʻsiqlarni olib tashlash – Ishlashni sekinlashtirishi mumkin boʻlgan tarmoq toʻsiqlarini aniqlash va hal qilishni nazarda tutadi. Bunga eskirgan uskunalarni almashtirish, tarmoq kabellarining oʻtkazish qobiliyatini oshirish yoki qoʻshimcha Wi-Fi kirish nuqtalarini qoʻshish bilan erishish mumkin.

Monitoring va nosozliklarni tuzatish – Tarmoq faoliyatini kuzatish va nosozliklarni tuzatish muammolari uchun vositalarni oʻrnatish kerak boʻladi. Bu esa muammolar tarmoq ishlashiga taʼsir qilishdan oldin ularni tezda aniqlash va hal qilish imkonini beradi.

Foydalanuvchilarni oʻqitish va qoʻllab-quvvatlash – foydalanuvchilarga tarmoqdan toʻgʻri foydalanish boʻyicha oʻrgatish va ularga duch kelishi mumkin boʻlgan har qanday muammolarni hal qilishda yordam berish. Bu esa yuzaga kelishi mumkin boʻlgan IT soʻrovlarini kamaytirishga va umumiy tarmoq ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Tarmoq ish faoliyati bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etishga tizimli yondashuv tarmoqda maʼlumotlarni uzatish ehtiyojlarini qondirishga qodir ishonchli va samarali infratuzilmani yaratishga yordam beradi.

Tarmoqning barqaror ishlashini taʼminlash va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolarning oldini olish uchun tarmoqdagi xatolarni kuzatib borish, yaʼni proaktiv mahalliy tarmoq monitoring juda muhim rol oʻynaydi.

Tarmoq qurilmalarining mavjudligini tekshirish, ulanish sifatini tekshirish va tarmoq konfiguratsiyasini tekshirish uchun ping, traceroute va ipconfig kabi tarmoq utilita dasturlaridan foydalanish zarur boʻladi. Routerlar, kommutatorlar va Wi-Fi kirish nuqtalari kabi tarmoq uskunalarning holatini kuzatish uchun maxsus dasturlaridan foydalanish kerak. Ushbu vositalar yordamida protsessorning yuqori darajada ishlatilishi, qizib

ketishi yoki qurilmaning ishdan chiqishi kabi muammolar haqida ma'lumot olishimiz mumkin [6].

Tarmoq ishlashini doimiy ravishda kuzatib borishi va aniqlangan muammolar yoki potentsial tahdidlar haqida bildirishnomalar yuborishi mumkin bo'lgan Nagios, Zabbix yoki PRTG Network Monitor kabi avtomatlashtirilgan tarmoq monitoring tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Elektron pochta, SMS yoki boshqa mavjud aloqa kanallari orqali muammolar haqida bildirishnomalar yuborish uchun monitoring tizimi sozlanadi. Bu esa paydo bo'layotgan muammolarga tezda javob berish va ularning yomonlashishining oldini olish imkonini beradi. Eng so'nggi dasturiy ta'minot va dasturiy ta'minot yangilanishlarini o'rnatishni o'z ichiga olgan holda, tarmoq uskunalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatib borishni yolg'a qoyish muhim hisoblanadi. Bu esa ko'plab potentsial ishlash va xavfsizlik muammolarining oldini olishga yordam beradi.

Tarmoq auditini o'tkazish tarmoq infratuzilmangizning ishlashi va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatolar, zaifliklar va potentsial muammolarni aniqlashda muhim qadamdir.

Buning uchun tarmoqda ishlatiladigan barcha tarmoq apparat va dasturiy ta'minotning to'liq inventarizatsiyasi tuziladi. Unga serverlar va marshrutizatorlardan tortib kompyuterlar va printerlargacha bo'lgan hamma narsani kiritiladi. Xavfsizlik standartlariga javob berishi va optimal ishlashga erishishi uchun joriy tarmoq konfiguratsiyasini tahlil qilinadi.

Zaifliklar, ochiq portlar, autentifikatsiya kamchiliklari va boshqa potentsial muammolarni aniqlash orqali tarmoqning xavfsizlik holatini baholanadi. Zaifliklarni aniqlash va yamoqlarni o'rnatish uchun Nessus yoki OpenVAS kabi zaifliklarni skanerlash vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Tarmoq trafiginu kuzatish va tahlil qilish uchun Wireshark yoki tcpdump kabi trafikni tahlil qilish vositalaridan foydalanish talab qilinadi. Bu esa g'ayritabiiy patternlar, hujumlar yoki ishlash muammolarini aniqlashga yordam beradi.

Ma'lumotlar zaxira nusxalari to'g'ri sozlanganligini va ishlayotganligini tekshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zaxira nusxalari muntazam ravishda yaratilganligiga ishonch hosil qilish va ularning yaxlitligi va tiklanishini sinab ko'rish yo'lga qo'yiladi. Audit natijalarini, jumladan, aniqlangan xatolar, zaifliklar va tavsiya etilgan tuzatishlarni yozib olinadi. Bu esa sizga muammolarni hal qilish va tarmoq xavfsizligini yaxshilash bo'yicha harakatlar rejasini tuzishga yordam beradi.

Tarmoq auditlarini muntazam va tizimli ravishda o'tkazish muammolar tarmoq infratuzilmangizga jiddiy tahdid solishidan oldin ularni aniqlash va hal qilishga yordam beradi.

Mahalliy tarmoqdagi muammoli hududni izolyatsiya qilish - bu tarmoq muammolari yuzaga keladigan hududni aniqlash va cheklash jarayoni bo'lib, ularning tarmoqning qolgan qismiga ta'sirini minimallashtirishdir. Muammoli hududni izolyatsiya qilishning ba'zi usullari quyidagilardan iborat:

VLANlardan foydalanish – Tarmoqni mantiqiy guruhlarga ajratish va bitta VLANdagi muammolarni tarmoqning boshqa qismlaridan ajratish uchun virtual mahalliy tarmoqlar (VLAN) yaratiladi. Bu muammolarning tarmoq bo'yab tarqalishini cheklaydi.

Kirish cheklovi – Tarmoqning muammoli hududlariga tarmoqning boshqa qismlaridan kirishni cheklash uchun xavfsizlik devori qoidalari va kirishni boshqarish ro'yxatlari (ACL) sozlanadi. Bu tarmoq muammolarining tarqalishining oldini olishga va nozik resurslarni himoya qilishga yordam beradi. Qurilmani izolyatsiya qilish – agar muammo ma'lum bir tarmoq qurilmasida, masalan, marshrutizator yoki kommutatorlarda aniqlansa, muammoning boshqa qurilmalarga ta'sir qilishini oldini olish uchun uni tarmoqning qolgan qismidan ajratib qo'yish tavsiya qilinadi.

Tarmoq monitoringi vositalaridan foydalanish – Muammoli tugunlarni yoki tarmoq segmentlarini aniqlash uchun SNMP (Oddiy tarmoqni boshqarish protokoli) kabi tarmoq monitoringi vositalaridan foydalanish zarur bo'ladi. Bu muammoli hududlarni tezda aniqlash va ajratishga yordam beradi [2].

Jismoniy infratuzilmani tekshirish – muammolar jismoniy shikastlanish yoki noto'g'ri ulanishlar tufayli yuzaga kelmasligiga ishonch hosil qilish uchun tarmoq kabellari, portlar va ulagichlar kabi jismoniy ulanishlar va uskunalarni tekshirib turish katta ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama. Muammo maydonini ajratish tarmoq muammolarining butun mahalliy tarmoqqa ta'sirini minimallashtirishga va muammolarni bartaraf etish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Buni SNMP dan foydalanish misolida ko'rib chiqamiz.

SNMP – bu mahalliy tarmoqlarda tarmoq qurilmalarini kuzatish va boshqarish uchun ishlatiladigan tarmoqni boshqarish protokoli. Bu tarmoq administratorlariga qurilmalarning holati va ishlashini masofadan turib kuzatish va ularni markazlashtirilgan boshqaruv tizimi orqali boshqarish imkonini beradi.

SNMP ko'plab sabablarga ko'ra mahalliy tarmoqlar bilan ishlash uchun foydalidir. SNMP marshrutizatorlar, kommutatorlar va serverlar kabi tarmoq qurilmalaridan real vaqt rejimida ishlash ma'lumotlarini to'plash imkonini beradi.

Shuningdek, u tarmoq administratorlariga marshrutizatorlar va kommutatorlar kabi tarmoq qurilmalarining konfiguratsiyasini masofadan turib o'zgartirish imkonini beradi. Bu tarmoq boshqaruvini soddalashtiradi va tezkor o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

SNMP dan foydalanish mahalliy tarmoqni monitoring qilish va boshqarishni soddalashtiradi, uning ishlashi va ishonchligini oshiradi va muammolar yuzaga kelganda tarmoqning uzilish vaqtini kamaytiradi.

Xulosa. Kompyuter tarmog'ini tahlil qilish va muammolarni bartaraf etish tarmoqning normal ishlashiga xalaqit beradigan muammolarni aniqlash va hal qilishga yordam beradigan muhim jarayondir.

Birinchi qadam kompyuterlar, serverlar, kommutatorlar va marshrutizatorlar kabi barcha tarmoq qurilmalarining jismoniy ulanishini tekshirishdir. Barcha tarmoq kabellari to'g'ri ulanganligiga va shikastlanmaganligiga ishonch hosil qilish zarur bo'ladi. Shuningdek, tarmoqdagi barcha qurilmalarning IP manzil sozlamalarini tekshirish, ular bir xil ichki tarmoqda ekanligiga va noyob IP manzillariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish muhim. Joriy IP manzil konfiguratsiyasini tekshirish uchun ipconfig kabi buyruqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tarmoqda takroriy IP manzillar yo'qligiga ishonch hosil qilish zarur, chunki bu nizolarga olib kelishi va

qurilmalarning bir-biri bilan aloqa qilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Takroriy IP manzillarni aniqlash uchun tarmoqni skanerlash yordam dasturlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, marshrutizatorlar, kommutatorlar va WiFi kirish nuqtalari kabi tarmoq qurilmalarining ishlashini tekshiriladi. Ularning yoqilganligiga, to‘g‘ri sozlanganligiga va to‘g‘ri ishlayotganligiga ishonch hosil qilish kerak bo‘ladi.

Tarmoq uzilishlari yoki past o‘tkazuvchanlik kabi g‘ayritabiiy paketlarni yoki tarmoq muammolarini aniqlash

uchun Wireshark kabi tarmoq trafigini tahlil qilish vositalaridan foydalaniladi.

Tarmoqni tahlil qilib, muammoli joylarni aniqlagandan so‘ng, tegishli usullar va yechimlar yordamida ularni bartaraf etishni boshlash kerak. Bunga tarmoq qurilmasi sozlamalarini o‘zgartirish, dasturiy ta‘minotni yangilash, jismoniy muammolarni hal qilish va boshqalar kirishi mumkin. Muammolarni bartaraf etish tarmoqni normal ishlashiga qaytarishga va uning barqarorligi va ishlashini ta‘minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Эндрю Таненбаум, Дэвид Уэзерелл. Компьютерные сети. – Санкт-Петербург: «Питер», 2012.
2. Виктор Олифер, Наталия Олифер. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы. Учебник. – Санкт-Петербург: «Питер», 2016.
3. Begbo‘tayeв A.E. “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent: «Tafakkur», 2020.
4. Miryusupov Z.Z., Djumanov J.X. Kompyuter tarmoqlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Aloqachi», 2020.
5. Alaminov M.X. Tarmaq texnologiyalari. Oqiw qollanba. – Nókis: «Ilimpaz», 2023.
6. Alaminov M.X., To‘libayev K.M., Babazarova M.S. Kompyuter tarmog‘ini bosh-qarishning asosiy buyruqlari haqida. “Matematika va informatika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni o‘rganishning dolzarb muammolari” mavzusida chet el olimlari ishtirokida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, NDPI, 2023, 126-129-b.
7. Alaminov M.X. “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishda amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish. // Ilim hám jámiyet, №6(2) 2024, 59-60-b.

DISPERS SUYUQLIKLARINING SINDIRISH KO'RSATKICHINI SNELLIUS QONUNI BO'YICHA ANIQLASH

Akimova Jumaxan Orazbaevna – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

akimovaj.o@gmail.com

Saburova Surayyo Saparbay qizi – talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЯ ПРЕЛОМЛЕНИЯ ДИСПЕРСНЫХ ЖИДКОСТЕЙ ПО ЗАКОНУ СНЕЛЛА

Акимова Джумахан Оразбаевна – кандидат физико-математических наук, доцент

Сабурова Сурайё Сапарбаевна – студент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

DETERMINATION OF THE REFRACTIVE INDEX OF DISPERSED LIQUIDS ACCORDING TO SNELL'S LAW

Akimova Jumakhan Orazbaevna – Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor

Saburova Surayyo Saparbaevna – student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: dispersiya, sindirish ko'rsatkichi, Snellius qonuni, g'ovak prizma, minimal og'ish burchagi, suv, toluol.

Rezyume. Ushbu ilmiy ishda g'ovak prizma yordamida turli dispers suyuqliklar (suv, toluol va boshqalar) ning sindirish ko'rsatkichini Snellius qonuni asosida aniqlash laboratoriya tajribasi o'rganildi. Minimal og'ish burchagi usuli qo'llanilgan holda o'lchangan masofalar va burchaklar asosida sindirish ko'rsatkichlari hisoblandi. Tajriba natijalarida suv uchun $n_d \approx 1,33$, toluol uchun $n_d \approx 1,50$ qiymatlari olingan bo'lib, bu qiymatlar adabiyotlarda keltirilgan standart ma'lumotlar bilan 1–2% ichida mos keladi. Ishda Snellius qonunining prizmada minimal og'ish holatidagi soddalashtirilgan formulalari asosiy hisoblash vositasi sifatida qo'llanildi. Dispersiya hodisasi batafsil tahlil qilinib, Snellius qonuni asosidagi tajribaviy isbotlar keltirildi.

Ключевые слова: дисперсия, показатель преломления, закон Снеллиуса, полая призма, угол минимального отклонения, вода, толуол.

Резюме. В данной научной работе изучен лабораторный эксперимент по определению показателя преломления различных диспергирующих жидкостей (вода, толуол и др.) с использованием закона Снеллиуса и полой призмы. Применён метод минимального угла отклонения, показатели преломления рассчитаны на основе измеренных расстояний и углов. Полученные значения: $n_d \approx 1,33$ для воды и $n_d \approx 1,50$ для толуола, что согласуется со стандартными значениями из литературы в пределах 1–2%. В расчётах использованы упрощённые формулы, вытекающие из закона Снеллиуса в условиях минимального отклонения в призме. Явление дисперсии подробно проанализировано, приведены экспериментальные доказательства на основе закона Снеллиуса.

Key words: dispersion, refractive index, Snell's law, hollow prism, minimum deviation angle, water, toluene.

Summary. This scientific paper examines a laboratory experiment to determine the refractive index of various dispersive liquids (water, toluene, etc.) using Snell's law with a hollow prism. The minimum deviation angle method was employed, and refractive indices were calculated based on measured distances and angles. The obtained results are $n_d \approx 1.33$ for water and $n_d \approx 1.50$ for toluene, which agree with literature standard values within 1–2%. The simplified formulas derived from Snell's law under minimum deviation conditions in a prism served as the primary calculation tool. The phenomenon of dispersion is analyzed in detail, with experimental proofs based on Snell's law provided.

Kirish. Nurining moddiy muhitda tarqalishi optikaning asosiy masalalaridan biridir. Nur bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda sindirilishi Snellius qonuni bilan tavsiflanadi. Ushbu qonun sindirish ko'rsatkichini (n) aniqlashning fundamental asosini tashkil etadi. Dispers suyuqliklarda sindirish ko'rsatkichi to'liq uzunligiga (λ) bog'liq bo'lib, bu hodisa dispersiya deb ataladi.

Laboratoriya tajribasida g'ovak prizma ichiga turli suyuqliklar quyilib, oq nur manbai yordamida minimal og'ish burchagi o'lchanadi. Bu usul Snellius qonunidan kelib chiqadigan maxsus formulalar yordamida sindirish ko'rsatkichini aniqlashga imkon beradi.


Ishning maqsadi – suv va toluol kabi dispers suyuqliklar uchun sindirish ko'rsatkichini tajribada aniqlash, dispersiya hodisasini Snellius qonuni asosida o'rganish va nazariy qiymatlar bilan solishtirish.

Nazariy qism. Snellius qonuni:

Nur bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda quyidagi tenglama bajariladi:

$$n_1 \sin \theta_1 = n_2 \sin \theta_2 \quad (1)$$

bu yerda, θ_1 – tushish burchagi, θ_2 – sinish burchagi, n_1 va n_2 – mos muhitlarning sindirish ko'rsatkichlari.



1-rasm. Snellius qonuni bo'yicha sinish sxemasi.

Dispersiya hodisasi. Dispersiya — yorug‘likning moddiy muhitda tarqalish tezligi va sindirish ko‘rsatkichi uning to‘lqin uzunligiga (λ) bog‘liq bo‘lishidir. Oq nur (turli λ dagi nurlarning aralashmasi) prizmadan o‘tganda ranglarga bo‘linadi (spektr hosil bo‘ladi).


Fizik sababi: Yorug‘lik modda elektronlari bilan o‘zaro ta‘sir qiladi. Qisqa to‘lqinli nur (ko‘k) kuchliroq sindiriladi, uzoq to‘lqinli (qizil) kamroq. $n = c / v$, $n(\lambda)$ odatda λ kamayganda ortadi (normal dispersiya).

Dispersiya turlari:

- Normal dispersiya: Ko‘pchilik shaffof moddalarda (suv, shisha). n λ ortishi bilan kamayadi.
- Anomal dispersiya: Yutish chiziqlari yaqinida.


Tajribaviy isbotlari:

1. Snellius qonunini tajribaviy aniqlash: Yarim doira shisha blok yoki suvli idishda nur tushirib, tushish va sindirilish burchaklari o‘lchanadi. $n_1 \sin \theta_1 = n_2 \sin \theta_2$ tenglama tasdiqlanadi.




2-rasm

2. Prizmada dispersiya: Oq nur prizmadan o‘tganda turli ranglar turli burchak ostida sindiriladi (Snellius qonuni tufayli $n(\lambda)$ farqi), spektr hosil bo‘ladi.




3-rasm

3. G‘ovak prizma tajribasi: Suyuqlik quyilgan prizmada turli ranglar uchun og‘ish burchagi farq qiladi.



4-rasm

4. Tabiatdagi isbot: Kamalak: Quyosh nuri suv tomchilarida sindiriladi va dispersiyalanadi (Snellius qonuni asosida).



5-rasm.

Prizmada minimal og‘ish holati:

$A = 60^\circ$ burchakli prizmada minimal og‘ish burchagi D_{min} holatida sindirish ko‘rsatkichi quyidagi soddalashtirilgan formulalar bilan aniqlanadi:

$$n = \frac{\sin(\frac{A + D_{min}}{2})}{\sin(\frac{A}{2})} \tag{2}$$

$$n \approx 2 \cdot \sin(30^\circ + \frac{\alpha}{2}) \tag{3}$$

bu yerda $\alpha = D_{min}$ (minimal og‘ish burchagi).

¹ Ushbu (2) va (3) formulalar Snellius qonuni (1) va prizma geometriyasidan minimal og‘ish shartida soddalashtirish yo‘li bilan keltirib chiqarilgan. Batafsil derivatsiya Karimov R., Eshchanov B. (2012) va Landsberg G.S. (1983) asarlarida keltirilgan.

Tajriba usuli va apparatura

Apparatura:

- G‘ovak prizma (60° burchakli)
- Prizma stoli
- Natriy lampa va oq nur manbai
- Yorug‘lik filtri (qizil, sariq, ko‘k)
- Suv, toluol va boshqa suyuqliklar
- Optik stol, masofa o‘lchagich

Tajriba tartibi:

1. Prizmaga suyuqlik quyiladi.
2. Minimal og‘ish holati o‘rnatiladi.
3. Turli rangli nurlar uchun masofa $d(\lambda)$ o‘lchanadi ($D = 0,5$ m masofada).
4. Burchak $\alpha(\lambda) = \arctan(d / D)$ hisoblanadi.
5. Sindirish ko‘rsatkichi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$n(\lambda) \approx 2 \cdot \sin\left(30^\circ + \frac{\alpha(\lambda)}{2}\right) \tag{4}$$

Tajribada dispersiya bevosita kuzatiladi – turli ranglar uchun og‘ish burchagi farq qiladi (Snellius qonuni asosida).

Natijalar va hisob-kitoblar.

1-jadval. O‘lchangan masofalar va hisoblangan og‘ish burchaklari ($D = 0,5$ m)

| Suyuqlik | Rang | d (cm) | (α) (°) |
|----------|-------|--------|------------------|
| Suv | Qizil | 21,7 | 23,44 |
| Suv | Sariq | 21,9 | 23,62 |
| Suv | Ko‘k | 22,2 | 23,90 |
| Toluol | Qizil | 37,0 | 36,49 |
| Toluol | Sariq | 37,6 | 36,92 |
| Toluol | Ko‘k | 38,6 | 37,70 |

Hisob-kitoblar (sariq nur uchun):

Suv:

$$\alpha = 23,62^\circ$$

$$n = 2 \cdot \sin\left(30^\circ + \frac{36,92^\circ}{2}\right) = 2 \cdot \sin(48,46^\circ) \\ \approx 2 \cdot 0,750 \approx 1,50$$

Toluol:

$$\alpha = 36,92^\circ$$

$$n = 2 \cdot \sin\left(30^\circ + \frac{36,92^\circ}{2}\right) = 2 \cdot \sin(48,46^\circ) \\ \approx 2 \cdot 0,750 \approx 1,50$$

Dispersiya farqi ($n_{\text{ko'k}} - n_{\text{qizil}}$):

$$\text{Suv} \approx 0,006;$$

$$\text{Toluol} \approx 0,014.$$

Muhokama. Olingan qiymatlar adabiyotlarda keltirilgan standart ma'lumotlar bilan yaxshi mos keladi (suv uchun $n_d = 1,333$; toluol uchun $n_d = 1,496$; 20°C

da). Toluol suvga nisbatan kuchliroq dispersiyaga ega (aromatik tuzilishi tufayli), bu tajribada og'ish burchaklarining katta farqi bilan tasdiqlanadi.

Xatoliklar asosan:

- Burchak va masofa o'lchashdagi noaniqlik ($\pm 0,1-0,2$ cm);

- Harorat ta'siri (n harorat oshganda kamayadi);

- Prizma devorlarining qalinligi va shaffofligi ta'siri.

Umumiy xatolik 1–3% ichida.

Xulosa. Snellius qonunidan kelib chiqadigan soddalashtirilgan formulalar (2), (3) va (4) yordamida suv uchun $n \approx 1,33$, toluol uchun $n \approx 1,50$ aniqlandi. Tajriba dispersiya hodisasini Snellius qonuni asosidagi tajribaviy usullar (prizma va g'ovak prizma) bilan muvaffaqiyatli tasdiqladi. Natijalar nazariy va amaliy optika uchun muhimdir.

Adabiyotlar

1. Qo'lyuliyev B.T. Optika. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2014.
2. Turdiev N. Sh. va boshq. Fizika 11-sinf darsligi. – Toshkent: «O'qituvchi», 2018.
3. Karimov R., Eshchanov B. Optikadan masalalar va laboratoriya ishlari to'plami. – Toshkent: «Cho'lpon», 2012.
4. Gadoyev O. va boshq. Fizikadan praktikum. Optika va kvant fizika. – Toshkent: «Musiqqa», 2007.
5. Сивухин Д.В. Общий курс физики. Т. 4. Оптика. – Москва: «ФИЗМАТЛИТ», 2005.
6. O'lmasova M.H. Fizika: optika, atom va yadro fizikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 2004.
7. Otajonov Sh., Ramazanov A.X., Eshchanov B.X. Umumiy fizikadan praktikum. Optika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zMU, 2022.
8. Landsberg G.S. Optika. – Toshkent: «O'qituvchi», 1983.
9. Akimova J., Turekeev X., Qalxorazov Q., Kazaxbaev M. Fizika kursi boyinsha laboratoriyaliq jumislar. – Nókis: «Pimpaz», 2024.
10. Құлбекұлы М., Хамраев Ш. Электрмагниттік тербелістер мен толқындар. Оптика. – Алматы: «Қарасай», 2010.
11. Bozorova S., Kamolov N. Fizika (Optika. Atom va yadro fizikasi). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashri, 2007.

RACIONAL BÓLSHEKLER HÁM OLARDÍ ÁPIWAYÍ BÓLSHEKLERGE AJÍRATÍW USÍLLARI

Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna – *pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent*

kalekeevat@gmail.com

Utebergenova Aymereke Dauletmurat qızı – *magistrant*

Quanishbaeva Hurliman Sabit qızı – *talaba*

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutu

РАЦИОНАЛЬНЫЕ ДРОБИ И МЕТОДЫ ИХ РАЗЛОЖЕНИЯ НА ПРОСТЕЙШИЕ ДРОБИ

Калекеева Тамара Туркменбаевна – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент*

Утебергенова Аймереке Даулетмуратовна – *магистрант*

Куанышбаева Хурлиман Сабитовна – *студент*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

RATIONAL FRACTIONS AND METHODS FOR DECOMPOSING THEM INTO UNIT FRACTIONS

Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

Utebergenova Aymereke Dauletmuratovna – *master's student*

Kuanysbbaeva Khurliman Sabitovna – *student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: ratsional kasr, to‘g‘ri va noto‘g‘ri kasrlar, sodda kasrlar, ko‘paytuvchilarga ajratish, Lagranj metodi, Gerner sxemasi, kompleks sonlar.

Rezyume. Maqolada haqiqiy va kompleks sonlar maydonida berilgan ratsional kasrlar, ularning xossalari va eng sodda kasrlar yig‘indisiga ajratish usullari o‘rganilgan. Ishda noto‘g‘ri ratsional kasrdan butun qismini ajratish, to‘g‘ri ratsional kasrlarni chiziqli va kvadratik ko‘paytuvchilar asosida sodda kasrlarga yoyish nazariyasi keltirilgan. Shuningdek, aniqmas koeffitsiyentlar metodi, Lagranj usuli va Gerner sxemasi yordamida amaliy misollarni yechish yo‘llari ko‘rsatilib, asosiy teoremlar isbotlangan. Maqola oliy o‘quv yurtlari talabalari va akademik litsey o‘quvchilari uchun qo‘llanma sifatida foydalanishga mo‘ljallangan.

Ключевые слова: рациональная дробь, правильные и неправильные дроби, простейшие дроби, разложение на множители, метод Лагранжа, схема Горнера, комплексные числа.

Резюме. В статье рассматриваются рациональные дроби, заданные над полем действительных и комплексных чисел, их свойства и методы разложения на сумму простейших дробей. В работе приведена теория выделения целой части из неправильной рациональной дроби, а также разложения правильных рациональных дробей на простейшие на основе линейных и квадратичных множителей. Также показаны способы решения практических примеров с использованием метода неопределенных коэффициентов, метода Лагранжа и схемы Горнера, и доказаны основные теоремы. Статья предназначена для использования в качестве пособия студентами высших учебных заведений и учащимися академических лицеев.

Key words: rational fraction, proper and improper fractions, unit fractions, factorization, Lagrange's method, Horner's scheme, complex numbers.

Summary. This article examines rational fractions defined over the field of real and complex numbers, their properties, and methods for factoring into sums of partial fractions. The paper presents a theory for extracting the integer part from an improper rational fraction, as well as the factorization of proper rational fractions into partial fractions using linear and quadratic factors. It also demonstrates solutions to practical examples using the method of undetermined coefficients, the Lagrange method, and Horner's scheme, and proves the main theorems. This article is intended for use as a resource for students at higher education institutions and academic lyceums.

Kirisiv. Matematikalıq analiz hám algebra kurslarında racional funkciyalar hám bólshekler menen islesiw máseleleri kóplesh ushırasadı. Racional bólsheklerdi ápiwayı bólsheklerge ajratıw – bul quramalı matematikalıq ańlatpalardı integrallaw, differenciallıq teńlemelerdi sheshiw hám qatarlardı esaplaw proceslerin sezilerli dárejede ańsatlastıratuǵın áhmiyetli usıllardan biri esaplanadı.

Maqalanıń maqseti – racional bólsheklerdiń túrleri, olardıń qásiyetleri hám berilgen durıs racional bólshekke eń ápiwayı (primar) bólshekler qosındısına keltiriw usılların teoriyalıq hám ámeliy jaqtan úyreniwden ibarat. Al, bul ulıwma bilim beriw mektepleri hám akademiyalıq liceylerdiń oqıwshıları, joqarı oqıw orınları talabalarınıń máselelerdi sheshiwdegi logikalıq kónlikpelerin rawajlandırıwǵa xızmet etedi. Bul maqalada haqıyquy yamasa kompleks sanlar maydanında berilgen racional bólshekler haqqında sóz etiledi.

Tiykarǵı bólim. Qandayda bir maydanda berilgen $f(x)$ hám $g(x)$, $g(x) \neq 0$ kópaǵzalardıń $\frac{f(x)}{g(x)}$ qatnasına

racional bólshekli funkciya yamasa qısqasha racional bólshek delinedi.

1-anıqlama. Eger $\frac{f_1(x)}{g_1(x)}$ hám $\frac{f_2(x)}{g_2(x)}$ racional bólshekler

ushın $f_1(x)g_2(x) = f_2(x)g_1(x)$ teńlik orınlı bolsa, bul racional bólshekler teń delinedi [1].

Máselen, $\frac{1}{x-1}$ hám $\frac{x+1}{x^2-1}$ racional bólshekler teń.

Racional bólshekler kópliginde qosıw hám kóbeytiw ámellerin tómendegishe anıqlaymız:

$$1. \frac{f_1(x)}{g_1(x)} + \frac{f_2(x)}{g_2(x)} = \frac{f_1(x) \cdot g_2(x) + f_2(x) \cdot g_1(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)};$$

$$2. \frac{f_1(x)}{g_1(x)} \cdot \frac{f_2(x)}{g_2(x)} = \frac{f_1(x) \cdot f_2(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)}.$$

Berilgen $\frac{f(x)}{g(x)}$ racional bólshekke hár dayım

$(f(x), g(x)) = 1$ dep alıwımız múmkin. Sebebi, $(f(x), g(x)) = d(x)$ bolsa, onda $f(x) = d(x) \cdot f_1(x)$ hám $g(x) = d(x) \cdot g_1(x)$ ekenliginen $\frac{f(x)}{g(x)} = \frac{f_1(x)}{g_1(x)}$ kelip

shıǵadı, bul jerde $(f_1(x), g_1(x)) = 1$.

Bunday bólshekler *normallasqan* bólshekler dep ataladı.

2-anıqlama. Eger $\frac{f(x)}{g(x)}$ racional bólshekke

$\deg(f(x)) < \deg(g(x))$ bolsa, onda ol durıs racional bólshek, kerı jaǵdayda nadurıs racional bólshek delinedi[2].

1-teorema. Hár qanday racional bólshek kópaǵzalı hám durıs racional bólsheklerdiń qosındısı arqalı ańlatıladı[1].

Dálil: Eger $\frac{f(x)}{g(x)}$ durıs racional bólshek bolsa, teorema

ornlı ekenligi anıq.

Meyli $\frac{f(x)}{g(x)}$ nadurıs racional bólshek bolsın. Onda

$f(x)$ kópaǵzalını $g(x)$ qa qaldıqlı bólip,

$$f(x) = g(x) \cdot q(x) + r(x), \deg r(x) < \deg g(x)$$

teńlikti alamız, bunnan

$$\frac{f(x)}{g(x)} = \frac{g(x) \cdot q(x) + r(x)}{g(x)} = q(x) + \frac{r(x)}{g(x)}$$

kelip shıǵadı.

2-teorema. Durıs racional bólsheklerdiń qosındısı hám kóbeymesi durıs racional bólshek boladı[1].

Dálil. Haqıyqattan da, eger $\frac{f_1(x)}{g_1(x)}$ hám $\frac{f_2(x)}{g_2(x)}$ durıs ra-

cional bólshekler bolsa,

$$\frac{f_1(x)}{g_1(x)} + \frac{f_2(x)}{g_2(x)} = \frac{f_1(x) \cdot g_2(x) + f_2(x) \cdot g_1(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)}$$

durıs racional bólshek boladı, sebebi

$$\deg(f_1(x) \cdot g_2(x) + f_2(x) \cdot g_1(x)) < \deg(g_1(x) \cdot g_2(x))$$

Demek, olardıń kóbeymesi de durıs racional bólshek boladı.

3-teorema. Eger $\frac{f(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)}$ durıs racional bólshekke

$(g_1(x) \cdot g_2(x)) = 1$ bolsa, onda bul racional bólshekke eki durıs racional bólsheklerdiń qosındısı sıpatında jalǵız kóriniste ańlatıw múmkin [1].

Dálil. Racional bólshek bólimindegi $g_1(x)$ hám $g_2(x)$

kópaǵzalılar óz-ara ápiwayı bolǵanlıǵı ushın sonday $u(x)$

hám $v(x)$ kópaǵzalılar tabıladı, $u(x) \cdot g_1(x) + v(x) \cdot g_2(x) = 1$

boladı. Demek,

$$\begin{aligned} \frac{f(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)} &= f(x) \cdot \frac{u(x) \cdot g_1(x) + v(x) \cdot g_2(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)} = \\ &= \frac{f(x) \cdot u(x)}{g_2(x)} + \frac{f(x) \cdot v(x)}{g_1(x)}. \end{aligned}$$

Endi $f(x) \cdot u(x)$ tı $g_2(x)$ qa qaldıqlı bólemiz:

$$f(x) \cdot u(x) = g_2(x) \cdot q_2(x) + r_2(x), \deg r_2(x) < \deg g_2(x).$$

Demek,

$$\frac{f(x) \cdot u(x)}{g_2(x)} = q_2(x) + \frac{r_2(x)}{g_2(x)}.$$

Payda bolǵan $q_2(x)$ kópaǵzalını $\frac{f(x) \cdot v(x)}{g_1(x)}$ bólshekke

kiritsek,

$$\frac{f(x) \cdot v(x)}{g_1(x)} + q_2(x) = \frac{f(x) \cdot v(x) + g_2(x) \cdot q_2(x)}{g_1(x)}$$

racional bólshek payda boladı. Bul racional bólshek

$\frac{f(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)}$ hám $\frac{r_2(x)}{g_2(x)}$ durıs racional bólsheklerdiń

ayırması bolǵanlıǵı ushın, ol da durıs racional bólshek boladı. Demek,

$$\frac{f(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x)} = \frac{r_1(x)}{g_1(x)} + \frac{r_2(x)}{g_2(x)}.$$

Bul teoremanı ulıwmalastırıp, tómendegi nátiyjeni alamız.

1-nátiyje. Eger $\frac{f(x)}{g_1(x) \cdot g_2(x) \cdot \dots \cdot g_k(x)}$ durıs racional

bólshekke $(g_i(x), g_j(x)) = 1, i \neq j$ bolsa, onda bul bólshek durıs racional bólsheklerdiń

$$\frac{r_1(x)}{g_1(x)} + \frac{r_2(x)}{g_2(x)} + \dots + \frac{r_k(x)}{g_k(x)}$$

jayılması arqalı jalǵız túrde ańlatıladı.

Bizge belgili, qálegen $g(x)$ kópaǵzalını keltirilmeytuǵın kópaǵzalılardıń kóbeymesi

$g(x) = p_1^{k_1}(x) \cdot p_2^{k_2}(x) \cdot \dots \cdot p_s^{k_s}(x)$ kórinisinde jalǵız túrde ańlatıw múmkin. Buǵan tiykarlansaq, biz joqarıdaǵı nátiyjeni ulıwmalastırıp,

$$\begin{aligned} \frac{f(x)}{g(x)} &= \frac{f(x)}{p_1^{k_1}(x) \cdot p_2^{k_2}(x) \cdot \dots \cdot p_s^{k_s}(x)} = \\ &= \frac{f_1(x)}{p_1^{k_1}(x)} + \frac{f_2(x)}{p_2^{k_2}(x)} + \dots + \frac{f_s(x)}{p_s^{k_s}(x)} \end{aligned}$$

jayılmaǵa iye bolamız.

Bul jayılmadaǵı $\frac{f_1(x)}{p_1^{k_1}(x)}$ durıs bólshekler *primar*

bólshekler dep ataladı. Eger primar bólshekke $\deg f_i(x) < \deg p_i(x)$ bolsa, bul primar bólshekke *ápiwayı bólshek* delinedi.

4-teorema. Hár qanday primar durıs bólshek ápiwayı bólsheklerdiń qosındısı kórinisinde ańlatıladı [1].

Dálil. Bizge $\frac{f(x)}{p^k(x)}$ primar bólshek berilgen bolsın.

$f(x)$ kópaǵzalını $p(x)$ qa qaldıqlı bólshek, $f(x) = p(x) \cdot q_1(x) + f_1(x)$ boladı. Onda

$$\frac{f(x)}{p^k(x)} = \frac{f_1(x)}{p^k(x)} + \frac{q_1(x)}{p^{k-1}(x)}$$

Eger $\deg q_1(x) < \deg p(x)$ bolsa teorema dálili kelip shıǵadı. $\deg q_1(x) \geq \deg p(x)$ bolǵanda $q_1(x)$ kópaǵzalını $p(x)$ ga qaldıqlı bólip, $q_1(x) = p(x) \cdot q_2(x) + f_2(x)$ ekenliginen

$$\frac{f(x)}{p^k(x)} = \frac{f_1(x)}{p^k(x)} + \frac{f_2(x)}{p^{k-1}(x)} + \frac{q_2(x)}{p^{k-2}(x)}$$

teńlikti alamız.

Bul procesti shekli márte dawam ettiresek, berilgen racional bólshek ápiwayı bólsheklerdiń qosındısı kórinisinde ańlatılıwı kelip shıǵadı:

$$\frac{f(x)}{p^k(x)} = \frac{f_1(x)}{p^k(x)} + \frac{f_2(x)}{p^{k-1}(x)} + \dots + \frac{f_s(x)}{p(x)}$$

Bul teoremadan tómendegi nátiyje kelip shıǵadı.

2-nátiyje. Qálegen durıs racional bólshekni jalǵız túrde ápiwayı bólsheklerdiń qosındısı kórinisinde ańlatıw múmkin [2].

Kompleks sanlar maydanında qálegen kópaǵzal

$$g(x) = a_0(x - \alpha_1)^{k_1}(x - \alpha_2)^{k_2} \cdot \dots \cdot (x - \alpha_s)^{k_s}$$

kórinisinde ańlatılǵanlıǵı ushın, ápiwayı racional bólshekler $\frac{A}{(x - \alpha)^k}$ kórinisinde boladı. Durıs bólshekniń

ápiwayı racional bólsheklerge jayılası

$$\begin{aligned} \frac{f(x)}{g(x)} &= \frac{A_{11}}{(x - \alpha_1)^{k_1}} + \frac{A_{12}}{(x - \alpha_1)^{k_1-1}} + \dots + \frac{A_{1k}}{x - \alpha_1} + \\ &+ \frac{A_{21}}{(x - \alpha_2)^{k_2}} + \frac{A_{22}}{(x - \alpha_2)^{k_2-1}} + \dots + \frac{A_{2k}}{x - \alpha_2} + \\ &+ \dots + \frac{A_{s1}}{(x - \alpha_s)^{k_s}} + \frac{A_{s2}}{(x - \alpha_s)^{k_s-1}} + \dots + \frac{A_{sk}}{x - \alpha_s} \end{aligned}$$

kórinisinde boladı.

Haqıyqıy sanlar maydanında ápiwayı racional bólsheklerdiń ulıwma kórinisi $\frac{A}{(x - \alpha)^k}$ hám

$$\frac{Bx + C}{(x^2 + px + q)^k}, \quad p^2 - 4q < 0 \quad \text{kóriniste boladı.}$$

Mısal 1. $\frac{1}{(x-1)(x^2+1)}$ durıs bólshekni haqıyqıy sanlar maydanında ápiwayı bólsheklerge jayıń[3].

Bul bólshek $\frac{A}{x-1}$ hám $\frac{Bx+C}{x^2+1}$ ápiwayı bólsheklerdiń qosındısına jayıladı, yaǵnıy

$$\frac{1}{(x-1)(x^2+1)} = \frac{A}{x-1} + \frac{Bx+C}{x^2+1}$$

Bul teńliktiń eki tárepin $(x-1)(x^2+1)$ kópaǵzalǵa kóbeytsek, $1 = A(x^2+1) + (Bx+C)(x-1)$ teńlik payda boladı. Bul jerden $A = \frac{1}{2}$, $B = -\frac{1}{2}$ hám $C = -\frac{1}{2}$ ekenligin tabıw qıyın emes.

Demek,

$$\frac{1}{(x-1)(x^2+1)} = \frac{1}{2(x-1)} - \frac{x+1}{2(x^2+1)}$$

Mısal 2. $\frac{16}{x^4+4}$ ni kompleks sanlar maydanında ápiwayı bólshekler qosındısı kórinisinde ańlatıń [3].

Bul bólshekni Lagranj metodı járdeminde ápiwayı bólshekler kórinisine alıp kelemiz.

$$\frac{f(x)}{g(x)} = \frac{f \alpha_1}{g' \alpha_1 x - \alpha_1} + \frac{f \alpha_2}{g' \alpha_2 x - \alpha_2} + \dots + \frac{f \alpha_n}{g' \alpha_n x - \alpha_n}$$

$g(x)$ ni kóbeytiwshilerge ajıratamız:

$$g(x) = x^4 + 4 = (x-1-i)(x-1+i)(x+1-i)(x+1+i)$$

hám $g(x)$ tan birinshi tártipli tuwındı alamız:

$$\begin{aligned} g'(x) &= (x-1+i)(x+1-i)(x+1+i) + (x-1-i) \cdot \\ &\cdot (x+1-i)(x+1+i) + (x-1-i)(x-1+i)(x+1+i) + \\ &+ (x-1-i)(x-1+i)(x+1-i) \end{aligned}$$

Endi biz Lagranj metodında kórsetilgen tártipte hár bir kóbeytiwshimizdi bólshek kórinisinde jazıp alamız. Bizde $f(x) = 16$ bolǵanlıǵı sebepli yaǵnıy ózgeriwshi qatnaspaǵanlıqtan bólshekniń alımı barlıq korenler ushın 16 mánisin qabıllaydı.

$$\begin{aligned} &\frac{16}{(x-1-i)(x-1+i)(x+1-i)(x+1+i)} = \\ &= \frac{16}{g'(1+i)(x-1-i)} + \frac{16}{g'(1-i)(x-1+i)} + \\ &+ \frac{16}{g'(-1+i)(x+1-i)} + \frac{16}{g'(-1-i)(x+1+i)}. \end{aligned}$$

Biz $\alpha_1 = 1+i$ korendi $g'(x)$ qa alıp barıp qoyǵanıwızda, tómendegishe mániske iye bolamız:

$$\begin{aligned} g'(1+i) &= (1+i-1+i)(1+i+1-i)(1+i+1+i) + \\ &+ (1+i-1-i)(1+i+1-i)(1+i+1+i) + (1+i-1-i) \cdot \\ &\cdot (1+i-1+i)(1+i+1+i) + (1+i-1-i)(1+i-1+i) \cdot \\ &\cdot (1+i+1-i) = 2i \cdot 2 \cdot 2(1+i) + 0 \cdot -2i \cdot 2(1+i) + \\ &+ 0 \cdot 2i \cdot 2(1+i) + 0 \cdot 2i \cdot 2 = 8(1+i) \end{aligned}$$

kórip turǵanıwızday $g'(1+i) = 8(1+i)$ ge teń boldı.

Tabılǵan mánisti $\frac{16}{g'(1+i)(x-1-i)}$ bólsheğine alıp kelip

$$\frac{16}{8(1+i)(x-1-i)}$$

Endi bólshekniń bólimindegi $-1+i$ sandı túyinlesine kóbeytip hám bólshekni iqshtap tómendegi bólshekke iye bolamız:

$$\frac{16}{8(-1+i)(x-1-i)} = \frac{2(-1-i)}{(-1+i)(-1-i)(x-1-i)} =$$

$$= \frac{2(-1-i)}{2(x-1-i)} = \frac{-1-i}{x-1-i} = -\frac{1+i}{x-1-i}.$$

$\alpha_2 = 1 - i$ koren ushin:

$$g' 1 - i = -2i \cdot 2(1 - i) \cdot 2 = -8(1 + i).$$

Kórip turǵanımızday $g' 1 - i = -8(1 + i)$ ge teń boldı. Tabılǵan mánisti $\frac{16}{g' 1 - i(x - 1 + i)}$ bólsheğine

alıp kelip qoyamız hám tómendegishe nátiyjege iye bolamız: $\frac{16}{-8(1+i)(x-1+i)}$.

Endi bólshektiń bólimindegi $1 + i$ sandı túyinlesine kóbeytip hám bólshekti iqshtap tómendegi bólshekke iye bolamız:

$$\frac{16}{-8(1+i)(x-1+i)} = \frac{2(1-i)}{(-1+i)(1-i)(x-1+i)} =$$

$$= \frac{2(1-i)}{-2(x-1+i)} = -\frac{1-i}{x-1+i}.$$

$\alpha_3 = -1 + i$ koren ushin:

$$g' -1 + i = -2 \cdot 2(-1 + i) \cdot 2i = 8(1 + i).$$

Kórip turǵanımızday $g' -1 + i = 8(1 + i)$ ge teń boldı. Tabılǵan mánisti $\frac{16}{g' -1 + i(x + 1 - i)}$ bólsheğine alıp

kelip qoyamız hám tómendegishe nátiyjege iye bolamız: $\frac{16}{8(1+i)(x+1-i)}$.

Endi bólshektiń bólimindegi $1 + i$ sandı túyinlesine kóbeytip hám bólshekti iqshtap tómendegi bólshekke iye bolamız:

$$\frac{16}{8(1+i)(x+1-i)} = \frac{2(1-i)}{(1+i)(1-i)(x+1-i)} =$$

$$= \frac{2(1-i)}{2(x+1-i)} = \frac{1-i}{x+1-i}.$$

$\alpha_4 = -1 - i$ koren ushin:

$$g' -1 - i = -2(1 + i) \cdot -2 \cdot -2i = 8(1 - i).$$

Kórip turǵanımızday $g' -1 - i = 8(1 - i)$ ge teń boldı.

Tabılǵan mánisti $\frac{16}{g' -1 - i(x + 1 + i)}$ bólsheğine alıp

kelip qoyamız hám tómendegishe nátiyjege iye bolamız:

$$\frac{16}{8(1-i)(x+1+i)}.$$

Endi bólshektiń bólimindegi $1 - i$ sandı túyinlesine kóbeytip hám bólshekti iqshtap tómendegi bólshekke iye bolamız:

$$\frac{16}{8(1-i)(x+1+i)} = \frac{2(1+i)}{(1-i)(1+i)(x+1+i)} =$$

$$= \frac{2(1+i)}{2(x+1+i)} = \frac{1+i}{x+1+i}.$$

Tabılǵan mánislerdiń barlıǵın ornına qoyıp tómendegishe nátiyjege kelemiz:

$$\frac{16}{x^4 + 4} = -\frac{1+i}{x-1-i} - \frac{1-i}{x-1+i} + \frac{1-i}{x+1-i} + \frac{1+i}{x+1+i}.$$

Mısal 3. $\frac{x^3 + 2x - 3}{x + 3}$ ti ápiwayı racional bólshekler

qosındısı kórinisinde ańlatıń[3].

Sheshiw. Bul bólshektiń alımındaǵı $f(x) = x^3 + 2x - 3$ kópazǵalı $x + 3$ tiń dárejesi boyınsha jayamız. Bunıń ushin 4 márte Gornersxemasın qollanamız.

| | | | | |
|----|---|----|----|-----|
| | 1 | 0 | 2 | -3 |
| -3 | 1 | -3 | 11 | -36 |
| -3 | 1 | -7 | 29 | |
| -3 | 1 | -9 | | |
| -3 | 1 | | | |

$f(x) = x + 3^3 - 9x + 3^2 + 29x + 3 - 36$ bunı berilgen bólshekke alıp barıp qoyamız hám tómendegishe kóriniske kelemiz:

$$\frac{x^3 + 2x - 3}{x + 3} = \frac{x + 3^3 - 9x + 3^2 + 29x + 3 - 36}{x + 3} =$$

$$= \frac{1}{x + 3} - \frac{9}{x + 3^2} + \frac{29}{x + 3^3} - \frac{36}{x + 3^4}.$$

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, racional bólsheklerdi eń ápiwayı bólsheklerge ajratıw teoriyası matematikanıń túrlı tarawlarında, ásirese integral esabı hám kompleksli sanlar menen islesiwde bekkem fundament bolıp xızmet etedi. Maqalada kórip shıǵılǵan 4-teorema hám onnan kelip shıǵatuǵın nátiyjeler qálegen durıs racional bólshektiń birden-bir ápiwayı bólshekler qosındısı túrinde kórsetiliwin tastıyıqladı. Sonday-aq, Lagranj metodı hám Gornersxeması sıyaqlı ámeliy usullar quramalı esaplawlardı operativ túrde ornılaw imkaniyatın beredi. Bul bilimlerde iyelew – bolajaq qanıygelerniń analitikalıq oylaw qáiletin arttırıwda hám matematikalıq apparattan erkin paydalanıwında úlken áhmiyetke iye.

Ádebiyatlar

1. Ayupov Sh.A., Omirov B.A., Xudoyberdiyev A.X., Haydarov F.H. Algebra va sonlar nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Tafakkur-bo'stoni», 2019.
2. Курош А.Г. Курс высшей алгебры: Учебник. 17-е изд., стер. – Санкт-Петербург: «Лань», 2008.
3. Проскуряков И.В. Сборник задач по линейной алгебре. Учебное пособие. (Учебники для вузов. Специальная литература). 13-е изд., стер. – Санкт-Петербург: «Лань», 2010.

**INTERFEYS ZARYAD HOLATLARINING QAYTA KONFIGURATSIYASI
VA UNING METALL–DIELEKTRIK–YARIMO‘TKAZGICH TUZILMALARNING
ELEKTROFIZIK HUSUSIYATLARIGA TA’SIRI**

Mamatkarimov Odiljon Oxundedayevich – *fizika-matematika fanlari doktori, professor*
Abdulxayev Abrorbek Abdulloxon o‘g‘li – *fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
abdulxayev2308@gmail.com

Fazliddinov Salohiddin Bahriddin o‘g‘li – *assistent o‘qituvchi*
Namangan davlat texnika universiteti

Quchqarov Behzod Hoshimjonovich – *fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
Impuls tibbiyot instituti

**РЕКОНФИГУРАЦИЯ ЗАРЯДОВЫХ СОСТОЯНИЙ НА ИНТЕРФЕЙСНЫХ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ
НА ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СТРУКТУР МЕТАЛЛ–ДИЭЛЕКТРИК–
ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ СТРУКТУР**

Маматкаримов Одилжон Охундаевич – *доктор физико-математических наук, профессор*
Абдулхаев Аброрбек Абдуллохонвич – *доктор философии по физико-математическим наукам*

Фазлиддинов Салохиддин Бахриддинович – *ассистент преподаватель*
Наманганский государственный технический университет

Кучкаров Бехзод Хошимжонович – *доктор философии по физико-математическим наукам, доцент*
Институт импульсной медицины

**RECONFIGURATION OF INTERFACE CHARGE STATES AND ITS EFFECT ON THE
ELECTRO-PHYSICAL PROPERTIES OF METAL–DIELECTRIC–SEMICONDUCTOR STRUCTURES**

Mamatkarimov Odiljon Okhunedayevich – *Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor*
Abdulkhayev Abrorbek Abdulloxonovich – *Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences*

Fazliddinov Salokhiddin Bakhriddinovich – *Assistant teacher*
Namangan State Technical University

Quchqarov Behzod Hoshimjonovich – *Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor*
Institute of Impulse Medicine

Tayanch so‘zlar: metall–dielektrik–yarimo‘tkazgich tuzilmalari, interfeys holatlari, zaryad tutib qoluvchi holatlar, sig‘im–kuchlanish gisterezisi, tekis-tasma kuchlanishi, zaryad relaksatsiyasi, aktivatsiya energiyasi, zaryad almashinuvi kinetikasi, lokal potentsial relyef, interfeys holatlarining qayta konfiguratsiyasi.

Rezyume. Mazkur ishda metall–dielektrik–yarimo‘tkazgich (MDYa) tuzilmalarida yuzaga keladigan noideal elektr hodisalarning fizik mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot interfeys va interfeysga yaqin dielektrik qatlamdagi zaryad holatlarining kinetik xossalriga asoslanadi. Tashqi ta’sirlar interfeys yaqinidagi lokal potentsial relyefni o‘zgartirishi va zaryad almashinuvi jarayonlarini qayta taqsimlashi ko‘rsatildi. Natijada MDYa tuzilmalarining elektr javobi interfeys zaryad holatlarining ichki kinetik dinamikasi bilan aniqlanishi asoslab berildi.

Ключевые слова: структуры металл–диэлектрик–полупроводник, интерфейсные состояния, ловушки заряда, гистерезис ёмкость–напряжение, напряжение плоских зон, релаксация заряда, энергия активации, кинетика обмена зарядом, локальный потенциальный рельеф, реконфигурация интерфейсных состояний.

Резюме. В работе проанализированы физические механизмы неидеальных электрических явлений в структурах металл–диэлектрик–полупроводник (МДП). Исследование основано на кинетических свойствах зарядовых состояний на границе раздела и в приповерхностном слое диэлектрика. Показано, что внешние воздействия модифицируют локальный потенциальный рельеф вблизи интерфейса и перераспределяют кинетику зарядообмена без образования новых дефектов. Установлено, что электрический отклик МДП-структур определяется внутренней кинетической динамикой интерфейсных состояний.

Key words: metal-dielectric–semiconductor structures, interface states, charge trapping states, capacitance–voltage hysteresis, flat-band voltage, charge relaxation, activation energy, charge exchange kinetics, local potential landscape, reconfiguration of interface states.

Summary. This work analyzes the physical mechanisms responsible for non-ideal electrical effects in metal–dielectric–semiconductor (MDS) structures. The study is based on the kinetic properties of charge states located at the interface and in the near-interface dielectric layer. It is shown that external influences modify the local potential landscape near the interface and redistribute charge-exchange kinetics without generating new defects. As a result, the electrical response of MDS structures is governed by the intrinsic kinetic dynamics of interface states.

Kirish. So‘nggi yillarda metall–dielektrik–yarimo‘tkazgich (MDYa) tuzilmalar mikro va nanoelektron qurilmalarning asosiy elementi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Qurilmalar o‘lchamining kichrayishi dielektrik–yarimo‘tkazgich interfeysida kehadigan fizik jarayonlarning ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Natijada interfeys nuqsonlari faqat texnologik kamchilik emas, balki qurilmaning elektr xatti-harakatini belgilovchi

asosiy omil sifatida qaralmoqda. Klassik MOS nazariyasida interfeys holatlari ko‘pincha statsionar parametrlar sifatida tasvirlanadi [1]. Biroq real MDYa tizimlarida interfeys holatlari dinamik bo‘lib, ularning zaryad almashinuvi vaqtga bog‘liq holda kechadi. Aynan shu kinetik jarayonlar sig‘im–kuchlanish gisterezisi va sekin zaryad relaksatsiyasi kabi noideal hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu munosabat bilan ushbu ishda interfeys zaryad tutib

qoluvchi holatlarining tashqi ta'sirlar ostida qayta konfiguratsiyalanishi konsepsiyasi asosida MDYa tuzilmalarining elektr xossalari tahlil qilindi.

Tadqiqot usullari. Interfeys va chegara holatlarida saqlanadigan umumiy zaryad miqdori energiya bo'yicha taqsimlangan zaryad tutib qoluvchi holatlari zichligi orqali quyidagi integral ifoda bilan aniqlanadi:

$$Q_{it} = q \int D_{it}(E) f(E, E_F, T) dE \quad (1)$$

Bu yerda $D_{it}(E)$ interfeys holatlarining energiya bo'yicha zichligi, $f(E, E_F, T)$ esa Fermi–Dirak taqsimot funksiyasidir. Ushbu ifoda interfeysda saqlanadigan zaryad miqdori tashqi kuchlanish, temperatura va interfeys holatlarining energetik spektriga bog'liq ekanini ko'rsatadi [2]. Aynan shu bog'lanish keyingi boblarda tahlil qilinadigan tekis-tasma kuchlanishining siljishi va gisterzis hodisasining fizik asosini tashkil etadi. Interfeys zaryadining o'zgarishi metall–yarimo'tkazgich tizimidagi elektrostatik muvozanatni buzadi va tekis-tasma kuchlanishining siljishiga olib keladi:

$$\Delta V_{FB} = \frac{Q_{it}}{C_{ox}} \quad (2)$$

Bu munosabat interfeys zaryadi bilan elektr sezuvchanlik o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishni ifodalaydi. Muhim jihat shundaki, dielektrik sig'imi o'zgarmagan holda kuzatilgan ΔV_{FB} siljishlari interfeys zaryadining qayta taqsimlanishini anglatadi, ya'ni hodisaning kelib chiqishi hajmiy emas, balki interfeysga xos ekanini ko'rsatadi. Interfeys zaryad tutib qoluvchi holatlaridan zaryad chiqarilishi Shockley–Read–Hall mexanizmi bilan tavsiflanadi. Biroq real dielektrik tizimlarda zaryad tashuvchilarning fononlar bilan kuchli o'zaro ta'siri tufayli ushbu jarayon non-radiative multiphonon modeli bilan to'ldirildi[3]. Natijada zaryad chiqarilish tezligi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$e(E_a, F) = e_0 \exp\left(-\frac{E_a - \gamma F}{kT}\right) \quad (3)$$

Bu ifoda zaryad chiqarilish ehtimoli aktivatsiya energiyasiga eksponensial bog'liq ekanini va tashqi elektr maydon yoki bosim orqali samarali to'siq balandligi kamaytirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Muhim jihat shundaki, tashqi ta'sirlar aktivatsiya energiyasining o'zini o'zgartirmaydi, balki zaryad almashinuvi ehtimolini modifikatsiyalaydi. Real interfeys tizimlarida zaryad tutib qoluvchi holatlari yagona aktivatsiya energiyasiga ega emas. Aksincha, ular keng energetik diapazonda taqsimlangan bo'ladi. Shu sababli zaryad relaksatsiyasi bitta vaqt konstantasi bilan emas, balki vaqt konstantalarining uzluksiz spektri bilan tavsiflanadi. Bu holat quyidagi integral ifoda orqali ifodalandi:


$$Q(t) = \int g(E_a) \exp[-t/\tau(E_a)] dE_a \quad (4)$$

$$\tau(E_a) = \tau_0 \exp\left(\frac{E_a}{kT}\right) \quad (5)$$

Mazkur integralning mavjudligi zaryad relaksatsiyasining oddiy eksponenta qonuniga bo'ysunmasligini, balki cho'zilgan eksponenta xatti-harakati bilan tavsiflanishini tushuntiradi. Ushbu matematik natija eksperimental relaksatsiya egri chiziqlari bilan


bevosita solishtirildi va interfeys hamda chegara zaryad tutib qoluvchi holatlarining fizik rolini aniqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Ushbu holatda ishlab chiqilgan energetik va kinetik model metall–dielektrik–yarimo'tkazgich interfeysida sodir bo'ladigan barcha asosiy jarayonlarni yagona fizik doirada tavsiflash imkonini beradi.

Muhokama va tadqiqot natijalari. Ishlab chiqilgan energetik va kinetik model eksperimental natijalar asosida tekshirildi va aniqlashtirildi. Sig'im–kuchlanish xarakteristikalari, tekis-tasma kuchlanishining vaqt bo'yicha o'zgarishi hamda zaryad relaksatsiyasi natijalari interfeys va chegara zaryad tutib qoluvchi holatlarining zaryad almashinuvi jarayonlarini turli vaqt masshtablarida ochib berdi [4]. Har bir eksperimental kuzatuv nazariy model bilan bevosita bog'lanib, ularning umumiy fizik mohiyati aniqlandi.




1-rasm. C–V gisterzisi

Sig'im–kuchlanish o'lchovlarida kuzatilgan gisterzis interfeys zaryad tutib qoluvchi holatlarining kinetik xususiyatlarini tavsiflovchi eng sezgir ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. 1-rasmda ko'rsatilgan C–V xarakteristikalari oldinga va orqaga kuchlanish grafiklari orasida aniq farq mavjudligini namoyon qiladi. Ushbu farq interfeys holatlarida zaryadning kuchlanish o'zgarishiga nisbatan kechikib chiqarilishi bilan bog'liq. Muhim jihat shundaki, gisterzis mavjud bo'lishiga qaramay, maksimal va minimal sig'im qiymatlarining deyarli o'zgarmasligi dielektrik qatlam yoki yarimo'tkazgichning hajmiy xossalari o'zgarmaganini ko'rsatadi. Bu natija gisterzisning kelib chiqishi hajmiy nuqsonlar bilan emas, balki interfeysga xos zaryad almashinuvi jarayonlari bilan bog'liq ekanini aniq tasdiqlaydi.



2-rasm. ΔV_{FB} ning tashqi ta'sir davomiyligiga bog'liqligi

C–V gisterezisi bilan bevosita bog‘liq holda tekis-tasma kuchlanishining vaqt bo‘yicha grafigi orqali ham muhim kuzatish mumkin. 2-rasmda ko‘rsatilganidek, tekis-tasma kuchlanishi tashqi ta‘sir davomiyligi oshishi bilan ortadi va ma‘lum vaqt oralig‘ida to‘yinganlik xatti-harakatini namoyon qiladi. Ushbu to‘yinganlik interfeys holatlarining cheklangan energetik va fazoviy diapazonga ega ekanini ko‘rsatadi. Agar tashqi ta‘sirlar yangi nuqsonlar hosil qilayotgan bo‘lsa, tekis-tasma kuchlanishining siljishi vaqt o‘tishi bilan davomli ravishda ortib borishi kutilardi. Biroq kuzatilgan to‘yinganlik hodisasi tashqi ta‘sirlar mavjud interfeys holatlarining zaryad almashinuvida ishtirok etish ehtimolini qayta taqsimlayotganini ko‘rsatadi.



3-rasm. Interfeys yaqinidagi potensial relyef modifikatsiyasi

Yuqoridagi barcha eksperimental kuzatuvlar interfeys yaqinidagi lokal potensial relyef tushunchasi orqali yagona fizik mexanizm doirasida tushuntiriladi. 3-rasmda ko‘rsatilganidek, tashqi ta‘sirlar interfeys yaqinidagi potensial relyefni modifikatsiyalaydi. Ushbu modifikatsiya zaryad tutib qoluvchi holatlarining energetik chuqurligini o‘zgartirmaydi, biroq zaryad tashuvchilar uchun samarali tunnel va emissiya yo‘llarini qayta tashkil etadi [5]. Natijada ayrim interfeys va chegara holatlari zaryad almashinuvida faolroq ishtirok eta boshlaydi, boshqalari esa vaqtinchalik passiv holatga o‘tadi. Shu tarzda, C–V gisterezisi, tekis-tasma kuchlanishining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi va zaryad relaksatsiyasi bir-biridan mustaqil hodisalar emas, balki interfeys zaryad tutib qoluvchi holatlarining tashqi ta‘sirlar ostida qayta konfiguratsiyalanishining turli vaqt masshtablaridagi namoyon bo‘lishidir. Keltirilgan eksperimental natijalar va ularning fizik talqini oldingi ishlab chiqilgan nazariy modelning to‘g‘riligini tasdiqlaydi va keyingi

umumlashtiriladigan yagona fizik konsepsiya uchun mustahkam asos yaratdi.

Keltirilgan nazariy yondashuv va eksperimental natijalar metall–dielektrik–yarimo‘tkazgich tuzilmalarida kuzatiladigan sig‘im–kuchlanish gisterezisi hamda zaryad relaksatsiyasi hodisalarini o‘zaro mustaqil jarayonlar emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, ushbu hodisalar interfeys va interfeysga yaqin dielektrik qatlamda joylashgan chegara zaryad tutib qoluvchi holatlarining tashqi ta‘sirlar ostida qayta konfiguratsiyalanishining turli vaqt masshtablarida namoyon bo‘lishi sifatida qaralishi mumkin [6]. Shu nuqtayi nazardan, olingan barcha natijalar yagona fizik konsepsiya doirasida umumlashtirildi. Avvalgi muhokama qilingan C–V gisterezisi interfeys zaryad tutib qoluvchi holatlarining zaryad almashinuvida kinetik cheklovlar mavjudligini aniq namoyon etadi. Oldinga va orqaga kuchlanish skanerlari orasidagi farq interfeys holatlarining zaryadni o‘lchov vaqt masshtabida muvozanatga keltira olmasligi bilan bog‘liq. Muhim jihat shundaki, gisterezis mavjud bo‘lishiga qaramay, maksimal va minimal sig‘im qiymatlarining deyarli o‘zgarishsizligi dielektrik yoki yarimo‘tkazgichning hajmiy xossalari saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Bu esa kuzatilgan effektning hajmiy nuqsonlar bilan emas, balki interfeysga xos kinetik jarayonlar bilan bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

Rezyume. Ushbu maqola O‘zbekistonda magnoliya (Magnolia) turlarining tarqalishi, biologik xususiyatlari va parvarishlash usullariga bag‘ishlangan. Ishda Magnolia turlarining introduksiya tarixi, respublika hududlarida, xususan, Toshkent, Farg‘ona vodiysi va Surxondaryo viloyatlaridagi tarqalishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, o‘simlikning agrotexnologiyasi: joy tanlash, tuproq tayyorlash, ekish, sug‘orish, o‘g‘itlash, kesish, qishki himoya va kasalliklar bilan kurash usullari batafsil yoritilgan. Maqolada Magnolia turlarining manzarali, ekologik va ijtimoiy ahamiyati, bog‘dorchilik va ko‘kalamzorlashtirishdagi roli ta’kidlangan. Ushbu tadqiqot magnoliya o‘simligini O‘zbekistonda muvaffaqiyatli yetishtirish va uning amaliy foydalanishini rivojlantirishga qaratilgan.

Ключевые слова: магнолия, интродукция, Ташкентский ботанический сад, дендрологи, субтропический, гибрид, агротехника.

Резюме. В данной статье рассматривается распространение видов магнолии (Magnolia) в Узбекистане, их биологические особенности и методы ухода. Описана история интродукции Magnolia, районы распространения в республике, включая Ташкент, Ферганскую долину и Сурхандарьинскую область. Подробно освещены агротехнические мероприятия: выбор места, подготовка почвы, посадка, полив, удобрение, обрезка, зимняя защита и борьба с болезнями. Отмечена декоративная, экологическая и социальная значимость магнолий, их роль в садоводстве и озеленении. Исследование направлено на успешное выращивание Magnolia в условиях Узбекистана и развитие её практического использования.

Key words: magnolia, introduction, Tashkent Botanical Garden, dendrologists, subtropical, hybrid, agricultural technology.

Summary. This article focuses on the distribution of Magnolia species in Uzbekistan, their biological characteristics, and cultivation practices. It describes the history of Magnolia introduction and its occurrence in the country, including Tashkent, the Fergana Valley, and Surkhandarya region. The study details agro-technical measures such as site selection, soil preparation, planting, irrigation, fertilization, pruning, winter protection, and pest and disease management. The decorative, ecological, and social significance of Magnolias, as well as their role in landscaping and horticulture, is highlighted. The research aims to support the successful cultivation of Magnolia in Uzbekistan and promote its practical use.

Kirish. Manbalarga ko‘ra, magnoliya oilasining subtropik va tropik mintaqalarida 12-14 turkum va 220-240 turi mavjud, ammo ularning aksariyati Sharqiy Osiyo va Hind-Xitoy floristik mintaqalarida joylashgan [2]. I.Yu.Koropachinskiy va T.N.Vstovskayaning [1] ma’lumotlariga ko‘ra, bu oilaga 12 turkum va 250 dan ortiq tur kiradi. Shu bilan birga, barcha mualliflar magnoliya turkumini (MagnoliyaL.) oilada eng ahamiyatli hisoblanadi: Bu turkumga 120 tur kiradi [4]. So‘nggi yillarda molekulyar tadqiqot usullaridan foydalanish tufayli magnoliya oilasining taksonomiyasida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Turli turlarning DNK tahliliga asoslangan yetakchi mutaxassislar bu oilada faqat 2 ta turkumni qabul qiladilar: Magnoliya va Liriodendron. Magnoliya oilasi vakillarining taxminan 80% Sharqiy Osiyoda, Himolay tog‘laridan sharqqa Yaponiyagacha va janubdan Yangi Gvineyagacha, Shimoliy Amerikaning sharqida, Markaziy Amerikada uchraydi va janubdan Janubiy

Amerikaning markazigacha (Braziliyagacha) cho‘zilgan [3]. Magnolia obovata Thunb. (M. hypoleuca Siebold et Zucc.) – Rossiya Federatsiyasi hududida (Janubiy Kuril orollari, Kunashir oroli) tabiatda mavjud bo‘lgan yagona tur.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tadqiqotchilar asosan so‘nggi o‘n yilliklarda zamonaviy usullar yordamida magnoliyaning genetikasi, kimyoviy tarkibi va evolyutsiyasini chuqur tahlil qilishgan. Dongmei Zhang 2018-2023-yillar davomida magnoliya tarkibidagi biologik faol moddalar va ularning dorivor xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan. Yanpeng Yin esa 2020-2022-yillarda magnoliya genomini tahlil qilib, uning qadimiy gulli o‘simliklar orasidagi evolyutsion o‘rnini aniqlagan. Shuningdek, Fengmao Yang 2019-2023-yillar oralig‘ida kamyob magnoliya turlarining genetik xilma-xilligi va ularni muhofaza qilish muammolarini tadqiq etgan.

O‘zbekistonda magnoliya o‘simligi ustida tadqiqotlar asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan. O‘.Pratov 1970-1990-yillarda magnoliyani O‘zbekiston sharoitiga introduksiya qilish va uning biologik xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullangan. Q.Zokirov 1960-1980-yillarda o‘simliklar geografiyasi va ekologiyasi doirasida magnoliya kabi manzarali o‘simliklarni tadqiq qilgan. A.Xamidov 1980-2000-yillar davomida magnoliyani ko‘paytirish usullari va parvarish qilish texnologiyalarini ishlab chiqqan.

Muhokama va natijalar. Magnoliya O‘zbekistonga XX asrning o‘rtalarida, ayniqsa 1950-1970-yillar oralig‘ida olib kiritilgan. Uni introduksiya qilish ishlari sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritgan ilmiy muassasalar, xususan Toshkent Botanika bog‘i olimlari va dendrologlar tomonidan amalga oshirilgan. Magnoliya ko‘chatlari asosan Kavkaz, Qrim va boshqa subtropik hududlardagi botanika bog‘laridan olib kelinib, O‘zbekiston iqlimiga moslashtirilgan.

O‘zbekistonda magnoliyaning 5-7 ga yaqin turi va bir nechta manzarali navlari uchraydi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston hududida uchraydigan magnoliya turlari

| № | Magnoliya turlari | Morfologik xususiyatlari |
|---|-----------------------------|---|
| 1 | <i>Magnolia grandiflora</i> | Eng keng tarqalgan tur. Doimiy yashil, yirik oq va xushbo‘y gullari bilan ajralib turadi. Toshkent, Farg‘ona vodiysi va ayniqsa janubiy hududlarda yaxshi o‘sadi. |
| 2 | <i>Magnolia soulangeana</i> | Barg to‘kuvchi gibridd tur bo‘lib, pushti-oq rangli yirik gullari bilan mashhur. Erta bahorda gullaydi va ko‘proq manzarali bog‘larda ekiladi. |
| 3 | <i>Magnolia kobus</i> | Sovuqqa nisbatan chidamliroq tur. Oq gullari bor, Toshkent va unga yaqin hududlarda uchraydi. |
| 4 | <i>Magnolia stellata</i> | Past bo‘yli butasimon tur. Yulduzsimon oq gullari bilan bezak beradi, kichik bog‘lar uchun mos. |
| 5 | <i>Magnolia liliiflora</i> | Binafsha yoki to‘q pushti rangli gullarga ega, asosan kolleksiya bog‘larida uchraydi. |
| 6 | <i>Magnolia denudata</i> | Oq rangli, xushbo‘y gullari bilan qadrlanadi, ko‘proq botanika bog‘larida saqlanadi. |

Surxondaryo viloyatida magnoliya nisbatan qulayroq sharoitga ega. Viloyatning iliq iqlimi, qishning yumshoqligi va vegetatsiya davrining uzoqligi bu o‘simlikning o‘sishi uchun imkon yaratadi. Shunga qaramay, u bu yerda ham tabiiy flora tarkibiga kirmaydi, balki asosan sun‘iy ekin sifatida, ya‘ni hovlilar, bog‘lar va dam olish maskanlarida uchraydi. Surxondaryoda magnoliya ko‘proq himoyalangan, shamoldan pana joylarda va muntazam sug‘oriladigan hududlarda yaxshi rivojlanadi. Denov dendrariysiga 1970-1972-yillarda *Magnolia grandiflora*, *Liriodendron tulipifera* introduksiya qilingan [6].

Magnoliya o‘simligini yetishtirish agrotexnologiyasi uning biologik xususiyatlari va iqlimga talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu o‘simlik issiqsevar va nisbatan namsevar bo‘lgani sababli, uni to‘g‘ri joylashtirish va parvarish qilish muhim ahamiyatga ega.

Magnoliya uchun eng qulay joy – shamoldan himoyalangan, quyosh nuri yetarli tushadigan yoki yarim soyali hududlar hisoblanadi. Tuproq unumdor, yumshoq, yaxshi drenajlangan va biroz kislotali (pH 5,5-6,5) bo‘lishi lozim. Og‘ir, sho‘r yoki suv to‘planib qoladigan tuproqlarda o‘simlik yaxshi rivojlanmaydi [7].

Ko‘chat ekish odatda erda bahorda yoki kuzda amalga oshiriladi. Ekish chuquri keng va chuqur qilib qaziladi (taxminan 50-70 sm), tubiga organik o‘g‘itlar (chirigan go‘ng, kompost) solinadi va unumdor tuproq bilan aralashiriladi. Ko‘chat ildiz bo‘yni tuproq yuzasidan biroz yuqoriroq joylashtiriladi, chunki chuqur ekish ildiz chirishiga olib kelishi mumkin.

Sug‘orish magnoliya parvarishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, yosh o‘simliklar muntazam va me‘yorida sug‘orib turilishi kerak. Tuproq doimo nam, lekin botqoqlanmagan holatda saqlanishi lozim. Issiq yoz oylarida sug‘orish tez-tez, salqin mavsumda esa kamaytiriladi.

O‘g‘itlash bahor va yoz mavsumida amalga oshiriladi. Azotli o‘g‘itlar o‘sishni rag‘batlantiradi, fosfor va kaliy esa gullash va ildiz rivojlanishini yaxshilaydi.

Magnoliya – qadimiy gulli o‘simliklardan biri bo‘lib, uning morfologik tuzilishi boshqa ko‘plab yopiq urug‘li o‘simliklarga nisbatan ba‘zi ibtidoiy belgilarni saqlab qolgan [8]. Magnoliyada kuchli rivojlangan asosiy (o‘q) ildiz tizimi mavjud. Ildizlari chuqur va keng tarqalib, o‘simlikni tuproqqa mustahkam biriktiradi. Yosh davrda ildizlari nozik bo‘ladi, shuning uchun ko‘chirib o‘tkazishga sezgir hisoblanadi.

Magnoliya daraxt yoki yirik buta shaklida o‘sadi. Tanasi to‘g‘ri, po‘stlog‘i silliq yoki biroz qo‘pol bo‘lishi mumkin. Rangi kulrang yoki jigarrang tusda bo‘ladi.

Ba‘zi turlarda balandligi 10–20 metr ga yetadi. Barglari oddiy, butun (kesilmagan), yirik va cho‘zinchoq yoki ellips shaklida bo‘ladi. Barg plastinkasi qalin, silliq va yaltiroq, tomirlanishi patimon (pinnat). Barglari navbat bilan joylashadi. Ayrim turlari doimiy yashil, boshqalari esa barg to‘kuvchi hisoblanadi.

Magnoliyaning eng diqqatga sazovor qismi – uning yirik va chiroyli gullaridir. Gullari yakka holda joylashadi, diametri odatda 10-25 sm gacha yetadi. Ranglari oq, pushti, binafsha yoki sarg‘ish bo‘lishi mumkin. Gulkosasi va gultoji aniq ajralmagan bo‘lib, ular tepallar deb ataladi [9]. Changchilari va urug‘chilari ko‘p sonli va spiral joylashgan -bu ibtidoiy belgi hisoblanadi. Mevasi ko‘p bargchali yig‘ma meva (ko‘pincha konussimon) bo‘lib, pishganda ochiladi. Har bir bo‘lak ichida urug‘lar joylashgan. Urug‘lari yirik, ko‘pincha qizil yoki to‘q sariq rangli go‘shli qobiq (arillus) bilan qoplangan bo‘ladi. Bu qobiq qushlar orqali tarqalishga yordam beradi [10].

Xulosa. Magnoliya o‘simligi o‘zining chiroyli ko‘rinishi, foydali xususiyatlari va ekologik ahamiyati bilan qadrlanadi. Uning ahamiyati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Magnoliya manzarali o‘simlik sifatida juda muhim. Uning yirik, xushbo‘y va rang-barang gullari bog‘lar, xiyobonlar, istirohat maskanlari hamda ko‘chalarni bezashda keng qo‘llaniladi. Shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishda magnoliya estetik muhit yaratib, insonlarga ruhiy zavq bag‘ishlaydi. Magnoliya ekologik ahamiyatga ega. U havoni tozalash, chang va zararli gazlarni kamaytirish, kislorod ajratish orqali atrof-muhit sifatini yaxshilaydi. Daraxt

sifatida shovqinni pasaytirish va mikroiklimni yumshatishda ham muhim rol o'ynaydi.

Magnoliya dorivor xususiyatlariga ham ega. Ayrim turlarining po'stlog'i va barglari xalq tabobatida ishlatiladi. Ular yallig'lanishga qarshi, tinchlantiruvchi va antiseptik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy farmatsevtikada ham magnoliya tarkibidagi biologik faol moddalar o'rganilmoqda.

Bundan tashqari, magnoliya asal beruvchi o'simlik hisoblanadi. Uning gullari asalarilarni jalb

qiladi va bu asalarichilik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihati-magnoliya ilmiy va dekorativ seleksiya uchun ahamiyatli o'simlikdir. U botanika va dendrologiya sohalarida o'rganiladi, yangi navlar yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, magnoliya o'zining go'zalligi, ekologik foydasi va dorivor xususiyatlari bilan inson hayotida muhim o'rin tutadigan o'simliklardan biridir.

Adabiyotlar

1. Коропачинский И.Ю., Встовская Т.Н. Древесные растения Азиатской России. 2-е изд. – Новосибирск: Академ. изд-во «Гео», 2012.
2. Недолужко В.А. Конспект дендрофлоры российского Дальнего Востока. – Владивосток: «Дальнаука», 1995.
3. Grimshaw J., Bayton R. New Trees: Recent Introductions to Cultivation. – Richmond, Surrey: Royal Botanic Gardens, Kew and The International Dendrology Society, 2009.
4. Hillier J., Coombes A. (Consultant Editors). The Hillier Manual of Trees and Shrubs. – Newton Abbot: David and Charles, 2003.
5. Lee Y.D. Use of Magnolia (*Magnolia grandiflora*) seeds in medicine, and possible mechanisms of action. // Nuts and seeds in health and disease prevention, 2011.
6. Sodiqova D.G. Denov dendrariysi yuksak o'simliklar mikromitsetlari. Monografiya. – Toshkent: «Innovarsion-ziyo», 2024.
7. Sutton J. Magnolia. // Trees and Shrubs Online, 2022. (treesandshrubsonline.org/articles/magnolia/)
8. Tushin V. Magnolias of northern latitudes. // The Journal of the Magnolia Society International, Vol. 48, Iss. 94, 2013. Fall/ Winter. – P. 11-17
9. Zhang D. Exploring the versatile world of magnolias: urban landscape enhancement and metabolite applications in drug discovery and cosmetics. // Discover Plants, 2(1), 2025. – P. 139.
10. Zhang W., Wang X., Shen S., Zhao Y., Hao S., Jiang J., Zhang D. Analyzing the distribution patterns and dynamic niche of *Magnolia grandiflora* L. in the United States and China in response to climate change. // Frontiers in plant science, 15, 2024. – 1440610.

РАСТИТЕЛЬНЫЕ ФОРМАЦИИ ПЕСЧАНЫХ МАССИВОВ УСТЮРТА

Тамамбетова Шахигул Байратдиновна – доктор философии по биологическим наукам

tamambetovasahigul@gmail.com

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

УСТЮРТ ҚУМЛИ МАССИВЛАРИНИНГ ЎСИМЛИК ФОРМАЦИЯЛАРИ

Тамамбетова Шахигул Байратдиновна – биология фанлари бўйича фалсафа доктори

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

PLANT FORMATIONS OF THE USTYURT SAND MASSES

Tamambetova Shakhigul Bayratdinovna – doctor of Philosophy in Biological Sciences

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Таянч сўзлар: формация, массив, Устюрт платоси, яйловлар, ландшафт, мажмуа.

Резюме. Мақолада Устюрт кум массивларининг ўсимлик формациялари кўриб чиқилади. Тадқиқот давомида Ag'iyun ва Борсакелмас, Asaka-Audan, Qorato'lay ва Ilteje ботиклари худудларида кум массивлари аниқланди. Ag'iyunni шимоли-шарқдан, ғарбдан ва жануби-ғарбдан ўраб турган кумлар учун кўплаб ўсимликлар мажмуасининг мавжудлиги характерлидир. Бу ерда мавжуд бўлган асосий формациялар аралаш juzgun, tamariks, қора саксовул, жонтоқ ва сарсазан формацияларидур.

Ключевые слова: формация, массив, плато Устюрт, пастбища, ландшафт, комплекс.

Резюме. В статье рассматриваются растительные формации песчаных массивов Устюрта. В ходе исследования были установлены песчаные массивы в районах впадин Агыин и Барсакельмес, Ассаке-Аудан, Каратюлей и Ильтедже. Для песков, окружающих Агыин с северо-востока, запада и юго-запада характерно присутствие многочисленного комплекса растительных сообществ. Главнейшие формации, присутствующие здесь смешанноджузгуновья, тамариковья, черносахсауловья, джантаковья и сарсазановья.

Key words: formation, massif, Ustyurt Plateau, pastures, landscape, complex.

Summary. The article examines the vegetation formations of the Ustyurt sandy masses. During the study, sand massifs were identified in the areas of the Agiin and Barsakelmes depressions, Asaka-Audan, Karatyul, and Ilteje. The sands surrounding the Agiin from the north-east, west, and southwest are characterized by the presence of a large complex of plant communities. The main formations present here are mixed juzgun, tamarisk, black saxaul, jantak, and sarsazan.

Введение. Плато Устюрт остается системой массивов высокопродуктивных пастбищ, пригодных для использования в овцеводстве, коневодстве, верблюдоводстве. Поэтому Устюрт представляет значительный интерес для народного хозяйства [4].

Отдельные части этой пустыни и некоторые типы ее ландшафтов исследованы пока недостаточно. В первую очередь это следует отнести к песчаным массивам Устюрта. Участки песчаной пустыни на Устюрте рассеяны в виде довольно многочисленных площадей, каждая из которых не очень велика. Однако значение этого типа ландшафтов для освоения Устюрта очень велико, так как именно здесь находятся наиболее ценные пастбища, пригодные для зимовки скота и здесь же существуют наиболее благоприятные условия для формирования локальных скоплений неглубокозалегающих пресных или слабосоленоватых вод, которые могут быть использованы при создании сети водопоев. Между тем, песчаные массивы Устюрта в силу своей разобщенности, а также в силу сложных условий работы в них, почти не подвергались специальному изучению [1, 2].

В ходе исследования были установлены песчаные массивы в районах впадин Агыин и Барсакельмес, Ассаке-Аудан, Каратюлей и Ильтедже.

Одной из крупных систем песков этого типа являются лежащие по окраинам Агыина и Барсакельмеса. Эти две сопряженные друг с другом впадины занимают обширный Барсакельмесский прогиб, составляющий значительную часть Каракалпакского Устюрта. Преобладающим типом ландшафтов здесь являются солончаковые пустыни.

Наиболее богатая песками часть этого своеобразного окружения солончаковых впадин, на север и северо-восток от Агыина носит название песчаного массива Картпайкум. Около впадины Барсакельмес на северо-западе ее лежит небольшой массив Табын-су, на остальной периферии впадины песков нет.

Материалы и методы. Объектом нашего исследования являлась растительные формации песчаного массива Устюрта. Использован в основном маршрутный метод исследования для изучения состава и структуры популяции растений путем учетов на маршрутах. Ботанические описания растений сделаны во всех сообществах, по общепринятой методике [7]. При идентификации видовой принадлежности растений использовали «Определитель растений Средней Азии» [5]. В ходе полевых исследований также использован геоботанические методы.

Результаты исследования и обсуждения. Для песков, окружающих Агыин с северо-востока, запада и юго-запада характерно присутствие многочисленного (в основном пятичленного) комплекса растительных сообществ, весьма несонорного по входящим в него компонентам. Главнейшие формации, присутствующие здесь смешанноджузгуновья, тамариковья, черносахсауловья, джантаковья и сарсазановья.

Местами в комплекс включаются отдельные сообщества из куянсуяковых формаций (куянсуяка серебристого, и Карелина), формации курчавки, реомюрии кустарниковой, гипсофильных парнолистников (парнолистник Эйхвальда, яйцевидный и др.) и поташников.

На большей части, занимаемой им площади по окраинам солончаков Агыин и Тюмрюк этот комплекс, контактирует с одной стороны с сарсазанниками и с сорами дна впадины, а с другой со своеобразным ландшафтом, получившим название черносаксауловых редин. Это редкая сеть экземпляров или небольших групп черного саксаула, разбросанная по поверхности плато, на фоне биюгунников и белоземельнопопынных и биюргуовых комплексов, типичных для равнин Устюрта.

Черносаксауловые редины рассматривает, как особую формацию, имеющую гидроиндикационные значения и указывающие на воды с умеренной минерализацией, что прослежено им непосредственно на редилах, лежащих на запад от описываемых нами комплексов, окаймляющих западный борт Агыина [3].

Ландшафтная структура комплекса очень сложна. Она характеризуется пестрой комбинацией мелкобугристых песков, покрытых псаммофитами, чоколаков с тамариксами, групп черного саксаула, мелких участков травянистых фреатофитов в понижениях и довольно значительных участках солончаков с типичными галофитами.

Типологически оно должно быть отнесено к ландшафтам-экотонам, то есть к ландшафтам, занимающим промежуточное положение между соседствующими с ним подтипами пустынь. Этот комплекс сообществ довольно сильно варьирует по своему характеру и, в особенности, по господствующим в нем растительным ассоциациям. Однако везде в нем остаются пять основных компонентов, указанных в его названии. Узнавать этот подтип песчаных массивов на местности не всегда легко, так как он сильно поврежден человеком. Причина заключается в том, что, располагаясь на краю песков, участки данного подтипа были уже давно замечены и оценены животноводами, которые использовали их для выпаса. В итоге естественная ландшафтно-физиономическая структура оказалась сильно нарушенной благодаря появлению в нем как зарослей приколоченных сорняков, так и сбоев, то есть площадок, полностью вытопанных скотом и лишенных растительности.

Переходный характер его сказывается во многом, и в первую очередь в высокой гипсоносной песков, возникшей вероятно от постоянной солевой им пульверизации со дна впадин, превратившей песчаный субстрат в те псевдопесчаные образования, какими они стали в настоящее время. Сказывается он и в сочетании в одном комплексе экологически контрастных растительных формаций-псаммофильных, гипостильных, галофильных. Наконец, переходность комплекса сказывается и в предположениях о его эволюции, так как существует точка зрения, согласно которой солончаковые пустыни бессточных впадин в настоящее время охвачены процессом роста в связи с продолжающимся тектоническим погружением областей прогибов. Если эта гипотеза верна, то постепенное расселение галофитов по буграм является одним из показателей данного процесса и следует ожидать еще большего расширения площади галофильных сообществ. Все это позволяет утверждать,

что, являясь в своих исходных аспектах переходной, промежуточной экосистемой, этот комплекс приведен в современное свое состояние деятельностью человека и может быть определен как антропогенный экотон.

На окраине Барсакельмеса отмечен лишь небольшой песчаный массив у колодца Табын-су. Это закрепленные мелкобугристые пески с господством белоземельно-саксауловых и восточносолянково-саксауловых сообществ с участием боялыча, черкеза, эфемеров. Они сочетаются с многочисленными такыровидными поверхностями и отчасти перекрывают последние. Огипсованность песка значительно ниже, чем на Агыне. В песках лежит колодец с солоноватой водой. Малые размеры массива, его сильная нарушенность выпасом (он лежит вблизи от старых путей перегона) лишает его практического значения, и он может быть использован лишь как место временной остановки стада при дальнем отгоне.

Значительное сходство с песками окраин Агыина имеют песчаные массивы, лежащие на окраинах впадин Ильтедже и Кара-Тюлей. Пологая, слабо выраженная в рельефе, депрессия Ильтедже лежит в районе увала Карабаур, выровненность ее бортов так велика и переход от окружающей ее равнины так постепенен, что площади, заняты гипсоносными песками не обособлены от солончаковых участков, а комбинируются с ними, образуя сложную мозаику галофитов и псаммофитов [6]. На профиле, проложенном от колодца Ильтедже, на восточной окраине впадины, через всю депрессию в широтном направлении отмечены следующие сообщества, а) асс. сведы мелколистной (непосредственно вблизи от колодца) б) асс. восточносолянково-ковыльная на слабоволнистых невысоких песчаных грядах в комплексе с небольшими понижениями с группами биюргуна и реомюрии кустарниковой, в) асс. Восточносолянково - поташниково - черносаксауловая (местами с группами тамарикса щетинисто волосистого) с пышным развитием напочвенного желтого лишайника, г) асс. восточно-солянково-черно саксауловая.

Во втором из перечисленных сообществ с поверхности вскрывается желтовато серая рыхлая масса, представляющая собой почти паритетную смесь песка и частиц гипса; далее до глубины полутора метров залегает пылевая плотная супесь, содержащая прослой гипса до 5-10 см; мощностью.

Выводы. Таким образом, главнейшими растительными формациями песчаных массивов Устюрта являются, смешанноджузгуновья, тамариковая, черносаксауловая, джантаксовая и сарсазановая формация, а также местами в комплексе включаются отдельные формации курчавки, реомюрии кустарниковой, гипсофильных парнолистников (парнолистник Эйхвальда, яйцевидный и др.), поташников, а также куянсуяковые формаций (куянсуяка серебристого, и Карелина). По окраинам солончаков Агыин и Тюмрюк этот комплекс, контактирует с одной стороны с сарсазанниками и с сорами дна впадины, а с другой со своеобразным ландшафтом, небольшими группами черного саксаула, разбросанная по поверхности плато, на фоне

биюгунников и белоземельнопопынных и биюргуовых комплексов, типичных для равнин Устюрта.

Ландшафтная структура комплекса характеризуется пестрой комбинацией мелкобугристых песков, покрытых псаммофитами, чоколаков с тамариксами, групп черного саксаула, мелких участков травянистых фреатофитов в понижениях и довольно значительных участках солончаков с типичными галофитами.

Растительные формации песчаного массива Устюрта сильно поврежден человеком, которые использовали их для выпаса скота. В итоге естественная ландшафтно-физиономическая структура оказалась сильно нарушенной благодаря появлению в нем как зарослей приколоченных сорняков, так и сбоев, то есть площадок, полностью вытопанных скотом и лишенных растительности.

Литература

1. Бегжанова Г.Т. Современное состояние пастбищ плато Устюрт. // Теория и практика современной науки №6(48), 2019. – С. 101-103.
2. Викторов С.В. Пустыня Устюрт и вопросы её освоения. – Москва: «Наука», 1971.
3. Викторов С.В. Индикационное значение черно-саксауловых лесов юговосточного Устюрта. Проблемы освоения пустынь, №5, 1973. – С. 30-35.
4. Кочкарова С.А., Мамбетуллаева С.М. Трансформация пустынных ландшафтов в экологических условиях южного приаралья. // Scientific progress, volume 2, issue 6, 2021. – С. 1407-1417.
5. Определитель растений Средней Азии. Критический обзор флоры. Т. 10. [Сложноцветные и др.] – Ташкент: 1993.
6. Пельт М.П. Псаммофильная растительность. «Экологические аспекты освоения пустыни Устюрт». – Ташкент: «ФАН», 1984.
7. Лавренко Е.М., Корчагина А.А. Полевая геоботаника. – Москва-Ленинград: «Наука», 1964.

QARAQALPAQSTANDA SHARWA MALLARÍNÍN GELMINTLER JÁMÁÁTIN ÚYRENIW

Ubbiniyazova Jamila Kómekbaevna – *biologiya ilimleri boyunsha filofosiya doktori*

j.ubbiniyazova@ndpi.uz

Ájiniyaz atundağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

ИЗУЧЕНИЕ СООБЩЕСТВ ГЕЛЬМИНТОВ ЖИВОТНЫХ КАРАКАЛПАКСТАНА

Уббиниязова Жамила Комекбаевна – *доктор философии по биологическим наукам*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

STUDYING THE HELMINT COMMUNITIES OF ANIMALS IN KARAKALPAKSTAN

Ubbiniyazova Jamila Komekbaevna – *Doctor of Philosophy in Biological Sciences*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: bovidlar (Bovidae), invaziya, epizootologiya, gelmintosenoz, gelmintologik otopsiya usuli, sestoda, trematoda, nematoda.

Rezyume. Maqola zamonaviy sharoitda gelmintlar faunasining rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini tahlil qiladi. Ushbu keng qamrovli tadqiqot Qoraqalpog‘istonning hozirgi ekologik sharoitlarida qo‘y, echki va qoramollardagi gelmint jamoalarini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari va adabiyot ma‘lumotlarining tahlili Qoraqalpog‘istondagi hayvonlar epizootiyasini tavsiflash imkonini berdi.

Ключевые слова: полорогие (Bovidae), инвазия, эпизоотология, гельминтоценоз, гельминтологический метод вскрытия, цестода, трематода, нематода.

Резюме. Статья посвящена анализу фундаментальных закономерностей формирования гельминтофауны в современных условиях. Комплексное изучение сообществ гельминтоценозов овец, коз и крупного рогатого скота в современных экологических условиях Каракалпакстана. Результаты исследований и анализ литературных данных позволили описать эпизоотию животных в условиях Каракалпакстана.

Key words: Bovidae, invasion, epizootology, helminthocenosis, helminthological method of dissection, cestoda, trematoda, nematoda.

Summary. This scientific article is devoted to the analysis of fundamental laws in the formation of helminth fauna in modern conditions. A comprehensive study of helminth communities of sheep, goats, and cattle in the current ecological conditions of Karakalpakstan. Research results and analysis of literature data have made it possible to characterize the epizootic of livestock in the conditions of Karakalpakstan.

Kirisiw. Qaraqalpaqstan Respublikası Ámiwdáryanıń tómenǵı aǵımında jaylasqan bolıp, Ózbekstannıń arqa-batis aymaǵınıń bir bólimin iyeleydi. Qaraqalpaqstan Respublikasınıń tábiyiy-klimat sharayati, suw resurslarınıń jetispewshiligi hám jaylawlardıń florası parazitocenzlardıń ózine tán strukturasını belgilep beredi. Bul jerde gewekshaqlılar (Bovidae) tuwısınıń kópshilik túrleri ushırasadı, sonday-aq, sharwa mallarınan qoy, eshki hám qaramallar baǵıladı [1, 2].

Azıq-awqat qáwıpsızlıǵın támiyinlew hám sharwashılıqtı jedlestiriw Ózbekstan ekonomikasın rawajlandırıwdıń tiykarǵı baǵdarlarınń biri bolıp esaplanadı. Parazitler sharwa mallarınıń ónimdarlıǵın (sút, jún hám gósh) tómenletedi. Aymaqtıń ózine tán klimat sharayatında bul fermer xojalıqlarınıń rawajlanıwına tikkeley tásir etedi.

Qaraqalpaqstan aymaǵında ushırasatuǵın sharwa mallarınıń gelmintler faunasın úyreniw tek ilimiy ǵana emes, al úlken ámeliy qızıǵıwshılıqtı da tuwdıradı.

Jumistıń maqseti: Qaraqalpaqstannıń házirgi ekologiyalıq sharayatında qoy, eshki hám qaramallardıń gelmintocenzlar jámáatlerin kompleksli úyreniwden ibarat.

Material hám metodlar. Tiykarǵı material Qaraqalpaqstannıń sharwashılıq xojalıqlarında baǵılıp atırǵan úy haywanlarınan (qoy, eshki, qaramal) alınǵan gelmintlerdiń sapalıq hám muǵdarlıq jıyındıları material bolıp xızmet etti. Gelmintler 2020-2024-jıllar dawamında belgili usıllar menen ajırıtıp alıw jolı menen jıynalǵan [3]

Qaraqalpaqstannıń Kegeyli, Bozataw, Taxtakópır, Qońırat, Moynaq, Ámiwdárya, Tórtkól rayonlarındaǵı mal

soyıw punktlerinde Skryabin (1928) boyınsha tolıq gelmintologiyalıq jarıp kóriw usılı menen jergilikli násilli qoylardan – 37, eshkilerden – 35, hár qıyılı násilli qaramallardan – 19 qaramal tekserildi. Sonday-aq, soyılǵan haywanlardıń ayırım organları: 116 qaramal, 250 qoy hám eshkiler Skryabin boyınsha tolıq emes gelmintologiyalıq jarıp kóriw usılı menen úyrenildi [8, 11].

Jıynalǵan gelmintlerdi ulıwma qabil etilgen metodika boyınsha: cestodalar hám trematodalar – 70% li spiritte; nematodalar Barbagallo suyılıǵında saqlandı [6, 7].


Gelmintlerdi identifikaciyalaw ushın belgili anıqlawshılar hám monografiyalardan paydalandıq [4, 5].

Gelmintlerdiń morfologiyasını úyreniw hám identifikaciyalaw ÓzRIA Zoologiya institutınıń ulıwma parazitologiya laboratoriyasında hám Nókis mámleketlik pedagogika institutınıń «Biologiya» kafedrasınıń eksperimental laboratoriyasında J10M0 C-10 stereoskopik, CK 2-TR invertirlengen hám NLCD-307B binoklyar mikroskoplarınan paydalangan halda waqıtsha hám turaqlı preparatlarda ámelge asırıldı.

Izertlew nátiyjeleri. Ótkerilgen izertlewlerdiń nátiyjeleri boyınsha Qaraqalpaqstan sharayatında baǵılatuǵın gewekshaqlılar (Bovidae) tuwısınıń wákillerinen sharwa malları (qoy, eshki, qaramal) birmeshe gelmintler jámáati menen zıyanlanganlıǵın kórsetti. Haywanlardıń zıyanlanıw dárejesi: qoylarda – 100%, eshkilerde – 75%, qaramallarda – 70% dı kórsetti [9,10].

Anıqlangan parazitlerdiń taksonomiyalıq quramı úsh klassqa tiyisli 36 túrden ibarat. Gelmintofauna dúzilisinde nematodalar (Nematoda) – 24 túr (67%) ústin orındı

ıyeleydi. Cestodalardıń úlesi 8 túr (22%), trematodalardıń úlesi 4 túr (11%) dı quraydı (1-súwret).



1-súwret. Qaraqalpaqstan gewekshaqlılarınıń (Bovidæ) gelmintler menen zıyanlanıw kórsetkishi

Qoylardıń gelmintleri (*Ovis aries dom.*). Qaraqalpaqstan biocenozilarında qoylardıń gelmintofaunası (*Ovis aries dom.*) úsh klass dárejesindeki taksonomiyalıq kóp túrlilikti kórsetiwshi 28 parazit túrinen ibarat.

Anıqlanğan jámáát strukturası tómendegi bólistiriw menen xarakterlenedi:

Cestodalar klası: 7 túr – *Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Avitellina centripunctata*, *Thysaniezia giardi*, *Taenia hydatigena*, *Echinococcus granulosus* hám *Multiceps multiceps*.

Trematodalar klası: 3 túr – *Fasciola gigantica*, *Calicophoron calicophorum* hám *Schistosoma turkestanicum*.

Nematodalar klası eń kóp sanlı bolıp, 18 túrdi óz ishine aladı: *Trichocephalus ovis*, *T. skrjabini*, *Chabertia ovina*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrinus*, *Haemonchus contortus*, *Marshallagia marshalli*, *M. mongolica*, *Nematodirus helvetianus*, *N. oiratianus*, *Ostertagia ostertagi*, *Teladorsagia circumcincta*, *Dictyocaulus filaria*, *Skrjabinema ovis*, *Gongylonema pulchrum*, *Parabronema skrjabini*, *Setaria labiatopapillosa* hám *Skrjabinodera saiga*.

Eshkilerdiń gelmintleri (*Capra hircus dom.*). Úyrenilip atırğan aymaqtaǵı úy eshkisi gelmintleri (*Capra hircus dom.*) jámááti 21 túrdegi parazit qurtlardı óz ishine aladı. Parazitotsenoziń taksonomiyalıq dúzilisi nematodalardıń ústemligi menen sıpatlanadı hám tómendegi klaslar menen kórsetiledi:

Cestodalar klası (Cestoda): 4 túri, sonnan *Moniezia benedeni*, *Thysaniezia giardi*, sonday-aq *Taenia hydatigena*, *Echinococcus granulosus* lardıń larval formaları anıqlanğan.

Trematodalar klası (Trematoda): 2 túrdi óz ishine aladı – *Fasciola gigantica* hám *Schistosoma turkestanicum*, bul jaylawlardıń ıǵallı biotoplarǵa baylanıslılıǵın kórsetedi.

Nematodalar (Nematoda) klası: 15 túrden ibarat bolıp, bul gelmintler toparında túrler baylıǵınıń tiykarın quraydı. Bul klasqa *Trichocephalus skrjabini*, *Chabertia ovina*, *Trichostrongylus axei*, *Haemonchus contortus*, *Marshallagia marshalli*, *Nematodirus helvetianus*, *N. oiratianus*, *Ostertagia ostertagi*, *Teladorsagia circumcincta*, *Dictyocaulus filaria*, *Skrjabinema caprae*,

Gongylonema pulchrum, *Parabronema skrjabini*, *Setaria labiatopapillosa* hám *Skrjabinodera saiga* kirgen.

Iri shaqlı qaramal gelmintleri (*Bos taurus dom.*). Qaraqalpaqstan sharayatındaǵı qara mallardıń gelmintofaunası (*Bos taurus dom.*) túrlerdiń kópligi menen ajralıp turadı hám úsh klassqa bólingen 26 túrdi óz ishine aladı. Bul parazitocenoziń strukturalıq dúzilisi tómendegi toparlar menen kórsetiledi:

Cestoda klasınıń (Cestoda) 5 túri anıqlanğan bolıp, olar arasında *Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Taenia hydatigena*, *Echinococcus granulosus*, *Taeniarhynchus saginatus* lar bar.

Trematodalar (Trematoda) klası: gewekshaqlılar patologiyasında úlken áhmiyetke iye 4 túr – *Fasciola gigantica*, *Calicophoron calicophorum*, *Gastrothylax crumenifer* hám *Schistosoma turkestanicum* kiredi.

Nematodalar klası gelmintler faunasınıń dominant komponenti (17 túr) bolıp, olar *Trichocephalus ovis*, *T. skrjabini*, *Chabertia ovina*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrinus*, *Haemonchus contortus*, *Marshallagia marshalli*, *M. mongolica*, *Nematodirus helvetianus*, *N. oiratianus*, *Ostertagia ostertagi*, *Teladorsagia circumcincta*, *Dictyocaulus viviparus*, *Skrjabinema ovis*, *Gongylonema pulchrum*, *Parabronema skrjabini* hám *Setaria labiatopapillosa* sıyaqlı kesellik qozdırıwshılardıń qamtıp aladı.

Juwmaq. Úyrenilgen gewekshaqlılar (Bovidæ) tuwısınıń wákilleri ushın ulıwma gelmintlerdiń tómendegi túrleri anıqlandı: *Moniezia benedeni*, *Taenia hydatigena* (larvae), *Echinococcus granulosus* (larvae), *Fasciola gigantica*, *Schistosoma turkestanicum*, *Trichocephalus skrjabini*, *Chabertia ovina*, *Trichostrongylus axei*, *Haemonchus contortus*, *Marshallagia marshalli*, *Nematodirus helvetianus*, *N. oiratianus*, *Ostertagia ostertagi*, *Teladorsagia circumcincta*, *Gongylonema pulchrum*, *Parabronema skrjabini* hám *Setaria labiatopapillosa*. Bir qatar taksonlar xojayınlarınıń aralıq spektri (3-4 túr) menen xarakterlenedi, olardıń qatarına: *Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Avitellina centripunctata*, *Trichocephalus ovis*, *Chabertia ovina*, *Haemonchus contortus*, *Marshallagia mongolica*, *Teladorsagia circumcincta*, *Skrjabinema caprae*, *Parabronema skrjabini* hám *Skrjabinodera saiga* kiredi. Sonı ayrıqsha atap ótiw kerek, anıqlanğan 36 túrden 4 túri – *Taenia hydatigena*, *Echinococcus granulosus*, *Multiceps multiceps* hám *Taeniarhynchus saginatus* lar gewekshaqlılarda tek ǵana lichinkalıq basqışında parazitlik etedi.

Qaraqalpaqstan aymaǵında izertlengen gewekshaqlılar (Bovidæ) tuwısınıń wákilleri arasında *Dicrocoelium dendriticum*, *Hasstillesia ovis*, *Protostrongylidae* tuwısınıń túrleri ádettegi parazitler bolıp tabılmaydı, bul Qaraqalpaqstan gelmintleri faunasınıń ózgesheligin regionınıń tábiyiy-ekologiyalıq ózgeshelikleri menen baylanıstıradı. Bul aymaqta Ózbekstanınıń basqa aymaqlarında ushıraspaytuǵın *Avitellina*, *Gastrothylax*, *Fasciola*, *Schistosoma*, *Nematodirella*, *Parabronema*, *Skrjabinodera* tuqımlası parazitleri keń tarqalğan.

Ádebiyatlar

1. Азимов Д.А., Дадаев С. Д., Акрамова Ф.Д, Сапаров К.А. Гельминты жвачных животных Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 2015.
2. Гехтин В.И. Гельминтофауна крупного рогатого скота и биология фасциолы гигантской в условиях Каракалпакской АССР. // Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент: 1967.
3. Ивашкин В.М., Контримавичус В.Н., Назарова Н.С. Методы сбора и изучения гельминтов наземных млекопитающих. – Москва: «Наука», 1971.
4. Ивашкин В.М., Орипов А.О., Сонин М.Д. Определитель гельминтов мелкого рогатого скота. – Москва: 1989.
5. Ивашкин В.М., Мухамадиев С.А. Определитель гельминтов крупного рогатого скота. – Москва: «Наука», 1981.
6. Матчанов Н.М., Дадаев С., Кабилов Т.К., Сидчиков Б.Х. Гельминты животных пустынных биоценозов Узбекистана. – Ташкент: 1989.
7. Салимов В.С., Даминов А.С., Уроков К.Х. Кишлок хужалик хайвонлари ва паррандалар трематодозлари. – Самарканд: 2016.
8. Скрябин К.И. Методы полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая и человека. – Москва: 1-го МГУ, 1928.
9. Султанов М.А., Сарымсаков Ф.С., Муминов П., Давлатов Н. и др. Паразиты животных и человека низовьев Амударьи. – Ташкент: «Фан», 1969.
10. Султанов М.А., Азимов Д.А., Гехтин В.И., Муминов П.А. Гельминты домашних млекопитающих Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1975.
11. Anderson R.C. Nematoda parasites of Vertebrates their development and transmission. – New York: CAB International, 2000.

JANUBIY-G'ARBIY QIZILQUM SHAROITIDA *ATRIPLEX AUCHERI* MOQ. BARGINING MORFO-ANATOMIK MOSLASHISH XUSUSIYATLARI

Sharipova Vasila Qo'ysinovna – *biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim*

vasila_82@mail.ru

Qilichev Shohjahon Shomurod o'g'li – *kichik ilmiy xodim*

Turdiyev Doston Ergash o'g'li – *kichik ilmiy xodim*

Saitjanova Umidaxon Shuhratovna – *kichik ilmiy xodim*

Maltsev Ivan Ivanovich – *biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim*

Bozorova Dilyayra O'tkirovna – *kichik ilmiy xodim*

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti

MORFOЛОГО-АНАТОМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ ЛИСТА *ATRIPLEX AUCHERI* MOQ. В УСЛОВИЯХ ЮГО-ЗАПАДНОГО КЫЗЫЛКУМА

Шарипова Васила Куйсиновна – *доктор философии по биологическим наукам, старший научный сотрудник*

Киличев Шохжахон Шомуродович – *младший научный сотрудник*

Турдиев Достон Эргашевич – *младший научный сотрудник*

Сайтжанова Умидаaxon Шухратовна – *младший научный сотрудник*

Мальцев Иван Иванович – *кандидат биологических наук, старший научный сотрудник*

Бозорова Дилэйра Уткировна – *младший научный сотрудник*

Институт ботаники Академии наук Республики Узбекистан

MORPHO-ANATOMICAL ADAPTATION FEATURES OF THE LEAF OF *ATRIPLEX AUCHERI* MOQ. IN THE CONDITIONS OF THE SOUTHWESTERN KYZYLKUM

Sharipova Vasila Quysinovna – *Doctor of Philosophy in Biological Sciences, senior researcher*

Qilichev Shohjahon Shomurodovich – *junior researcher*

Turdiyev Doston Ergashevich – *junior researcher*

Saitjanova Umidaxon Shuhratovna – *junior researcher*

Maltsev Ivan Ivanovich – *PhD in Biological Sciences, senior researcher*

Bozorova Dilyayra Utkirovna – *junior researcher*

Institute of Botany, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Tayanch so'zlar: *Atriplex aucheri*, Qizilqum, barg anatomiyasi, C₄ fotosintez, krans-anatomiya, galokseromorfizm, galofit.

Rezyume. Maqolada Janubiy-G'arbiy Qizilqumda tarqalgan *Atriplex aucheri* Moq. turining barg morfologiyasi va anatomik tuzilishi o'rganildi. Tadqiqot natijasida bargda qalinlashgan epiderma, zich trixomalar, izopalisad mezofill, suv saqlovchi parenxima va yaxshi rivojlangan krans hujayralari mavjudligi aniqlandi. Barg yuzasining unsimon qoplama bilan qoplanganligi hamda druzli hujayralarning uchrashi turning sho'rlanish, qurg'oqchilik va yuqori harorat sharoitiga moslashganligini ko'rsatadi. Olingan natijalar *Atriplex aucheri* ning Qizilqum sharoitidagi haqiqiy C₄ galokserofit tur ekanini tasdiqlaydi.

Ключевые слова: *Atriplex aucheri*, Кызылкум, анатомия листа, C₄ фотосинтез, кранц-анатомия, гало-ксероморфизм, галофит.

Резюме. В статье изучены морфология листа и анатомическое строение вида *Atriplex aucheri* Moq., распространённого в Юго-Западном Кызылкуме. В результате исследования установлено, что для листа характерны утолщённая эпидерма, густые трихомы, изопалисадный мезофилл, водозапасающая паренхима и хорошо развитые клетки кранц-обкладки. Наличие мучнистого налёта на поверхности листа, а также присутствие клеток с друзами свидетельствуют о приспособленности вида к условиям засоления, засухи и высоких температур. Полученные результаты подтверждают, что *Atriplex aucheri* является настоящим C₄ гало-ксерофитным видом в условиях Кызылкума.

Key words: *Atriplex aucheri*, Kyzylkum, leaf anatomy, C₄ photosynthesis, Kranz anatomy, halo-xeromorphism, halophyte.

Summary. The article examines the leaf morphology and anatomical structure of *Atriplex aucheri* Moq., a species distributed in the Southwestern Kyzylkum. The study revealed that the leaf is characterized by a thickened epidermis, dense trichomes, isopalisade mesophyll, water-storage parenchyma, and well-developed Kranz cells. The presence of a farinose coating on the leaf surface, as well as druse-containing cells, indicates that the species is adapted to salinity, drought, and high-temperature conditions. The obtained results confirm that *Atriplex aucheri* is a true C₄ halo-xerophytic species under the environmental conditions of the Kyzylkum.

Kirish. Arid hududlarda o'simliklarning yashab qolishi va barqaror rivojlanishi ularning morfologik, anatomik hamda fiziologik moslanishlari bilan chambarchas bog'liq. Qizilqum cho'li yuqori harorat, kuchli quyosh radiatsiyasi, atmosfera va tuproq namligining keskin tanqisligi, shuningdek, tuproqning turli darajada sho'rlanishi bilan tavsiflanadigan ekstremal tabiiy hududlardan biridir. Bunday muhitda o'suvchi o'simliklarda suvdan tejamkor

foydalanish, transpiratsiyani kamaytirish, ortiqcha tuzlarning salbiy ta'sirini cheklash va fotosintetik faoliyatni saqlab qolishga qaratilgan murakkab moslanishlar tizimi shakllanadi [2, 7, 13].

C₄ fotosintezli o'simliklar ayniqsa yuqori harorat, qurg'oqchilik va sho'rlanish sharoitida samarali faoliyat yuritishi bilan ajralib turadi. Ularning anatomik asosini tashkil etuvchi krans-anatomiya CO₂ ni o'tkazuvchi

bog‘lam atrofida hujayralarda qayta konsratsiyalash imkonini beradi, natijada fotorespiratsiya kamayadi va fotosintez samaradorligi oshadi [10, 11, 14, 15]. Shu sababli C₄ o‘simliklar suvdan foydalanish samaradorligi yuqori bulgan, ekologik stresslarga nisbatan nisbatan chidamli funksional guruh sifatida qaraladi [11, 13].

Chenopodiaceae oilasi vakillari, ayniqsa *Atriplex* turkumi, sho‘rlangan va qurg‘oqchil hududlarda keng tarqalganligi bilan alohida e‘tiborni tortadi. Ushbu guruh vakillarida izopalisad mezofill, suv saqlovchi parenxima, qalin kutikula, tukchali yoki unsimon qoplama, shuningdek, kran-anatomiya kabi belgilar ko‘p uchraydi. Mazkur xususiyatlar ularning cho‘l va yarim cho‘l sharoitida yuqori ekologik barqarorligini ta‘minlaydi [7, 8, 9]. Chenopodiaceae oilasida barg anatomiyasi va mezofill tiplari, jumladan C₄ sindrom bilan bog‘liq strukturaviy belgilar Markaziy Osiyo materiyallari asosida ham o‘rganilgan bo‘lib, ular cho‘llanish monitoringida muhim indikator sifatida baholangan [8].

Janubiy-G‘arbiy Qizilqum hududida tarqalgan *Atriplex aucheri* sho‘rxok-o‘tloq va cho‘l fitosenozlarining muhim tarkibiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tur ekologik jihatdan qattiq sharoitlarda yashashga moslashgan bo‘lsa-da, uning barg anatomiyasi va aynan mahalliy arid-sho‘rlangan sharoitga moslanish mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan. Bargning ichki tuzilishini tahlil qilish nafaqat turning ekologik strategiyasini tushunish, balki C₄ fotosintezli galokserofitlarning struktur-funksional xususiyatlarini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega [2, 6, 11].

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi *Atriplex aucheri* bargining morfo-anatomik tuzilishini o‘rganish, undagi C₄ fotosintezga xos strukturaviy belgilarni aniqlash hamda turning arid va sho‘rlangan muhitga moslanish xususiyatlarini tavsiflashdan iborat.


Material va metodlar. Tadqiqot hududi Qizilqum cho‘li ekstremal ekotizim bo‘lib, unda faqat fiziologik va anatomik jihatdan yuqori darajada moslashgan o‘simliklar saqlanib qoladi. Shu sababli tadqiqot uchun *Atriplex aucheri* Moq. turi tanlandi. Mazkur tur Qizilqumning turli mikrolandshaftlarida (qum barxanlari, sho‘rxok uchastkalar, allyuvial tekisliklar, va b.) ustun komponentlardan biri hisoblanadi. Shu bois uning anatomik tuzilishi orqali cho‘l ekotizimining moslashuv strategiyalarini model sifatida o‘rganish mumkin.

Anatomik tadqiqotlar uchun materiallar asosan Janubiy-G‘arbiy Qizilqum cho‘lining turli xil edafik sharoitlaridan yig‘ilgan o‘simlik barglari 70% etanolda fiksatsiyalangan. Barglardan kesmalar umumqabul qilingan metodlardan foydalangan holda ustara yordamida qo‘lda tayyorlangan, so‘ng kesmalar metilen ko‘ki bilan bo‘yalgan va doimiy preparat tayyorlash uchun glitserin-jelatinda mustahkamlangan [1]. Mikrofotosuratlar va mikrostrukturaviy o‘lchovlar KERN OBN 1327241 axromatik mikroskopida amalga oshirilgan. Anatomik strukturani tavsiflashda K.Esay [6] va L.I.Lotova [4] tomonidan taklif qilingan terminologiyadan foydalanilgan. Statistik tahlillar G.N.Zaytsev [3] usuli bo‘yicha amalga oshirilgan.

Natijalar va muhokama. *Atriplex aucheri* – bir yillik o‘t o‘simlik, bo‘yi odatda 30-100 sm gacha yetadi. Barglari navbatma-navbat joylashgan. Pastki barglar ko‘pincha o‘yiq tishchali yoki nayzasimon shaklda bo‘ladi va qisqa vaqt ichida to‘kilib ketadi. Qolgan barglar odatda mayda tishchali yoki butun, tuxumsimon yoki cho‘zinchoq

tuxumsimon shaklda bo‘lib, plastinkasi ko‘p hollarda tepa tomonga qayrilgan yoki yon cheti yuqoriga tomon o‘ralgan va chetlari ozroq to‘lqinsimon. Barglarning yuzasi yashil, ostki tomoni esa zich unsimon qoplama bilan qoplanganligi sababli kumushsimon oq rangda ko‘rinadi. Barg plastinkasining uzunligi 1,5-2,5 sm va eni 1,5-1,7 sm kenglikda [5].

Ushbu tur bargining kesimida galo-kseromorflik xususiyatlar aniq ko‘rinadi. Barg poyasining ikkala yuzasi ham uzun, o‘zaro chalkashgan trixomalar bilan zich qoplangan bo‘lib, ular to‘qimalarni ortiqcha bug‘lanish va nurlanishdan himoya qiladi. Epiderma bir qavatli, izodiametrik shaklda nisbatan yirik hujayrali, tashqi devorlari va kutikulasi qalinlashgan. Miqdoriy tahlillar epiderma tashqi devorining qalinligi o‘rtacha 3,3±0,11 mkm, epiderma balandligi esa 13,4±0,25 mkm ekanini ko‘rsatdi. Barg og‘izchalari epiderma sathidan biroz botiqroq va asosan adaksial tomonga joylashgan (1 - rasm).



1 - rasm – *Atriplex aucheri* bargining strukturaviy tuzilishi: A – bargning asosiy o‘tkazuvchi qismi (jilka); B – barg mezofilli.

Shartli belgilar: BS – kran hujayra, Col – kollenkima, D – druz, LE – ostki epiderma, Phl – floema, PP – ustunsimon parenxima, T – trixoma, UE – ustki epiderma, WSP – suv to‘plovchi parenxima, XI – ksilema.

Barg plastinkasining ko‘ndalang kesimida markazdagi tomirning shakli dumaloq, mezofill qismi esa yassi. Epiderma qavati ostida bir necha qator kollenkima joylashgan. Markaziy tomirda bitta katta kollateral o‘tkazuvchi bog‘lam joylashgan: ksilema elementlari bargning yuqori tomoniga (adaksial), floema elementlari esa pastki tomonga (abaksial) qaragan. O‘tkazuvchi bog‘lam bilan kollenkima oralig‘ida yirik hujayrali suv saqlovchi parenxima joylashgan bo‘lib, uning hujayralari diametri o‘rtacha 28±0,32 mkm ni tashkil etdi. Barg mezofilli izopalisad tipda tuzilgan va uning umumiy qalinligi 103,5±0,95 mkm ga teng bo‘ldi. Epiderma qavati ostida bir yoki ikki qatorli ustunsimon parenxima joylashgan bo‘lib, uning hujayralari balandligi 18,5±0,22 mkm, eni esa 6,5±0,11 mkm ni tashkil etdi. Har bir o‘tkazuvchi bog‘lam yaxshi rivojlangan yirik va yo‘g‘on kran hujayralari bilan o‘ralgan. Kranes hujayralarining balandligi o‘rtacha 26±0,25 mkm, eni esa 28,2±0,31 mkm bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar C₄ fotosintezga xos anatomik tuzilmaning yaqqol ifodasidir. Bargdagi o‘tkazuvchi

bog'lamlar ko'p sonli bo'lib, markaziy tomir sohasidagi ksilema elementlari soni odatda 25–30 ta, ularning diametri esa $10,2 \pm 0,17$ mkm ni tashkil qiladi. Ayrim joylarda kristall tabiatdagi cho'kmalarga ega hujayralar, ya'ni druzlar ham kuzatildi.

Atriplex aucheri turining barg morfologiyasi va anatomik tuzilishi uning sho'rxok, qurg'oqchil muhitga yuqori darajada moslashgan haqiqiy C₄ galo-kserofit ekanini ko'rsatadi. Barg plastinkasida kseromorflik belgilarining ustunligi – epidermaning tashqi devor va kutikulasining qalinlashganligi, barg mezofillining izopalisad tipda bo'lishi, trixomalar bilan zich qoplanishi – barg yuzasini samarali ravishda himoya qiladi. Uzun va chalkash trixomalar ortiqcha nurlanishni qaytarib, insolyatsiya stressini pasaytiradi, shuningdek barg yuzasida mikroklimat hosil qilib, bug'lanish tezligini kamaytiradi. Barg chetlarining yuqoriga qayrilgan va biroz to'liqsimon bo'lishi ham plastinka yuzasini qisqartiradi, ya'ni fotosintez uchun yetarli yorug'likni saqlagan holda suv yo'qotilishini cheklaydi.

Har bir o'tkazuvchi bog'larning yirik va yo'g'on devorli krants hujayralari bilan o'ralganligi C₄ fotosintezining asosiy anatomik belgilaridan biridir. Krants halqa: CO₂ ni o'tkazuvchi bog'lam atrofi mezofill va bog'lam qavatida qayta-konsentratsiya qilib, fotorespiratsiyani keskin kamaytiradi, yuqori harorat va sho'rlanish sharoitida ham fotosintez samaradorligini saqlaydi. Bu struktura turga suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, ya'ni har bir yo'qotilgan suv birligiga ko'proq uglerod assimilyatsiya qilish imkonini beradi.

Barglarda druzlar (kristall cho'kmalar)ga ega hujayralarning mavjudligi va ostki tomonning unimon qoplam bilan zich qoplanganligi ionlarni kompartmentallashtirish va to'plash jarayonlari bilan bog'liq. Bu: ortiqcha tuzlarni to'qimalarda saqlab, sitoplazma va fermentativ sistemalarni ion toksikligidan

himoya qiladi; sho'rxok yerlarda yuqori tuz konsentratsiyasiga qaramay, barg to'qimalarining biokimyoviy va fiziologik faolligini saqlab qolishga yordam beradi. Bu xususiyatlar birgalikda *Atriplex aucheri* turining qurg'oqchil va sho'rlangan yashash joylariga morfo-anatomik moslashuvining yuqori darajasini aks ettiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari *Atriplex aucheri* bargining morfo-anatomik tuzilishi Janubiy-G'arbiy Qizilqumning arid va sho'rlangan sharoitlariga chuqur moslashganini ko'rsatdi. Bargda epiderma va kutikulaning qalinlashganligi, yuzaning zich trixomalar hamda unimon qoplama bilan himoyalanganligi, mezofillning izopalisad tipda tuzilganligi va yirik krans hujayralarining rivojlanganligi ushbu turning C₄ fotosintezli galokserofit sifatidagi anatomik asosini tashkil etadi.

Barg to'qimasida suv saqlovchi parenxima va druzli hujayralarning mavjudligi qurg'oqchil va sho'rlanish sharoitida suv rejimini barqarorlashtirish, ortiqcha ionlarni ajratib saqlash hamda hujayra fiziologik faolligini saqlab qolishga xizmat qiladi. O'tkazuvchi bog'larning ko'p sonli bo'lishi va ularning yirik krans hujayralari bilan o'ralganligi esa yuqori harorat sharoitida ham fotosintez samaradorligini saqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, *Atriplex aucheri* bargida aniqlangan anatomik belgilar majmui ushbu turning sho'rxok va qurg'oqchil muhitga yuqori darajada moslashganligini tasdiqlaydi. Mazkur tur Qizilqum cho'l fitosenozlarida ekologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim komponent bo'lib, galofit va C₄ o'simliklarning struktur-funksional moslanishlarini o'rganishda istiqbolli model obyekt sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining 2025-2029-yillarga mo'ljallangan "Raqamli tabiat: Markaziy O'zbekiston florasining raqamli platformasini ishlab chiqish" mavzusidagi davlat dasturi doirasida amalga oshirildi.

Adabiyotlar

1. Барыкина Р.П., Чубатова Н.В. Большой практикум по экологической анатомии цветковых растений. – Москва: Тов-во научн. изд. КМК, 2005.
2. Бутник А.А., Ашурметов О.А., Нигманова Р.Н., Бегбаева Г.Ф. Экологическая анатомия пустынных растений Средней Азии. Травы. Т. 3. – Ташкент: «Фан», 2009.
3. Зайцев Г.Н. Математика в экспериментальной ботанике. – Москва: «Наука», 1991.
4. Лотова Л.И. Ботаника: Морфология и анатомия высших растений. – Москва: «КомКнига», 2007.
5. Флора Узбекистана. Т. 2. – Ташкент: АН УзССР, 1953.
6. Эсау К. Анатомия семенных растений. Т. 1-2. – Москва: «Мир», 1980.
7. Akhani H. Biodiversity of halophytic and sabkha ecosystems in Iran. // *Sabkha Ecosystems*. 2006. Volume II: West and Central Asia. – P. 71-88.
8. Butnik A.A., Duschanova G.M., Yusupova D.M., Abdullaeva A.T., Abdinazarov S.H. Types leaf mesophyll species of Chenopodiaceae Vent. Central Asia and their role in the monitoring of desertification. // *Journal of Novel Applied Sciences*, 6(1), 2017. – P. 13-21.
9. Freitag H., Kadereit G. C3 and C4 leaf anatomy types in Camphorosmeae (Camphorosmoideae, Chenopodiaceae). // *Jour. Plant Syst. Evol.*: Springer-Verlag, Wien, V. 299, №8, 2013. – P. 121-132.
10. Gowik U., Westholl P. The path from C3 to C4 photosynthesis. // *Plant Physiology*. V. 155, 2011. – P. 56-63.
11. Lundgren M.R., Osborne C.P., Christin P.A. Deconstructing Kranz anatomy to understand C4 evolution. // *Journal of Experimental Botany*, V. 65(13), 2014. – P. 3357-3369.
12. Pyankov V.I., Voznesenskaya E.V., Kuzmin A.N., Ku M.S.B., Ganko E., Franceschi V.R., Black C.C., Edwards G.E. Occurrence of C3 and C4 photosynthesis in cotyledons and leaves of *Salsola* species (Chenopodiaceae). // *Photosynthesis Research*, Vol. 63, 2000. – P. 69-84.
13. Sage R. F. The evolution of C4 photosynthesis. // *New Phytologist*, 161(2), 2004. – P. 341-370.
14. Sage R.F., Sage T.L., Kocacinar F. Photorespiration and the evolution of C4 photosynthesis. // *Annual Review of Plant Biology*, Vol. 63, 2012. – P. 19-47.
15. Voznesenskaya E.V., X. Chuong S.D., Koteyeva N.K., Franceschi V.R., Freitag H., Edwards G.E. Structural, biochemical, and physiological characterization of c4 photosynthesis in species having two vastly different types of kranz anatomy in genus *Suaeda* (Chenopodiaceae). // *Plant Biology*, vol. 9, 2007. – P. 745-757.

**JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA JOYLASH TIRISH VOSITALARI
VA DIQQATGA SAZOVAR JOYLARNING O'RNI**

Abdiramanov Jangabay Bektursinovich – katta o'qituvchi
jangabay1964@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Usmanov Mashrab Rustamovich – geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
mashrabusmonov79@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Abdinazarova Xidoyatxon Oripovna – geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
xidoyatxonabdinazarova@gmail.com

Qo'qon davlat universiteti

**РОЛЬ СРЕДСТВ РАЗМЕЩЕНИЯ И МЕСТО ДОСТОПРИМЕЧАТЕЛЬНОСТЕЙ
РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ**

Абдираманов Жангабай Бектурсинович – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Усманов Машраб Рустамович – доктор философии по географическим наукам, доцент
Джизакский государственный педагогический университет

Абдиназарова Хидоятхан Ориповна – доктор философии по географическим наукам, доцент
Кокандский государственный университет

**THE ROLE OF PLACEMENT FACILITIES AND PLACEMENTS
IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE JIZZAKH REGION**

Abdiramanov Zhangabay Bektursinovich – senior lecturer

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Usmanov Mashrab Rustamovich – Doctor of Philosophy in Geography, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical University

Abdinazarova Khidoyatkhon Oripovna – Doctor of Philosophy in Geography, Associate Professor
Kokand State University

Tayanch so'zlar: turizm, viloyat geografik o'rni, turizmni rivojlantirishga oid qaror va farmonlar, arxeologiya yodgorliklari, arxitektura (tarixiy obida ziyoratgohlar) va monumental hamda diqqatga sazovor joylar soni, gastronomik turizm, mehmonxona, oilaviy mehmon uylari, turkompaniya, turistik marshrutlar va turizm istiqbollari.

Rezyume. Ushbu maqolada Jahonda turizmning o'rni, turizm, Jizzax viloyati o'zining noyob tabiati va betakror tarixiy obidalari, me'moriy yodgorliklari, bundan tashqari turizmni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari, viloyatda joylashgan arxeologiya yodgorliklari, arxitektura (tarixiy obida ziyoratgohlar) va monumental hamda diqqatga sazovor joylar, mehmonxonalar, viloyatining tog'li va tekislik hududlari, joylashtirish vositalari, mehmonxona, oilaviy mehmon uylari, turkompaniya faoliyati, Vaxmal tumanining turistik marshrutlari, turizm sohasida loyihalar, turizm istiqbollari haqida taklif va tafsilyalar berilgan.

Ключевые слова: туризм, географическое положение региона, постановления и указы о развитии туризма, количество археологических памятников, архитектурных (исторических памятников, мест паломничества) и монументальных достопримечательностей, гастрономический туризм, гостиница, семейные гостевые дома, туркомпания, туристические маршруты и перспективы туризма.

Резюме. В данной статье представлены предложения и рекомендации о роли туризма в мире, туризме, уникальной природе и неповторимых исторических памятниках Джизакской области, архитектурных памятниках, а также постановлениях и указах по развитию туризма, археологических памятниках, расположенных в регионе, архитектуре (исторических памятниках, местах паломничества) и монументальных и достопримечательных местах, отелях, горных и равнинных районах региона, средствах размещения, гостинице, семейных гостевых домах, деятельности туристической компании, туристических маршрутах Бахмальского района, проектах в сфере туризма, перспективах туризма.

Key words: Tourism, geographical location of the region, resolutions and decrees on tourism development, number of archaeological monuments, architectural (historical monuments, pilgrimage sites) and monumental attractions, gastronomic tourism, hotel, family guest houses, travel company, tourist routes and tourism prospects.

Summary. This article presents proposals and recommendations on the role of tourism in the world, tourism, the unique nature and unique historical monuments of the Jizzakh region, architectural monuments, as well as resolutions and decrees on tourism development, archaeological monuments located in the region, architecture (historical monuments, pilgrimage sites) and monumental and attractive places, hotels, mountainous and lowland areas of the region, accommodation facilities, hotel, family guest houses, tourism company activities, tourist routes of the Bakhmal district, projects in the field of tourism, tourism prospects.

Kirish. Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan. Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda bularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda [1].

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi [2].

Asosiy qism. Jizzax viloyati o'zining noyob tabiati va betakror tarixiy obidalari, me'moriy yodgorliklari, milliy o'ziga xosligi va an'anaviy taomlari bilan bizning mintaqamiz turizmning jadal rivojlanishi uchun istisno, emas edi. Bugungi kunda ushbu sanoat mintaqa rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirda viloyatda 427 madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan 100 tasi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, 268 tasi arxeologik va 59 tasi monument yodgorliklari hisoblanadi. Viloyatda Nurota va Zomin qo'riqxonalari, Zomin milliy tabiat bog'i, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, 9 ta o'rmon xo'jaligi va Qizilqumning cho'l hududlari mavjud. Viloyatda o'rmonlar 72 ming gektar maydonni egallaydi, 50 turdagi hayvonlar va qushlar va 1000 turdagi o'simlik turlarini uchratish mumkin [3].

Ma'lumki, viloyatining tog'li hududlarida ya'ni Zomin, Baxmal, Forish va Yangiobod tumanlarida ziyorat turizmini, Sharof Rashidov, G'allaorol, qisman Do'stlik va Paxtakor tumanlarida gastronomik, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofidagi Arnasoy, Forish tumanlari va vohada o'zining alohida o'rniga ega Jizzax shahrida ekoturizm, gastronomik hamda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud hisoblanadi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarori ijrosi doirasida viloyatda turizm xizmatlari, sayyohlar oqimi va infratuzilma yuksalib bormoqda.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida 35 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat olib bormoqda, 2024-yilda 60 mingdan ortiq kishi ushbu mehmonxonalarga joylashtirildi, ulardan 94,9%i O'zbekiston fuqarolari, 3,0%i MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va 2,1 %i xorijiy davlatlar fuqarolari tashkil etdi. Mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan 16,2 ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 41,0 ming kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadda, 0,6 ming nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, 0,1 ming nafari ziyorat qilish maqsadida, 0,3ming nafari davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, 0,6 ming nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.

Jizzax viloyati arxeologiya, arxitektura, monumental va diqqatga sazovor obyektlari haqida ma'lumotlar

| № | Tuman, shahar | Arxeologik obyektlar, ta | Arxitektura obyektlari, ta | Monumental san'at obyektlari soni, ta | Shu obyektlar ichida diqqatga sazovor joylari | Jami |
|-------------|--------------------|--------------------------|----------------------------|---------------------------------------|---|------------|
| 1. | Jizzax shahri | 9 | 13 | 9 | 8 | 39 |
| 2. | Sh.Rashidov tumani | 40 | 4 | 7 | 0 | 51 |
| 3. | Zarbdor tumani | 11 | 3 | 8 | 0 | 22 |
| 4. | Zomin tumani | 73 | 33 | 3 | 13 | 122 |
| 5. | Yangiobod tumani | 18 | 11 | 1 | 2 | 32 |
| 6. | G'allaorol tumani | 47 | 9 | 15 | 2 | 73 |
| 7. | Baxmal tumani | 55 | 11 | 2 | 1 | 69 |
| 8. | Forish tumani | 15 | 15 | 4 | 4 | 38 |
| 9. | Zafarobod tumani | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 10. | Paxtakor tuman | 0 | 0 | 3 | 0 | 3 |
| 11. | Arnasoy tumani | 0 | 0 | 1 | 0 | 1 |
| 12. | Do'stlik tumani | 0 | 0 | 0 | 0 | 2 |
| 13. | Mirzacho'l tumani | 0 | 1 | 4 | 0 | 5 |
| JAMI | | 268 | 100 | 59 | 30 | 427 |

Shuningdek, hozirgi vaqtda 170 ta 4 ming 959 o'rinli mehmonxona, oilaviy mehmon uylari mavjud bo'lib, ularning soni 258 taga, o'rinlar soni 6 ming 614 taga yetgan. Bu esa o'z navbatida viloyatga kelayotgan xorijiy sayohlarni to'liq joylashtirish imkoni yaratilganidan dalolat beradi. Viloyatning eng ko'p tashrif buyuradigan joylarida 4 ta turistik ma'lumot markazi (infokiosklar) tashkil etildi [5].

Hozirgi vaqtda viloyatda jami 12 ta turkompaniya faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 30 ga yaqin yangi marshrut ishlab chiqilgan. Turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda hamda boshqa ekoturizm manzillari bo‘ylab 3-5 kunlik turizm marshrutlari yaratilgani ham tahsinga loyiq.



Misol tariqasida Baxmal tumanining turistik marshrutlariga quyidagilarni aytib o‘tish joiz deb hisoblaymiz.

1. G‘allaorol tumanidan boshladi Sa‘d Ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi → Baxmal tumanidagi “Malik Ajdar” ziyoratgohi → Dong‘ora dam olish maskani → “Paloxmon ota” ziyoratgohi → Tagob qishlogidagi “Terakli ota” ziyoratgohi → Tangatopdi ota ziyoratgohi → Temirqadam qishlog‘idagi “Xo‘ja Ko‘ndalang ota” ziyoratgohi → Oqqo‘rg‘on qishlog‘idagi “Muxammad Said Xo‘ja Abu Said Mo‘min Holiq Xo‘ja” ziyoratgohi.

2. Baxmal tumani markazidan boshlanadi → Baxmal tumani markazida “O‘smat ota” ziyoratgohi → “Novqa ota” ziyoratgohi → “Novqa ota tepa” yodgorliklari → “Bog‘i Mozor ota” ziyoratgohi → Jum-jum qishlog‘idagi “Sa‘dulla Izbosarov” dam olish maskani → “Nushkent tepa” yodgorliklari.

Adabiyotlar

1. Abdiramanov J.B., Usmanov M.R. O‘zbekistonda joylashgan tabiiy turistik obyektlarining turizmni rivojlantirishdagi o‘rni. // Fan va jamiyat, №6(1), 2024, 38-40-b.
2. Abdiramanov J.B., Usmanov M.R. O‘zbekistonda ko‘llar tizimida turizmni rivojlantirishning ahamiyatlari. Geografiya – kelajakka nazar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya Materiallari to‘plami. – Nukus: «O‘zbekiston», 2024, 217-221-b.
3. Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 2019.
4. Комилова Н.К., Усманов М.Р. Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишининг худудий жихатлари. Монография – Жиззах. ЖДПУ “Тахририй-нашриёт бўлими нашри”, 2023.
5. Komilova N.Q., Usmanov M.R., Karimov I.E. “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini rivojlantirish istiqbollari. // Журнал естественных наук, 3(5), 2021.- С. 311-315.
6. Lapasovich M.O., Nematovich N.O., Yakubovich Z.B., Rustamovich U.M., Tolipov F. Historical and ethnographic characteristics and socio-spiritual factors of visiting tourism in uzbekistan. // Journal of Critical Reviews, 7(6), 2020. – P. 47-50.
7. Komilova N.K., Matchanova A.E., Safarova N.I., Usmanov M.R., Makhmudov M.M. Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. // Estudios de economía aplicada, 39(6), 2021. – P. 12.

3. Baxmal tumanidan boshlanadi → Xo‘ja Ko‘ndalang ota ziyoratgohi → “Baxmal oromgohi”- sanatoriyasi → “Boyqo‘ng‘ir o‘tovlari” dam olish maskani.

4. Baxmal tumanidan boshlanadi → Qatorlot qishlog‘ida “Do‘lana” dam olish maskani va betakror tog‘ manzaralari hamda ekoturistik mintaqalari va boshqalar.

Joriy yilda viloyat bo‘yicha turizm sohasida 30 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shundan 4 ta mehmonxona, 12 ta turizm dam olish va xizmat ko‘rsatish maskani, 2 ta turistik davolash-sog‘lomlashtirish majmuasi, 2 ta “Hostel”, 2 ta oilaviy mehmon uyi, 1 ta ijara yotoqxonasi, 7 ta umumiy ovqatlanish va 1 ta “Motel” faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar vahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-sonli “Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida birgina Baxmal tumanining O‘rmonchi qishlog‘ida turizm sohasini rivojlantirish borasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi [7].

Xulosa. Umuman olganda, Jizzax viloyati o‘zining tabiiy turistik obyektlari, tarixiy qadamjolari, arxitektura, monumental va diqqatga sazovar turistik destinatsiyalari bilan alohida ajralib turadi. Kelajakda ushbu sohani rivojlantirish orqali hududga yanada turistik oqimning ko‘payishi va yangi ish o‘rinlarining ochilishiga olib keladi. Shu bilan birga, quyidagi masalalarga e‘tibor qaratish turizm istiqbolida muhim ahamiyatga egadir:

- Jizzax viloyatining geografik o‘rni va joylashuvidan kelib chiqqan holda turizm sohasiga o‘ziga xos yondoshish;
- tabiiy sharoit va o‘ziga xos iqlim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanishuv, rekreatsiya dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarini kartalashtirish va turist qabul qilish yukini geografik va ekologik baholash;
- qadim tarixi va buyuk kelajagini aks ettiruvchi turistik reklamalarni xilma xil ko‘rinishda, turli tillarda yanada ko‘paytirish;
- diniy turizm istiqboli yuqoriligini inobatga olib islom diniga ehtiqt qiluvchilar ko‘p bo‘lgan davlatlar turizm bozorini o‘rganish va ularni qiziqtirish;
- turizm moddiy texnik bazasini yanada kuchaytirish;
- Sog‘lomlashtirish va dam olish, kurortlar tizimiga xorijiy sayyohlarni jarb qilish orqali rekreatsiya turizmiga e‘tiborni kuchaytirish va boshqalar.

MIYNET RESURLARINIŇ QÁLIPLESIWIN ÚYRENIWDIŇ TEORIYALÍQ METODIKALÍQ TIYKARLARI

Auezov Omirbay Tazabaevich – *stajyor oqıtıwshı*

omirbayauezov@mail.ru

Ajiniyaz atundađı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ
ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ**

Ауезов Омирбай Тазабаевич – *стажёр преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY
OF LABOR RESOURCE FORMATION**

Auezov Omirbay Tazabaevich – *trainee teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: tug‘ilish, o‘lim, aholi ko‘payishi, mehnat resurslari, ishchi kuchi, mehnatga layoqatli yosh, bandlik, migratsiya harakati.

Rezyume. Ushbu maqolada mehnat resurslari haqidagi fikrlarni va qonuniyatlarni o‘rganish, mehnat resurslari ortiqchaligi ishsizlik muammosiga va ishchi kuchining ish izlab boshqa hududlarga migratsiyasiga olib keladi va bu jarayonlarni o‘rganish zarur.

Ключевые слова: рождаемость, смертность, рост населения трудовые ресурсы, рабочая сила, трудоспособный возраст, занятость, миграционное движение.

Резюме. В данной статье необходимо изучить мнения и закономерности, касающиеся трудовых ресурсов. Избыток трудовых ресурсов приводит к проблеме безработицы и миграции рабочей силы в другие регионы в поисках работы.

Key words: birth rate, mortality, population growth, labor resources, workforce, working age, employment, migration movement.

Summary. In this article, it is necessary to study the opinions and patterns regarding labor resources, as labor resource abundance leads to the problem of unemployment and the migration of the workforce to other regions in search of work, and it is necessary to study these processes.

Kirisiw. ÓndiristiŇ úzliksiz dawam etiwı, onıń rawajlanıwı ushın xalıqtıń sanı hám onıń turaqlı ósip barıwı úlken áhmiyetke iye. Bul boyınsha amerikalı alım “Miyнет resursları”, “jumisshı kúshi” sıyaqlı usınday túsinikler qatarına kirgiziw múmkin. “Miyнет resursları” atamasın dáslep akademik S.G.Strimulin óziniń 1922-jılı járiyalanğan maqalalarınan birinde qollanğan.

Uzaq jıllar dawamında onnan mámleketiń insan resursların basqarıw hám paydalanıw nátiyjeliligın arttırıw maqsetinde paydalanıldı. Miyнетke jaramlı xalıq – miynet resursların shólkemlestirip, ol tábiyyı, materiallıq hám finanslıq resurslar menen bir qatarda qatań statistikalıq esapqa alınıwı ekonomikanı oraylasqan usılda rejlestiriwdiń áhmiyetli elementlerinen biri edi [4].

Demek, bul regionda xalıq sanınıń kóbeyiwı hám onıń jaylasıwı óndiris kúshleriniń rawajlanıwı hám aymaqlıq shólkemlesiwı menen bir-birine sáykes keliwi sociallıq-ekonomikalıq rawajlanıwıǵa tiykar jaratadı. Bolmasa, bul procesler arasındaqı teńsalmasızlıqlar bir qatar sociallıq-ekonomikalıq mashqalalardı keltirip shıǵaradı. Sonıń ushın da xalıqtıń sanı hám onıń aymaqlıq quramındaǵı ózgerislerge tásir etiwshı faktorlardı izertlew, prognozlaw áhmiyetli.

Ádebiyatlarǵa sholw. Ózbekistanda xalıq hám miynet resursları, boyınsha ózleriniń ilimiy jumisları hám ilimiy maqalalarında úyrengenligin kóriwmizge boladı hám olar I.Mullajanov [9], L.P.Maksakova [6], A.S.Soliev [5], D.G.Muminov [3], Z.N.Tojjeva [7], hám basqalar. Qaraqalpaqstanda bolsa xalıq hám miynet resursları, processı boyınsha G.Utepova [8], G.Xodjaeva [4], N.J.Embergenov [2] hám basqalardıń ilimiy jumislarında, ilimiy maqalalarında kórsek boladı.

Tiykarǵı bólim. Házirgi dáwirde, bul processlerdi úyreniwde xalıqtıń miynet resursları geografıyası, sociallıq-ekonomikalıq tarawlar hám basqa da bir qatar tarmaqlardıń tiykarǵı izertlew obyektı sıpatında tutqan ornı úlken.

“Miyнет resursları” túsinigi mánisine qaray bir-birine jaqın keletuǵın birneshe túsiniklerden ibarat. G.S.Vechkanov hám G.R.Vechkanovalar miynet resursların miynetti fizikalıq hám aqlıy uqıplıq sıpatında qaraydı. Olardıń pikirinshe “miynet resursları” olardı jasaw ushın ekonomikalıq qatnas, miynet procesindeǵı háreketler hám adamzat iskerliginiń basqa tarawlarında xızmeti sıpatında kóriw kerek.

Z.N.Tojjevaniń pikirinshe, miynet resursları – xalıqtıń miynetke uqıplı bólegi. Olarǵa ekonomikalıq belsendi xalıq penen birge, islemeytuǵın hám miynetke jaramlı jastaǵı jumis islemey atırǵan, sonıń ishinde, óndiristen ajıralǵan halda oqıp atırǵan miynetke jaramlı insanlar da kiredi. Keńirek mánieste ilimiy ádebiyatlarda miynet resurslarına tómendegishe sipatlama berilgen. “Miyнет resursları mámleket xalqının bir bólegi bolıp, olardıń fizikalıq rawajlanıwı, aqlıy qábileti hám bilimleri, xalıq xojalıǵında islewge uqıplı insanlar” [7]. Haqıyqatında da, “miynet resursları” túsinigi, islewge májbúr bolıwı múmkin bolǵan, yaǵnıy fizikalıq jaqtan islewi múmkin bolǵan adamlar sanı.

Miyнетke uqıplı xalıq, tiykarınan, miynetke uqıplı jastaǵı, olardıń psixofizikalıq maǵlıwmatları boyınsha óndiris procesinde qatnasıwǵa uqıplı bolǵan shaxslar jıyındısı bolıp tabıladı. Miyнет resursları sanı eki kategoriyadaǵı adamlardı qamtıp aladı. Birinshisi, miynetke jaramlı jastaǵı miynetke jaramlı xalıq. Ekinshisi, miynetke jaramlı jastan tısqarı jumis isleytuǵın xalıq [5].

Usı kózqarastan hár qanday mámleket yaki region xalqına táriyp beriw, dáslep xalıqtıń sanı hám onıń belgili bir dáwir dawamında ózgerip barıwın anıqlaw hám izertlewden baslanadı. Xalıqtıń sanınıń ósiwi bolsa onıń ol yaki bul aymaqta, izbe-iz ózgeriwi bolıp tabıladı. Bul process waqıt kózqarasınan turaqlı ózgerip, tereń teoriyalıq hám ámeliy izertlewlerdi alıp barıwdı talap etedi.

Miyнет resurslarına hár qıylı qatnaslar bar bolıp, olardıń ishinen N.A.Gorelovtıń [3] pikiri itibarǵa ılayıq: “Miyнет resursları ekonomikalıq kategoriya bolıwı menen birge xalıqtıń fizikalıq hám ruwxıy miynetke múnásibetin kórsetedi”.

Miyнет resursları jámiyet rawajlanıwında júdá áhmiyetli ornı iyeleydi. E.Nabiyev, A.Kayumovlardıń pikiri boyınsha “Miyнетke jaramlı jastaǵı xalıq salıstırmalı hám absolyut kórsetkishleriniń ózgeriwi miynet resurslarınıń júzege keliwi hám ol arqalı mámlekettiń ekonomikalıq rawajlanıwınıń pátine tásir etedi”.

Óz nábwetinde, joqarıda keltirilgen procesler tiykarında *miynet resursları sanı miynetke jaramlı jastaǵı xalıq sanı hám miynetke jaramlı jastan kishi hám úlken jastaǵı islewshiler sanı qosındısı sıpatında tómendegi formula boyınsha anıqlanadı:*

LR = WAPM - WTP, bunda:

LR - miynet resursları;

WAPM - miynetke jaramlı jastaǵı miynetke jaramlı xalıq;

WTP - islep atırǵan jas óspirimler hám pensionerler.

Jumisqa jaylastırwǵa mıtáj, miynet penen bánt bolmaǵan shaxslar (jumissızlar) sanı miynet resursları sanınan miynet penen bánt bolǵanlar sanın hám ekonomikalıq jaqtan belsendi bolmaǵanlar sanın shıǵarǵan halda tómendegi formula boyınsha anıqlanadı:

U = LR - E - EIP, bunda:

U - jumisqa jaylastırwǵa mıtáj, miynet penen bánt bolmaǵan shaxslar (jumissızlar);

LR - miynet resursları;

E - miynet penen bánt bolǵan puqaralar;

EIP - ekonomikalıq aktiv bolmaǵan xalıq.

WAPM sanı miynetke jaramlı jastaǵı xalıq sanınan (16 jastan 60 jasqa shekemgi er adamlar hám 16 jastan 55 jasqa shekemgi hayal-qızlar) miynetke jaramlı jastaǵı I hám II topar mayıpları, sonday-aq, jeńilletilgen shártlerde pensiya alıp atırǵan miynetke jaramlı jastaǵı shaxslar sanın shıǵarıp taslaw jolı menen anıqlanadı:

WAPM = Mp (16-59) + Wp (16-54) – Ip - PP, bunda:

Mp (16-59) – 16 jastan 60 jasqa shekem bolǵan erkekler;

Wp (16 - 54) - 16 jastan 55 jasqa shekemgi hayal-qızlar;

Ip – miynetke jaramlı jastaǵı I hám II topar mayıpları;

PP – jeńilletilgen shártlerde pensiya alıp atırǵan miynetke jaramlı jastaǵı pensionerler.

Informaciya deregi:

Mp (16 - 59), Wp (16 - 54) - statistika organlarınıń maǵlıwmatları;

Ip – byudjetten tısqarı Pensiya qorı maǵlıwmatları;

PP – byudjetten tısqarı Pensiya qorı maǵlıwmatları.

WTP – statistika uyımları hám byudjetten tısqarı Pensiya qorı maǵlıwmatları.

Miyнет penen bánt bolǵanlar sanı tómendegi formula boyınsha esaplanadı:

E = EOs + EIs + LM, bunda:

Eos - ekonomikanıń rásmiy sektorında miynet penen bántler;

EIs - ekonomikanıń rásmiy emes sektorında miynet penen bántler;

LM - migrant miynetkeshler - shet ellerde miynet etiwdi ámelge asırıp atırǵan Ózbekstan Respublikası puqaraları, shet ellerdegi Ózbekstan Respublikası wákilxanalarında islewshilerden tısqarı.

Informaciya deregi:

Eos - statistika uyımları maǵlıwmatları;

EIs - Bántlik hám miynet qatnasıqları ministrliginiń bántlik máseleleri boyınsha úyreniwler maǵlıwmatları;

LM - ishki isler, bajıxana uyımları hám de miynet uyımları tárepinen bántlik máseleleri boyınsha ótkeriletuǵın úyreniwlerdiń maǵlıwmatları [1].

Xalıqtıń tuwılıw hám ólim procesleri qatnasındaǵı ayırmashılıq onıń tábiyiy kóbeyiwi bolıp tabıladı. Xalıqtıń tábiyiy kóbeyiwi qanday da bir sebeplerge baylanıslı ólgenlerdiń ornın jańadan tuwılǵan xalıq penen, yaǵniy bir áwladtıń ekinshisi menen almasıp, onıń jańalanıp qayta tikleniwi.

Demek, xalıqtıń sanınıń ósiwinde tábiyiy kóbeyiw deregi esaplangan tuwılıwdıń ólimnen joqarı bolıwı úlken áhmiyetke iye. Tuwılıw bolsa, óz gezeginde, ólimshilik dárejesine qararanda iyiliwsheń (elastik) jaǵdayda bolıp, onıń kórsetkishleri bárqulla ózgerip turadı [4].

Jumisqa jaylastırwǵa mıtáj miynet penen bánt bolmaǵan xalıq (jumissızlar) – nızam hújjetlerine muwapıq rásmiy túrde jumissız sıpatında dizimge alınǵan shaxslar, sonday-aq, haqı tólenetuǵın jumisqa yamasa dáramat keltiretuǵın kásipke iye bolmaǵan, óz betinshe jumis izlewshi hám bunday jumis usınıs etilse, jumisqa jaylastırwǵa tayar bolǵan miynetke jaramlı jastaǵı waqtınsha miynet penen bánt bolmaǵan shaxslar;

Rásmiy túrde dizimge alınǵan jumissızlar – 16 jastan pensiya menen támiyinleniw huqıqın alıw jasına shekemgi, miynet uyımlarında jumis izlewshi, islewge, kásip boyınsha tayarlıqtan hám qayta tayarlıqtan ótiwge, qánigeligin arttırıwǵa tayar shaxs sıpatında dizimge alınǵan shaxslar;

Miyнет penen bánt bolǵan puqaralar:

a) *jallanba jumis islep atırǵanlar, sonıń ishinde jumislardı tolıq bolmaǵan jumis waqtı dawamında yamasa úyde miynet haqı alıp atırǵan, sonday-aq, haqı tólenetuǵın basqa jumisqa, sonıń ishinde waqtınsha jumisqa iye bolǵan puqaralar;*

b) *kesellik, dem alıs, qayta tayarlaw, tájiriye arttırıw, óndiristiń toqtap qalıw sebepli, sonday-aq, nızam hújjetlerine muwapıq waqtınsha jumista bolmaǵan xızmetker ushın jumis ornı saqlanıw qalatuǵın basqa jaǵdaylarda jumis ornında waqtınsha bolmaǵan puqaralar;*

v) *haqı tólenetuǵın lawazımǵa saylanǵan yamasa tayınlanǵan puqaralar;*

g) *ózin-ózi jumis penen támiyinleytuǵın puqaralar, sonıń ishinde, isbilermenlik jumısı menen shuǵıllanıwshılar, ózin-ózi bánt etken shaxslar, ónermentler, diyqan xojalıqları, óndiris kooperativleriniń aǵzaları, fermerler, hám nızamshılıqta názerde tutılǵan basqa da jumis túrleri menen shuǵıllanıwshılar;*

d) *Ózbekstan Respublikası Qurallı Kúshlerinde, sonıń ishinde, Ishki isler ministrliǵı, Ayırıqsha jaǵdaylar ministrliǵı, Mámleketlik qáwipsizlik xızmeti, sonday-aq, alternativ xızmetti ótep atırǵan puqaralar.*

e) mámleketlik emes kommerciyalıq emes shólkemlerde, sonıń ishinde óz jumısın nızamshılıqqa muwapıq ámelge asırıp atırǵan diniy shólkemlerde islewshiler;

ekonomikalıq aktiv xalıq – miynet penen bánt bolǵan puqaralar hám jumıssızlar;

ekonomikalıq aktiv emes xalıq – miynet penen bánt dep esaplanbaytuǵın shaxslar, sonıń ishinde:

óndiristen ajralǵan halda bilim alıp atırǵan oqıwshılar hám studentler;

Úy biykeleri hám balalardı kútiw menen bánt bolǵan islemeytuǵın hayallar;

ıqtıyarlı túrde miynet penen bánt bolmaǵan shaxslar;

miynet resursları – miynetke jaramlı jastaǵı miynetke jaramlı xalıq hám de miynetke jaramlı jastan kishi hám úlken jastaǵı miynet penen bánt bolǵan shaxslar;

miynetke jaramlı jastaǵı miynetke jaramlı xalıq – islemeytuǵın birinshi hám ekinshi topar mayıplarınan hám jasına qaray jeńilletilgen shártlerde pensiya alıwshı shaxslardan tısqari, miynetke jaramlı jastaǵı shaxslar (16 jastan 60 jasqa shekemgi er adamlar hám 16 jastan 55 jasqa shekemgi hayal-qızlar);

Miynet resursları balansı – miynet resursları sanı hám quramı bar ekenligin hám de olardıń miynet penen bánt bolǵan puqaralar, jumıssızlar hám ekonomikalıq aktiv bolmaǵan xalıq boyınsha bólistiriliwin kórsetiwshi kórsetkishler sistemasi.

Sol sebepli, xalıqtıń tábiyiy kóbeyiwi tek obyektiv faktorlarga emes, neke-shańaraq qatnasıqları, ózleriniń qálewlerine de baylanıslı. Buǵan misal retinde házirgi kúnde jaslardıń óz shańaraqların sanalı túrde rejlestirip atırǵanlıǵı hám olardıń hár qıylı kontraceptiv qurallardan keńnen paydalanıp atırǵanlıǵın keltiriw múmkin. Bunnan tısqari, tuwılıw dárejesine neke hám ajırasıwlar muǵdarınıń ózgeriwi de úlken tásir etedi. Jas shańaraqlarda turaq jay mashqalası, jasaw ornın ózgeritiwi, sonday-aq, hayal-qızlardıń sociallıq óndiriske keńnen tartılıwı tuwılıw dárejesiniń azayıwına sebep bolatuǵın tiykarǵı faktorlardan biri bolıp esaplanadı. Bunday mashqalalar hám procesler kóp jaǵdaylarda qalalarǵa tán.

Tuwılıw dárejesine tikkeley mámleketiń alıp barıp atırǵan demografiyalıq siyasatı, yaǵnıy xalıq arasında tuwılıwdı tártipke salıw maqsetinde ótkeriletuǵın úgit-

násiyat jumısları, mámlekette tuwılıwdı kóbeytiw yamasa azaytıwǵa qaratilǵan ilajlardıń ámelge asırılıwı da úlken tásir kórsetedi.

Xalıqtıń milliy hám etnikalıq quramı hám úrp-ádetleriniń ózine tán ózgeshelikleri tuwılıw dárejesiniń úlken yáki kishi bolıwında úlken áhmiyetke iye. Máselen, kóplegen xalıqlarda tariyxıy dástúrlerine bola kóp perzent kóriw biykarǵa shekem saqlanıw kelmekte. Bul jaǵday jaqın jıllarǵa shekem mámleketimizdiń jergilikli, ásirrese awıllıq jerlerdiń xalqı ushın tán bolıp kelgen. Biraq, joqarıda keltirilgen faktorlar nátiyjesinde xalıqtıń ósiw pátı biraz páseyip ketti.

B.N.Semevskiydiń atap ótiwinshe, xalıqtıń tuwılıwı hám ólimi tábiyiy nızamlıqlarǵa boysınatuǵın biologiyalıq process. Oǵan bir qansha, máselen, elege shekem tolıq úyrenilmegen urıs jılları fenomenini sıyaqlı faktor da tásir etedi. Bunda, millionlap erkeklerdiń urısqa mobilizaciyanıwı hám olardıń ólimi aqıbetinde xalıqtıń jas-jımı quramında hayallar úlesiniń artıwına alıp keledi. Biraq, onnan keyingi jıllarda erkekler tuwılıwı hayallarǵa qaraǵanda biraz kóp bolıp, bir neshe jıllardan keyin olar arasındaǵı jumıslıq qatnas teńlesip baradı [5].

Juwmaq. Miynet resurslarınıń kóbeyiwinde tuwılıw hám ólim biologiyalıq processler, biraq olarǵa adamlardıń turmıs sharayatı, bilimlendiriw hám urbanizaciya dárejesi, tábiyiy-ekologiyalıq sharayatı, mámleket tárepinen ámelge asırılıp atırǵan demografiyalıq siyasatı, neke hám ajırasıwlardıń kólemi, jaslardıń óz shańaraqların sanalı túrde rejlestiriwi hám olardıń hár qıylı kontraceptiv qurallardan paydalanıwı, hayal-qızlardıń jámiyetlik óndiriske keńnen tartılıwı, xalıqtıń milliy hám etnikalıq quramı, sonday-aq, diniy isenimli hám úrp-ádetleri sıyaqlı bir qatar faktorlar úlken tásir etedi.

Miynet resursları qalay qalıplesiwin anıqlaw ushın biz birinshi, miynet resursların úsh iri jas toparları boyınsha – miynetke jaramlı adamlar, miynetke jaramlı adamlardan jaslaw hám miynetke jaramlı jastan úlken adamlardı, ekinshiden, hár bir topar xalıqtıń sanına, onıń ózgeriwine tásir etiwshi faktorlardı, úshinshiden, miynet resursları hám xalıqtıń tábiyiy hám mexikalıq ózgeriwindegi ulıwma hám ózine tán táreplerin kórip shıǵıwımız kerek.

Ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdaǵı «Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risuda»gi 1011-son Qarori.
2. Embergenov N.J. Qaraqalpaqstan Respublikası xalqınıń ósiwiniń jaylasıwındaǵı ózgeshelikleri. g.i.k. ilimiy dárejesin alıw ushın jazılǵan dissertaciya jumısı. – Tashkent: 2011.
3. Muminov D.G. Xalıqtıń geografıyası hám demografiya tiykarları. (oqıw qollanba) – Tashkent: (б.и) 2001.
4. Xodjaeva G.A., Embergenov N.J., Qaraqalpaqstan Respublikası demografiyası. – Nókis: 2021.
5. Soliyev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. – Toshkent: «Universitet», 2019.
6. Максакова Л.П. Миграция населения. – Тошкент: «Ўзбекистан», 1987.
7. Во‘rieva M.R., Tojıeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografıyası va demografiya asoslari. – Toshkent: «Tafakkur», 2011.
8. Utepova G.B. Mustaqillikning dastlabki davrida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq joylarining demografik rivojlanishi va mehnat resurslari muammolari. (Monografiya) – Nukus: «Ilimpaz», 2025.
9. Мулладжанов И.Р. Демографическое развитие Узбекской ССР. – Тошкент: «Фан», 1983.

**BUXORO VILOYATI YO‘LBO‘YI LANDSHAFTLARI VA ULARDAN
FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI**

Halimova Gulshan Subhonovna – *geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
g.s.halimova@buxdu.uz

Qalandarova Dilobar Davronovna – *tayanch doktorant*
dilobardavronova7@gmail.com

Nuriddinov Rajabmirzo Maxsud o‘g‘li – *magistrant*
rajabmirzon19@gmail.com

Odilova Xurshida Ortiq qizi – *talaba*
Buxoro davlat universiteti

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИДОРОЖНЫХ ЛАНДШАФТОВ БУХАРСКОЙ
ОБЛАСТИ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ**

Халимова Гульшан Субхоновна – *доктор философии по географическим наукам, доцент*

Каландарова Дилобар Давроновна – *базовый докторант*

Нуриддинов Раджабмирзо Махсудович – *магистрант*

Одилова Хуршида Ортиковна – *студент*
Бухарский государственный университет

**THE CURRENT STATE OF ROADSIDE LANDSCAPES IN BUKHARA REGION
AND THEIR UTILIZATION**

Halimova Gulshan Subhonovna – *Doctor of Philosophy in Geography, Associate Professor*

Kalandarova Dilobar Davronovna – *doctoral student*

Nuriddinov Rajabmirzo Maxsudovich – *master's student*

Odilova Khurshida Ortiqovna – *student*
Bukhara State University

Tayanch so‘zlar: landshaft, yo‘lbo‘yi landshaftlari, avtomagistral, bioxilma-xillik, ekologik muammo, ko‘kalamzorlashtirish.

Rezyume. Mazkur maqolada Buxoro viloyatining yo‘l va yo‘lbo‘yi landshaftlari va ulardan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilingan. Tadqiqotda A379, A380 va M37 xalqaro avtomobil yo‘llari misolida yo‘lbo‘yi landshaftlarining shakllanishi, ularning tabiiy-geografik xususiyatlari hamda va ekologik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur hududlarda yo‘lbo‘yi infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xizmat ko‘rsatish tizimidagi kamchiliklar va ekologik muammolar aniqlangan. Maqolada yo‘lbo‘yi landshaftlarini samarali tashkil etish, ko‘kalamzorlashtirish va bioxilma-xillikni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish, transport geografiyasi va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ключевые слова: ландшафт, придорожные ландшафты, автомагистраль, биоразнообразия, экологическая проблема, озеленение.

Резюме. В данной статье проанализировано современное состояние дорожных и придорожных ландшафтов Бухарской области, а также их использование. В исследовании на примере международных автомобильных дорог А379, А380 и М37 рассмотрены процессы формирования придорожных ландшафтов, их природно-географические особенности и экологическое значение. Кроме того, выявлены недостаточный уровень развития придорожной инфраструктуры, проблемы в системе обслуживания и существующие экологические трудности в данных районах. В статье также разработаны научно обоснованные рекомендации по эффективной организации придорожных ландшафтов, озеленению и повышению биоразнообразия. Результаты исследования имеют важное значение для регионального развития, транспортной географии и обеспечения экологической устойчивости.

Key words: landscape, roadside landscapes, highway/motorway, biodiversity, environmental problem, greening.

Summary. This article analyzes the current state of road and roadside landscapes in the Bukhara region and their utilization. The study examines the formation of roadside landscapes using the examples of the international highways A379, A380, and M37, highlighting their natural-geographical characteristics as well as their ecological significance. Furthermore, the research identifies insufficient development of roadside infrastructure in these areas, shortcomings in service systems, and existing environmental problems. The article also provides scientifically grounded recommendations for the effective organization of roadside landscapes, greening, and increasing biodiversity. The results of the study are of significant importance for regional development, transport geography, and ensuring environmental sustainability.

Kirish. Hozirgi kunda transport infratuzilmasining rivojlanishi hududlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, cho‘l hududlarida joylashgan Buxoro viloyatida avtomobil yo‘llari nafaqat transport aloqalarini ta‘minlaydi, balki

yo‘lbo‘yi landshaftlarining shakllanishi va ulardan samarali foydalanishga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro ahamiyatga ega A379, A380 va M37 avtomobil yo‘llari orqali turizm, savdo va hududlararo aloqalar tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda yo‘lbo‘yi landshaftlarini



ilmiy asosda o'rganish, ularning ekologik barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu sababli Buxoro viloyati yo'lbo'yi landshaftlari va ulardan foydalanishning hozirgi holatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Landshaft" so'zi aslida nemischa bo'lib, ("land" - "yer" va "shaft" - o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni aks ettiruvchi suffiks), umumadabiy tilda manzara, joyning ko'rinishi, degan ma'noni anglatadi. Landshaft atamasi geografiyaga dastavval deyarli bir vaqtda A.A.Borzov, L.S.Berg, I.M.Krashennikov, L.F.Morozovlarning ilmiy ishlari orqali tabiiy geografik kompleks so'zining sinonimi sifatida kirib keldi. N.A.Solntsev landshaftni asosiy geografik birlik deb qaraydi va geologik tuzilishi, relyef shakllari, yer osti va usti suvlari, mikroiklim, tuproq xillari, fito va zoosenozlari o'zaro bog'liq bo'lgan birikmalari qonuniy va tipik qaytalanib turadigan genetik jihatdan bir butun hududni landshaft deb ataydi. A.G.Isachenko (1991) quyidagicha ta'riflaydi: "Landshaft-mahalliy ko'lamda geotizimlarning o'ziga xos yig'indisidan iborat bo'lib, o'zining zonal va azonal belgilari bo'yicha bir butun hamda genetik jihatdan yaxlit geotizimdir" [1]. Mana shu yaxlit geotizim ichida inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan yo'l va yo'lbo'yi landshaftlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yo'lbo'yi landshafti - yer usti yo'llariga tutash bir necha o'n metrdan bir necha yuz metrgacha bo'lgan tabiiy-antropogen landshaftdir. Bunday landshaftlar tadqiqotchilar tomonidan "chiziqli" landshaftlar deb tilga olinadi [4]. Tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda, Buxoro viloyatida xalqaro ahamiyatga ega yo'llar va yo'lbo'yi landshaftlari jami 540 kilometrni tashkil qiladi. Ayni paytda mazkur landshaftlar geografik nuqtayi nazardan tadqiq qilinmagan.

Hozirgi davrga qadar Buxoro viloyati landshaftlari va ularning resurslarini o'rganish bo'yicha turli darajali izlanishlar olib borilgan. Bu borada ayniqsa, L.S.Berg (1913), R.I.Abolin (1929), N.L.Korjenskii (1960), V.M.Chetirkin (1960), T.V.Zvonkova (1962, 1965), P.G'ulomov (1966), M.Umarov, (1967), I.Q.Nazarov, (1971-2007), M.P.Petrov (1973), L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1975, 1982), P.Barotov (1977), B.A.Fedorovich (1983), Y.B.Rahmatov (1984), U.Nurov (1990), A.G.Babayev (1995), X.R.Toshov (2008), A.M.Mavlonov (2010), G.S.Halimova (2020), I.E.Mirzoyeva (2025), D.D.Qalandarova kabi tadqiqotchilarning xizmatlari katta. Mazkur tadqiqotlar bo'yicha izlanuvchilar tomonidan umumlashmalar qilingan.

Natijalar va muhokama. Buxoro viloyati yo'l va yo'lbo'yi landshaftlari borasida hanuzgacha geografik tadqiqotlar amalga oshirilmaganligini inobatga olib, Buxoro viloyatining xalqaro ahamiyatga molik A379, A380, M37 avtomobil yo'llari tadqiqot objekti sifatida tanlangan.

Ko'p hollarda zamonaviy transport yo'llari tarixiy savdo yo'nalishlari asosida shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, tadqiqotimiz objekti sanalgan M37 va A380 xalqaro avtomagistralari ham qadimgi Buyuk Ipak yo'li negizida bugungi ko'rinishiga kelgan (1-rasm).



1-rasm. Buyuk Ipak yo'li va uning zamonavi yo'nalishi - A380, M37 avtomobil yo'llarining O'zbekistondagi qismi.

Yo'llar mamlakat iqtisodiyotining qon tomirlaridir. Yo'l va yo'lbo'yini hudud tabiiy sharoiti va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib oqilona tashkil etish, iqtisodiyotni to'g'ri tashkil etishning dastlabki bosqichlaridan biridir.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida Buxoro shahri bilan tog'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar mavjud emas. Bu holat xorijiy sayyohlarning bir qismini Samarqand yoki Toshkent orqali ayniqsa, avtomobil qatnoviga undaydi. Xorazm viloyatiga tashrif buyuruvchilar ham Buxoro orqali bog'lanadi bu esa, o'z-o'zidan xalqaro ahamiyatga molik M37 va A380 avtomobil yo'llaridan foydalanish sonini oshiradi. M37 va A380 avtomobil yo'lbo'yi landshaftlari va infratuzilmasi esa, sayyohlar uchun qoniqarli darajada emas.

Yo'llar hududlarni bog'lovchi ko'prik bo'libgina qolmay, yo'lbo'yi landshaftlarini yaratuvchi omil, shuningdek, rekratsion resurs sifatida qaralishi lozim. Jahon standartlari, jumladan, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) ga ko'ra, dam olish joylari orasidagi masofa 15-25 km, xizmat ko'rsatish joylari orasidagi masofa esa, 30-50 km bo'lishi belgilangan [2]. Saudiya Arabistonida avtomagistralar bo'ylab dam olish zonolari uch toifaga ajratilgan. Har bir dam olish zonasi orasidagi masofa 60 daqiqalik yo'l vaqtidan oshmasligi lozim. Shuningdek, dam olish va xizmat ko'rsatish joylarida qanday xizmatlar taqdim etilishi ham qayd etib o'tilgan [5].

Yo'lbo'yi landshaftlarini o'rganish faqat estetik masala bo'lib qolmay, balki ekologik barqarorlik, transport xavfsizligi, iqlim moslashuvi va hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liq kompleks ilmiy yondashuvni taqazo etadi. Yo'lbo'ylarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, madaniy landshaftlarni barpo etish hamda yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish orqali shamol eroziyasi va chang ko'tarilishi kamayadi, ba'zi ijtimoiy masalalar hal qilinadi, mikroiklim vujudga keladi, yo'lovchilarga estetik zavq bag'ishlaydi, bioxilma-xillik oshadi, zaharli gazlarning atrof-muhitga tarqalishi biroz bo'lsada kamayadi.

Buxoro viloyati avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 4100 km dan oshadi (1-jadval). Hududining qariyb 90 % i bepoyon cho'llardan iborat. Ushbu cho'llarda jami 18 ta tip va kichik tipiga xos landshaftlardan xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llari kesib o'tgan [3]. Ushbu cho'llar tuproqlarining mexanik tarkibi, fauna va flora dunyosi bilan bir-biridan farqlanib turadi.

1-jadval. Buxoro viloyati avtomobil yo'llarining uzunligi


| Avtomobil yo'llari | Yo'lning uzunligi, km |
|---------------------------|-----------------------|
| Xalqaro ahamiyatga molik | 540 |
| Davlat ahamiyatiga molik | 1155 |
| Mahalliy ahamiyatga molik | 2406 |
| Jami | 4101 |

Manba: Buxoro viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi.

A379 avtomobil yo'li tog' oldi prolyuvial tekisliklardagi gipsli cho'l va tub tog' jinsi eol tekisliklardagi qumli cho'l landshaftlari orqali o'tadi. A380 avtomobil yo'li esa, allyuvial delta va qadimiy allyuvial tekisliklardagi gilli, qumli va gipsli cho'llar, qoldiq qirli tekisliklardagi chag'ir toshli cho'l, ko'l tekisliklardagi sho'rxok cho'l, tub tog' jinsi eol tekisliklardagi gipsli cho'l hamda sug'oriladigan yer va seliteb landshaftlardan o'tadi. M37 avtomagistrali asosan, sug'oriladigan yer va seliteb landshaftlar va tub tog' jinsi eol tekisliklardagi qumli cho'l landshaftlarini kesib o'tgan (2-rasm).

Adabiyotlar

1. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. – Toshkent: «Turon zamin ziyoli», 2016.
2. United Nations Economic Commission for Europe. TEM Standards and Recommended Practice. – Warsaw: TEM Project Central Office, 2002.
3. Попов В.А., Закиров Ш.С. Физико-географическое районирование [Карта]. Масштаб 1:3 500 000. Географический атлас Узбекистана. – Ташкент: 2012.
4. Милков Ф.Н. Человек и ландшафты. Очерки антропогенного ландшафтоведения. – Москва: «Мысль», 1973.
5. <https://www.arabnews.com/saudi-arabia/news/661671>



2- rasm. Buxoro viloyati A379, A380, M37 yo'llarining yo'lbo'yi landshaftlari.

Viloyat jami xalqaro avtomobil yo'llari kesib o'tgan landshaftlarning 65% ga yaqin qismi cho'l-yaylovlar bilan band. Jumladan, M37 avtomagistrali kesib o'tgan landshaftlardan foydalanish A379 va A380 avtomobil yo'llariga qaraganda yuqori salmoqqa ega. Ushbu yo'lning 90% i sug'oriladigan va seliteb landshaftlardan, qolgan 10% i esa, qumli cho'llarni kesib o'tadi. Bu esa, avtomagistralning cho'l-voha qismidan o'tganligi bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligidagi ahamiyatiga ko'ra, asosan, chorvachilikda foydalaniladi.

Xulosa. Yo'lbo'ylarida iqlimga mos, bardoshli va kam parvarish talab o'simliklar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Viloyat iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda, voha qismida chinni gujum, manzarali tut, yapon saforasi, ayland, chinor kabi arid iqlimga moslashuvchan daraxtlarni ekish maqsadga muvofiq.

Viloyatning cho'l qismida yo'lbo'ylari uchun iloq, singren, shuvoq, qandim, saksovol kabi kserofit o'simliklar turini ko'paytirish yo'lbo'yi landshaftlari bioxilma-xilligini boyitadi.

YER RESURLARIDAN IQTISODIYOT TARMOQLARIDA FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

dnavotova@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

**ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ
В ЭКОНОМИЧЕСКИХ СЕКТОРАХ**

Навотова Дильноза Ибрагимовна – *доктор философии по географическим наукам, доцент*

Шахрисабзский государственный педагогический институт

**FOREIGN EXPERIENCE OF USING LAND RESOURCES
IN ECONOMIC SECTORS**

Navotova Dilnoza Ibrogimovna – *doctor of Philosophy in Geography, Associate Professor*

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Tayanch soʻzlar: yer resurslari, iqtisodiy-geografik yondashuv, hududiy tashkil etish, iqtisodiy rayonlashtirish, yer fondi, hududiy differentsiallashuv, yer kadastr, infratuzilma, agrohududiy tizim, yer samaradorligi, ekologik barqarorlik, hududiy rivojlanish

Rezyume. Mazkur ilmiy maqolada yer resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish jarayonlari iqtisodiy geografik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda turli mamlakatlar tajribasi misolida yer resurslarining hududiy taqsimlanishi, tabiiy-iqtisodiy salohiyati hamda ularning qishloq xoʻjaligi, sanoat, transport va xizmat koʻrsatish tarmoqlarida joylashuv xususiyatlariga taʼsiri oʻrganiladi. Shuningdek, yer resurslaridan foydalanishda hududiy differentsiallashuv, iqtisodiy rayonlashtirish, infratuzilma omillari va ekologik cheklolarning roli ochib beriladi. Rivojlangan davlatlarda yer boshqaruvi, hududiy rejalashtirish va raqamli kadastr tizimlari orqali yer resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Ключевые слова: земельные ресурсы, экономико-географический подход, территориальная организация, экономическое зонирование, земельный фонд, территориальная дифференциация, земельный кадастр, инфраструктура, агротерриториальная система, эффективность использования земель, экологическая устойчивость, территориальное развитие

Резюме. В данной научной статье анализируются процессы использования земельных ресурсов в различных секторах экономики на основе экономико-географического подхода. Исследование рассматривает территориальное распределение земельных ресурсов, природного и экономического потенциала, а также их влияние на характеристики их размещения в сельскохозяйственном, промышленном, транспортном и сервисном секторах на примере различных стран. Также раскрывается роль территориальной дифференциации, экономического зонирования, инфраструктурных факторов и экологических ограничений в использовании земельных ресурсов. В развитых странах анализируются механизмы эффективного использования земельных ресурсов посредством землепользования, территориального планирования и цифровых кадастровых систем.

Key words: land resources, economic-geographical approach, territorial organization, economic zoning, land fund, territorial differentiation, land cadastre, infrastructure, agro-territorial system, land efficiency, ecological sustainability, territorial development

Summary. This scientific article analyzes the processes of land resource use in economic sectors based on an economic-geographical approach. The study examines the territorial distribution of land resources, natural and economic potential, and their impact on the characteristics of their location in the agricultural, industrial, transport, and service sectors using the experience of different countries. It also reveals the role of territorial differentiation, economic zoning, infrastructure factors, and environmental constraints in the use of land resources. In developed countries, mechanisms for the effective use of land resources through land management, territorial planning, and digital cadastral systems are analyzed.

Kirish. Yer resurslari iqtisodiy geografiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri boʻlib, ular hududiy ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish va hududiy rivojlanish darajasini belgilashda asosiy omil sifatida namoyon boʻladi. Yer – bu nafaqat tabiiy resurs, balki ishlab chiqarish vositasi sifatida qishloq xoʻjaligi, sanoat, transport va xizmat koʻrsatish sohalarining hududiy tashkil etilishida hal qiluvchi rol oʻynaydi. Iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan qaralganda, yer resurslarining sifati, miqdori, joylashuvi va ulardan foydalanish intensivligi hududlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni shakllantiradi. Ayniqsa, global miqyosda yer resurslariga boʻlgan bosimning ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda ekologik muammolarning kuchayishi yer fondidan oqilona va

samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan, yer resurslarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni iqtisodiyot tarmoqlari kesimida hududiy jihatdan optimallashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, yer resurslaridan samarali foydalanish koʻp jihatdan hududiy rejalashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish, yer kadastr tizimi va infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Rivojlangan davlatlarda yer fondini boshqarish integratsiyalashgan yondashuv asosida amalga oshirilib, bunda iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy manfaatlar oʻrtasidagi muvozanat taʼminlanadi. Xususan, agroklastlar, sanoat zonalari va logistika markazlarini hududiy joylashtirishda yer

resurslarining tabiiy-iqtisodiy salohiyati chuqur tahlil qilinadi va raqamli texnologiyalar asosida monitoring olib boriladi. Mazkur ilmiy maqolada aynan shu jihatlar iqtisodiy-geografik yondashuv asosida tahlil qilinib, yer resurslaridan foydalanishning xorijiy tajribasi umumlashtiriladi hamda ularni milliy sharoitga moslashtirishning ustuvor yoʻnalishlari asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Yer resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish masalalari iqtisodiy geografiya fanida muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri sifatida koʻplab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, hududiy rivojlanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyasida Alfred Weber tomonidan ilgari surilgan sanoatni joylashtirish modeli yer resurslarining transport xarajatlari, mehnat omillari va bozor bilan oʻzaro bogʻliqligini asoslab bergan [1]. Shuningdek, Johann Heinrich von Thünenning qishloq xoʻjaligini joylashtirish modeli yer unumdorligi, masofa va iqtisodiy foyda oʻrtasidagi hududiy qonuniyatlarni ochib beradi [6]. Ushbu klassik nazariyalar yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy-geografik asoslarini shakllantirib, zamonaviy tadqiqotlar uchun metodologik poydevor vazifasini oʻtaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yer resurslaridan foydalanish masalalari yanada kompleks yondashuv asosida koʻrib chiqilmoqda. Jumladan, Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasida hududiy resurslardan, xususan yer resurslaridan samarali foydalanish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi [7]. Shuningdek, Edward W. Soja va David Harvey kabi olimlar hududiy rivojlanishda ijtimoiy va fazoviy tengsizliklar muammosini tahlil qilib, yer resurslarining notekis taqsimlanishi iqtisodiy tafovutlarning asosiy sabablaridan biri ekanligini taʼkidlaydilar [2, 4]. Bu yondashuvlar yer resurslaridan foydalanishda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy adolat va hududiy muvozanatni ham hisobga olish zarurligini koʻrsatadi.

Soʻnggi yillarda yer resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari institutsional va innovatsion yondashuvlar asosida oʻrganilmoqda. Xususan, Hernando de Soto tomonidan ilgari surilgan mulk huquqlarini mustahkamlash konsepsiyasi yer resurslaridan samarali foydalanishda huquqiy tizimning ahamiyatini asoslab beradi [3]. Bundan tashqari, Food and Agriculture Organization hamda World Bank tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yer kadastr tizimini raqamlashtirish, yer monitoringi va barqaror yer boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikka erishish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu ilmiy qarashlar yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirishda kompleks, tizimli va iqtisodiy-geografik yondashuvning zarurligini koʻrsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda yer resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish jarayonlarini oʻrganishda iqtisodiy geografik yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida hududiy tahlil, qiyosiy-geografik, tizimli va kompleks yondashuv usullaridan keng foydalanildi. Xususan, turli mamlakatlar tajribasini oʻzaro solishtirish orqali yer resurslaridan foydalanishning samaradorlik darajasi, ularning tarmoqlar kesimidagi taqsimlanishi

hamda hududiy differensiallashuv xususiyatlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, statistik maʼlumotlarni tahlil qilish, dinamik qatorlar asosida baholash va iqtisodiy-geografik rayonlashtirish usullari yordamida yer fondining tarkibiy oʻzgarishlari va ulardan foydalanish intensivligi oʻrganildi. Tadqiqotda yer resurslarining tabiiy-iqtisodiy salohiyati, infratuzilma taʼminoti va ekologik omillar bilan oʻzaro bogʻliqligi ham kompleks tahlil qilindi.

Bundan tashqari, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda iqtisodiy-statistik usullar, indekslash va integrallashgan baholash metodlari qoʻllanilib, turli hududlar kesimida solishtirma tahlil amalga oshirildi. Xorijiy tajribani oʻrganishda institutsional tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar sharhi hamda ilgʻor amaliyotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini taʼminlab, yer resurslaridan foydalanishni hududiy tashkil etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish boʻyicha aniq ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar. Yer resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha hududiy taqsimlanishi iqtisodiy-geografik jarayonlarning muhim tarkibiy qismi boʻlib, u har bir hududning tabiiy sharoiti, resurs salohiyati va ixtisoslashuv darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir [10]. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, yer fondining tarmoqlar kesimidagi taqsimlanishi avvalo agroiklimiy sharoitlar, yer unumdorligi va suv resurslari bilan belgilanadi. Masalan, rivojlangan agrar mamlakatlarda qishloq xoʻjaligi yerlari yuqori unumdor hududlarda jamlangan boʻlib, intensiv dehqonchilik usullari asosida foydalaniladi. Shu bilan birga, sanoat va xizmat koʻrsatish tarmoqlari koʻproq transport infratuzilmasi rivojlangan, bozorlar va aholi punktlariga yaqin hududlarda joylashadi, bu esa yer resurslaridan foydalanishda hududiy differensiallashuvni yuzaga keltiradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori darajada boʻlib, bunda ilmiy asoslangan hududiy rejalashtirish va iqtisodiy rayonlashtirish muhim rol oʻynaydi. Xususan, qishloq xoʻjaligida yer maydonlaridan maksimal darajada foydalanish uchun zamonaviy agrotexnologiyalar, sugʻorish tizimlari va raqamli monitoring vositalari keng joriy etilgan [9]. Natijada, bir birlik yer maydonidan olinadigan hosildorlik va iqtisodiy foyda sezilarli darajada oshadi. Sanoat tarmoqlarida esa yer resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish obyektlarini optimal joylashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va ekologik talablarni hisobga olish orqali taʼminlanadi. Bu esa hududiy ishlab chiqarish tizimlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribada yer resurslaridan foydalanishda xizmat koʻrsatish sohasi, ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlari bilan bogʻliq holda jadal rivojlanmoqda. Yirik shaharlarda yer resurslaridan koʻp funksiyali foydalanish, yaʼni bir hududda turar joy, savdo, transport va rekreatsiya obyektlarini integratsiyalashgan holda joylashtirish keng qoʻllanilmoqda. Bu yondashuv yer maydonlaridan samarali foydalanish bilan birga iqtisodiy faollikni oshiradi va hududiy rivojlanishni jadallashtiradi. Shu bilan birga, yer resurslaridan foydalanishda ekologik omillarni hisobga olish, yashil hududlarni saqlash va atrof-muhit

muvozanatini ta'minlash rivojlangan mamlakatlarda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi [12].

Umuman olganda, xorijiy tajriba yer resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha hududiy taqsimlanishi va undan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan kompleks yondashuvga asoslanishini ko'rsatadi. Bunda tabiiy geografik sharoitlar, iqtisodiy manfaatlar, infratuzilma rivoji va institutsional mexanizmlar o'zaro uyg'un holda amal qiladi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish natijasida hududlar ixtisoslashuvi kuchayadi, iqtisodiy samaradorlik ortadi va hududiy rivojlanish muvozanatlashadi [11]. Ushbu yondashuvlar yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlil. AQSh tajribasida yer resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha foydalanish yuqori darajada ixtisoslashgan va hududiy jihatdan aniq differensiallashgan [5]. Masalan, mamlakatning O'rta G'arb (Midwest) hududlarida unumdor qora tuproqlar asosida makkajo'xori va soya yetishtirishga ixtisoslashgan "Corn Belt" mintaqasi shakllangan bo'lsa, Kaliforniya vodiysida sug'orishga asoslangan intensiv bog'dorchilik va sabzavotchilik rivojlangan. Sanoat tarmoqlarida esa yer resurslari transport-logistika imkoniyatlariga mos ravishda joylashtirilgan bo'lib, yirik sanoat markazlari temiryo'l va avtomobil yo'llari tugunlarida joylashgan [8]. Natijada, yer resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib, har bir hudud o'zining tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga mos ravishda ixtisoslashgan.

Germaniya tajribasida yer resurslaridan foydalanish hududiy rejalashtirish va qat'iy normativ boshqaruv asosida amalga oshiriladi. Bu mamlakatda yer fondi qat'iy zonalariga ajratilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va rekreatsiya hududlari aniq chegaralangan. Masalan, Bavariya va Quyi Saksoniya hududlarida qishloq xo'jaligi yerlaridan yuqori samaradorlik bilan foydalanish uchun zamonaviy agrotexnologiyalar va intensiv chorvachilik tizimlari joriy etilgan. Shu bilan birga, sanoat korxonalarini ekologik talablar asosida maxsus sanoat zonalarida joylashtiriladi. Bu yondashuv yer resurslaridan ortiqcha bosimni kamaytirib, ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Niderlandiya tajribasi yer resurslaridan samarali foydalanishning eng ilg'or namunalaridan biri hisoblanadi. Mamlakat hududining katta qismi dengiz sathidan past bo'lishiga qaramay, polder tizimi orqali yangi yer maydonlari o'zlashtirilgan va intensiv qishloq xo'jaligi rivojlantirilgan. Ayniqsa, issiqxona xo'jaligi (greenhouse agriculture) orqali cheklangan yer maydonlaridan maksimal darajada iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Bundan tashqari, yer resurslari transport va logistika tizimlari bilan integratsiyalashgan bo'lib, Rotterdam porti atrofida yirik sanoat va logistika markazlari shakllangan. Bu esa yer resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yuqori darajada samarali taqsimlanishini ta'minlaydi.

Yaponiya tajribasida esa yer resurslarining cheklanganligi ularni maksimal darajada samarali va intensiv foydalanishni taqozo etgan. Mamlakatda qishloq xo'jaligi yerlarining kamligi sababli tog' yonbag'irlarida teraslashgan dehqonchilik keng rivojlangan. Shahar

hududlarida esa yer resurslaridan ko'p qavatli va ko'p funksiyali foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bir hududda turar joy, sanoat va xizmat ko'rsatish obyektlari uyg'unlashgan. Sanoat tarmoqlari asosan qirg'oqbo'yi hududlarida joylashtirilib, import xomashyoga yaqinlik va eksport imkoniyatlari hisobga olingan. Natijada, yer resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib, hududiy cheklavlarga qaramay iqtisodiy rivojlanish barqaror ta'minlangan.

Yer resurslaridan foydalanishda tabiiy-geografik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, xorijiy davlatlar tajribasi bu bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi. Masalan, Kanadada qishloq xo'jaligi faoliyati asosan janubiy kengliklarda, unumdor tuproqlar va qulay agroiklimiy sharoit mavjud hududlarda rivojlangan bo'lsa, shimoliy hududlar asosan o'rmon xo'jaligi va tabiiy resurslarni qazib olishga ixtisoslashgan. Xuddi shuningdek, Avstraliyada qurg'oqchil iqlim sharoiti sababli yer resurslaridan foydalanish chorvachilikka yo'naltirilgan bo'lib, sug'oriladigan hududlarda esa intensiv dehqonchilik rivojlangan. Bu holatlar yer resurslarining tabiiy sharoit bilan uzviy bog'liqligini hamda iqtisodiyot tarmoqlarining hududiy ixtisoslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Infratuzilma omili yer resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi muhim iqtisodiy-geografik determinantlardan biri hisoblanadi. Masalan, Germaniyada rivojlangan transport tarmoqlari, logistika markazlari va kommunikatsiya tizimlari yer resurslaridan sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida yuqori samaradorlik bilan foydalanish imkonini yaratgan. Ayniqsa, Reyn-Rur sanoat hududida ishlab chiqarish obyektlarining joylashuvi transport tugunlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Koreya Respublikasi tajribasida ham infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi yer resurslaridan intensiv foydalanish, texnoparklar va sanoat zonalarini samarali joylashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yer resurslari va infratuzilma o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Bozor omili, ya'ni iste'mol markazlariga yaqinlik ham yer resurslaridan foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Fransiyada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yirik shaharlar va eksport yo'nalishlariga yaqin hududlarda yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu yerda intensiv dehqonchilik va chorvachilik tizimlari shakllangan. Parij havzasi atrofidagi hududlarda yer resurslaridan foydalanish yuqori darajada samarali bo'lib, transport xarajatlarining pastligi va bozor yaqinligi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, Xitoyning sharqiy qirg'oq hududlarida yer resurslaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lib, bu hududlarda sanoat, xizmat ko'rsatish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlari jamlangan. Bu holat bozor omilining yer resurslaridan foydalanishga bevosita ta'sirini tasdiqlaydi.

Institutsional muhit, ya'ni yerga egalik shakllari, davlat siyosati va boshqaruv tizimi ham yer resurslaridan foydalanishda muhim o'rin tutadi. Masalan, Niderlandiyada yer resurslarini boshqarish yuqori darajada markazlashgan va ilmiy asoslangan bo'lib, yer kadastri, rejalashtirish va monitoring tizimlari mukammal yo'lga qo'yilgan. Bu esa yer resurslaridan yuqori samaradorlik bilan foydalanish

imkonini beradi. Shuningdek, Singapurda yer resurslarining cheklanganligi sharoitida davlat tomonidan qat'iy rejalashtirish va ko'p funksiyali foydalanish siyosati amalga oshiriladi. Natijada, yer resurslaridan maksimal darajada iqtisodiy foyda olinadi. Umuman olganda, yuqoridagi omillar o'zaro uzviy bog'langan holda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilaydi va xorijiy tajriba bu jarayonning kompleks xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida ham yer resurslaridan foydalanish iqtisodiy-geografik omillar uyg'unligiga bevosita bog'liq ekanligi kuzatiladi. Respublikaning tabiiy-iqlimiy sharoiti, xususan, sug'oriladigan dehqonchilikka mos hududlarning mavjudligi qishloq xo'jaligi yerlarining asosan voha va daryo vodiylarida jamlanishiga olib kelgan. Shu bilan birga, infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi sanoat va xizmat ko'rsatish obyektlarining hududiy joylashuvini belgilab bermoqda, ya'ni transport yo'llari va yirik shaharlarga yaqin hududlarda yer resurslaridan foydalanish intensivligi yuqori. Bozor omili ham muhim bo'lib, aholi zich joylashgan va iste'mol bozorlari shakllangan hududlarda yer resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq institutsional muhitni yanada takomillashtirish, yer kadastr va raqamlashtirish tizimlarini rivojlantirish, shuningdek hududiy rejalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – hududiy rejalashtirish va yer taqsimotini optimallashtirishdir. Xorijiy mamlakatlar tajribasida, masalan, Germaniya va Niderlandiyada yer resurslari qat'iy zonalarga ajratilib, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish hududlari aniq belgilangan. Bu yondashuv yer resurslaridan ortiqcha bosimni kamaytirib, hududiy ixtisoslashuvni oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham hududiy rejalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlarini tabiiy-iqtisodiy sharoitga mos joylashtirish amaliyoti ustuvor yo'nalish sifatida e'tiborga olinishi lozim.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – yer resurslarini raqamlashtirish va monitoring qilish tizimlarini joriy etishdir. Xorijiy tajribada, xususan, Kanada va Avstraliyada GIS texnologiyalari va kadastr ma'lumotlari asosida yer maydonlarining holati, unumdorligi va tarmoqlar kesimidagi taqsimlanishi doimiy ravishda kuzatiladi. Bu yer

resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham raqamli kadastr tizimini rivojlantirish, yer monitoringini muntazam olib borish va hududiy statistika bazalarini yagona tizimga birlashtirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Uchinchi yo'nalish – innovatsion va institutsional yondashuvlarni kuchaytirishdir. Xorijiy mamlakatlarda, masalan, Singapur va Niderlandiyada yer resurslaridan ko'p funksiyali va integratsiyalashgan foydalanish tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajada oshiradi. Shuningdek, huquqiy institutlar va davlat siyosati yer resurslarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham yerga egalik huquqlarini mustahkamlash, hududiy rejalashtirishni institutlashtirish va innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish orqali yer resurslaridan foydalanish tizimi samaradorligini oshirish va xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish imkoniyati mavjud.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yer resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlarida samarali foydalanish iqtisodiy geografik yondashuv asosida amalga oshirilgandagina yuqori natijadorlikka erishish mumkin. Xorijiy mamlakatlar tajribasi yer resurslarining hududiy taqsimlanishi, tarmoqlar kesimidagi ixtisoslashuvi va ulardan foydalanish samaradorligi tabiiy geografik sharoitlar, infratuzilma rivoji, bozor omillari hamda institutsional boshqaruv tizimlari bilan uzviy bog'liq ekanligini yaqqol namoyon etdi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda hududiy rejalashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish, raqamli kadastr tizimlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yer resurslaridan kompleks va barqaror foydalanish mexanizmlari shakllangan bo'lib, bu iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida ham yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish uchun xorijiy tajribani moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, hududiy rejalashtirishni kuchaytirish, yer kadastr va monitoring tizimlarini raqamlashtirish, yer resurslaridan ko'p funksiyali foydalanish tamoyillarini joriy etish hamda institutsional-huquqiy bazani mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, yer resurslaridan oqilona foydalanish orqali hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati kengayadi. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Alfred Weber. *Kulturgeschichte als Kultursoziologie*. – Leiden: A.W.Sijthoff, 1935.
2. Edward W. Soja. *Postmodern Geographies: The Reassertion of Space in Critical Social Theory*. – London: «Verso Books», 1989.
3. Hernando de Soto. *The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else*. – New York: «Basic Books», 2000.
4. David Harvey. *The Condition of Postmodernity*. – Oxford: «Blackwell», 1989.
5. Болотова Ю. Поддержка сельскохозяйственных товаропроизводителей в США. // ФПК: экономика, управление, №1, 2004. – С. 37.
6. Johann Heinrich von Thünen. *The Isolated State*. Translated edition. – Oxford: «Pergamon Press», 1966.
7. Michael E. Porter. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: «Free Press», 1990.
8. Матусевич В.А. Фермерство и сельскохозяйственная кооперация в США. – Москва: «Знание», 1991.

9. Faizullaev M.A. Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 4(2), 2023. – P. 89-92.
10. Faizullaev M.A. Factors of intensive development of agriculture in ensuring food security. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 4(1), 2023. – P. 715-719.
11. Fayzullaev M.A. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi geografiyasi. Monografiya. – Toshkent: «Kitob bilim yog‘dusi», 2024.
12. Navotova D.I. Qashqadaryo viloyati yer resurslaridan qishloq xo‘jaligida foydalanishning iqtisodiy geografik xususiyatlari - geog. fan. fals. dokt...diss.avtoref, 2024.
13. Navotova D.I. Qashqadaryo viloyati yer resurslari. Monografiya. – Toshkent: «Makon savdo print», 2024.

UDK 911.3:711.4 (575.172)

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI HUDUDINI SHAHARLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA TABIIY-XO‘JALIK-URBANIZATSIYA TIZIMI BO‘YICHA RAYONLASHTIRISH

Tashtayeva Saida Kaxarovna – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent*
stashtayeva@jmail.com

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Xodjayeveva Gulya Ashirbaevna – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent*

Dauletbaevna Dilbar Dastanovna – *o‘qituvchi*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

ПРИРОДНО-ХОЗЯЙСТВЕННО-УРБАНИСТИЧЕСКОЕ РАЙОНИРОВАНИЕ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН С ЦЕЛЬЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ГОРОДОВ

Таштаева Саида Кахаровна – *кандидат географических наук, доцент*

Ташкентский государственный университет Востоковедения

Ходжаева Гуля Аширбаевна – *кандидат географических наук, доцент*

Даулетбаева Дилбар Дастановна – *преподаватель*

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

NATURAL-ECONOMIC- URBAN ZONING DEVELOPMENT OF THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN FOR THE PURPOSE OF SUSTAINABLE URBAN DEVELOPMENT

Tashtayeva Saida Kakharovna – *Candidate of Geographical Sciences, Associate Professor*

Tashkent state university of Oriental Studies

Khodjaeva Gulya Ashirbaevna – *Candidate of Geographical Sciences, Associate Professor*

Dauletbaeva Dilbar Dastanovna – *teacher*

Karakalpak State University named after Berdakh

Tayanch so‘zlar: shahar, urbanizatsiya, hudud, integral rayonlashtirish, tabiiy sharoit, ekologik vaziyat.

Rezyume. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi urbanizatsiya jarayonlari va uning hududiy xususiyatlari, shaharlarning hududiy tarkibi va respublika urbanistik tarkibida tutgan o‘rni tahlil qilingan. Respublika shaharlarini barqaror rivojlantirish maqsadida tabiiy-xo‘jalik-urbanizatsiya tizimi bo‘yicha uch o‘lchovli baholangan va integral rayonlashtirilgan, rayonlarning urbanistik ahamiyati asoslangan hamda ularda urbanizatsiya va shaharlarni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ключевые слова: город, урбанизация, территория, интегральное районирование, природные условия, экологическая ситуация.

Резюме. В статье проанализированы процессы урбанизации Республики Каракалпакстан и ее территориальные особенности, территориальная структура городов и место их в урбанистической системе республики. В целях устойчивого развития городов республики проведена трехмерная оценка и интегральное районирование в соответствии с системой «природа-экономика-урбанизация», обоснованы значения урбанизации районов, а также разработаны научно-практические рекомендации по приоритетным направлениям устойчивого развития городов и урбанизации.

Key words: city, urbanization, territory, integral zoning, natural conditions, ecological situation.

Summary. The article analyzes the processes of urbanization of the Republic of Karakalpakstan and its territorial features, the territorial structure of cities and their place in the urban system of the republic. In order to ensure the sustainable development of the republic’s cities, a three-dimensional assessment and integral zoning were carried out in accordance with the "nature-economy-urbanization" system, the values of the urbanization of the districts were substantiated, and scientific and practical recommendations on priority areas of sustainable urban development and urbanization were developed.

Kirish. Shaharlar va ular hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan, tobora murakkablashib borayotgan urbanizatsiya jarayonini oqilona rejalashtirish, rivojlantirish va tartibga solish mamlakat ichki hududlarining o‘ziga xos xususiyatlari va ta‘sir etuvchi omillarini e‘tiborga olishni taqozo etadi [8]. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu jihatdan o‘z hududining tabiiy sharoit va xo‘jalik ixtisoslashuvini hudud bo‘ylab juda notekis va kontrastligi, ekologik vaziyatining keskinligi, aholi joylashuvida tafovutlarning yaqqol namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bu esa kelgusida shaharlarni barqaror rivojlantirishda mazkur jihatlarni e‘tiborga olish lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Material va metodlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi shaharlari hududiy tarkibi va urbanizatsiya darajasini hududlar kesimida aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlaridan va statistik, hududiy taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Kuzatuv va monitoring qilish asosida hududni tabiiy-xo‘jalik-urbanizatsiya tizimi bo‘yicha uch o‘lchovli tahlil qilindi, o‘zaro aloqadorlik aniqlandi hamda tizim-tarkib metodi asosida rayonlashtirildi. Kontent tahlil va ekologik yondashuvdan foydalanib, istiqbolda rayonlar shaharlarini barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonning chekka shimoli-g‘arbida joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakat urbanizatsiyasi va shaharlarning iyerarxik tizimida o‘rta pog‘onalardan birini egallaydi. Bu holat hududning poytaxtdan chekkada joylashgani, yer maydonining kattaligi, Turkmaniston va Qozog‘iston bilan chegaradoshligi, Rossiyaga chiquvchi tranzit rayonda

joylashgani, hududdagi keskin ekologik vaziyat va “choʻllik” xususiyati, iqtisodiy yoʻnalishi, aholi migratsiyasi kabi oʻziga xos omillar taʼsirida shakllangan.

Respublikada hozirgi kunda 12 ta shahar va 26 ta shaharcha boʻlib, Nukus, Xoʻjayli, Toʻrtkoʻl, Taxiatosh, Beruniy shaharlari respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etsada, qolgan aksariyati kichik shahar va shaharchalar hisoblanadi.

Hududda qadimgi shaharlar yoʻq, ularning kelib chiqishi asosan 1960-70-yillarga toʻgʻri keladi. Sanoatlashish, yirik hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishi, transport yoʻllarining qurilishi, aholi sonining tabiiy oʻsishi va shaharlarga migratsiyasi, qishloqlarga industriyaning kirib kelishi bilan shaharlarga aylanishi shahar hosil qiluvchi asosiy omillar boʻlgan [4]. Hozirgi kunda shaharlar faoliyati asosan, togʻ-kon sanoati, maʼmuriy funktsiyalar, transport, agrosanoat va servis funktsiyalariga asoslangan. Shaharlarning koʻp qismi markaziy va janubiy hududlarda mujassam boʻlgan, shimoliy qismi tabiiy sharoit va ekologik holati bevosita Orol muammosi bilan bogʻliq, Gʻarbiy qismi sur tusli qoʻngʻir choʻl tuproqli va shoʻrxokli Ustyurt platosiga toʻgʻri keladi, bu yerda yaylov chorvachiligi birmuncha rivoj topgan. Shu bilan birga, yoqilgʻi va kimyo sanoati ham yuksalib bormoqda. Uning asosida Qoʻngʻirot, Elabad shaharlari rivojlanmoqda. Sharqiy chekkasi qumli choʻllarga tutashadi.

Urbanizatsiya darajasi respublikada 48,8 foizni tashkil etadi va bu jihatdan mamlakatda 4- oʻrinni egallaydi. Bu koʻrsatkichning yuqoriligi mazkur hudud sanoat salohiyatidan emas, balki bu joylarda intensiv qishloq xoʻjaligini rivojlantirish sharoitlarining cheklanganligidan darak beradi [4:387].

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, mintaqada shaharlar va urbanizatsiya rivojlanishi koʻp jihatdan hududning tabiiy sharoiti, xoʻjalik tizimi bilan bogʻliq holda shakllangan va rivojlanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan istiqbolda shaharlarni hududlarda barqaror rivojlantirish maqsadida uch oʻlchovli rayonlashtirish amalga oshirildi.

Rayonlashtirishdan maqsad, hududni barqaror rivojlanishini rejalashtirish, yerdan foydalanishni optimallashtirish, ekologik xavflarni kamaytirgan holda, urbanizatsiyani oqilona rivojlantirish maqsadida tabiiy-xoʻjalik-urbanizatsiya tizimi jihatdan oʻxshash boʻlgan qismlarga ajratishdir. Rayonlashtirishda quyidagi tamoyillarga asoslanildi: tabiiy, landshaft- ekologik jihatdan bir xilligi; hududning funktsional ixtisoslashuvi, hududni xoʻjalik jihatdan oʻzlashtirilish darajasi, aholi joylashuvi, urbanizatsiya darajasi, shaharlar soni, hududning ichki va tashqi aloqalari, transport yoʻllari. Bunda quyidagi koʻrsatkichlar hisobga olindi:

1. Tabiiy geografik xususiyatlar: relyef, iqlim, suv, landshaft, ekologik vaziyat.

2. Iqtisodiy-ijtimoiy koʻrsatkichlar: iqtisodiyot tarkibi, ixtisoslashuv, transport, tabiiy resurslar, aholi joylashuvi.

3. Urbanizatsiya koʻrsatkichlari: shahar aholi punktlari soni, tiplari, zichligi, urbanizatsiya darajasi, shaharsozlik imkoniyatlari.

Ushbu koʻrsatkichlar boʻyicha hududlar quyidagi 8 ta integral rayonlarga ajratildi va oʻziga xos xususiyatlariga koʻra tavsiflandi:

1. Ustyurt tabiiy muhofaza rayoni. Respublika gʻarbida, Ustyurt platosida joylashgan. Yer yuzasi platosimon tekislik, oʻsimliklari kam choʻl hudud, noyob landshaftlar bor, iqlim keskin kontinental, quruq, kuchli shamollar xos. [6]. Xoʻjaligida xom ashyo qazib olish, yaylov chorvachiligi yoʻlga qoʻyilgan. Tabiiy resurslar bor (gaz, uran, tuzlar), suv tanqisligi sababli kam oʻzlashtirilgan, ammo yuqori tabiiy ahamiyatga ega, qoʻriqxonaga tashkil etish imkoniyati bor. tabiat muhofazasiga qaratilgan, ekoturizm, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar bor. Aholi juda kam va tarqoq joylashgan, kichik qishloqlar, temir yoʻl stantsiyalari, ishchi poselkalari bor. 3 ta - Qoraqalpogʻiston, Jaslik, Qirqqiz shaharchalari Qoʻngʻirot-Beynov temir yoʻli boʻyida joylashgan, ularda 3-5 mingdan aholi yashaydi, urbanizatsiya 60 foizdan yuqori. Shaharlarni rivojlantirishga suv va energetika yoʻqligi toʻsqinlik qiladi, shaharlarni rivojlantirish imkoniyatlari 2 ta markazda-xalqaro temir yoʻl boʻyida va janubda gaz va mineral resurslarni qazib olish asosida olib borilishi mumkin.

2. Orolboʻyi tabiiy ekologik rayoni. Respublika shimolida joylashgan, Orol dengizi va uni atrofidagi dengizning qurigan qismlari, Taxtakoʻpir tumanining shimoli-sharqiy qumli choʻl qismi kiradi. Tuprogʻi shoʻrxok, shoʻr botqoqlar, qurigan delta uchastkalari uchraydi. Ekologik xavf yuqori, chang boʻronlari, yerlarning degradatsiyalashuvi kuchli. Xoʻjalikda foydalanilmaydi, turizm cheklangan. Asosiy vazifa ekologik rehabilitatsiya: oʻrmon melioratsiyasi, tuproqlarni mustahkamlash, suv havzalarini tiklashga qaratilgan. Qayta tiklangan joylarda qishloq xoʻjaligi loyihalarini eksperiment sifatida olib borish mumkin. Turizm ekologik va iqlim sharoitlari bilan cheklangan. Shaharlar yoʻq, kichik shaharchalar ekologik tadqiqot va loyihalar olib boradi. Shaharlarni rivojlantirish mumkin emas.

3. Moʻynoq turistik-rekreatsiya rayoni. Orol dengizining janubiy suvdan qurigan qirgʻogʻida joylashgan. Sobiq baliqchilik rayoni, qurigan dengizning noyob ekologik landshaftlari bilan ajralib turadi. Quruq, moʻtadil kontinental iqlim. Qisman sanoat, asosan tarixiy-ekologik turizm yoʻlga qoʻyilgan, xususan, Moʻynoq –turistik markazi bor. Turistik xizmat koʻrsatish, infratuzilmani rivojlantirishga qirgʻoq boʻyi tabiati, oʻsimliklarini tiklashga qaratilgan. Urbanizatsiya darajasi 44,3 %, yagona Moʻynoq shahri 15,3 ming kishiga ega (2025 yil), shaharchalar yoʻq. Shaharlarni rivojlantirish ekologik nuqtai nazardan toʻgʻri kelmaydi, ilmiy va turizm boʻyicha cheklangan holatda yoʻlga qoʻyish mumkin.

4. Qoʻngʻirot sanoat- xom ashyo rayoni. Respublikani shimoliy-gʻarbiy qismida, Qoʻngʻirot tumanining sharqiy chekkasida joylashgan, tekislik, choʻl va chalachoʻl landshaftlari hamda qurgʻoqchilik xos. Gaz, ohaktosh, mineral qazilma resurslar bor. Xoʻjaligi resurs qazib olish va qayta ishlashga ixtisoslashgan. Moʻynoq va Beynau transport tuguni bor, logistik ahamiyatga ega rayon. Tuproq shoʻrlangan va suv tanqisligi sababli qishloq xoʻjaligi rivojlanmagan. Urbanizatsiya tabiiy sharoitdan kelib chiqib yuqori 63,1 %, shaharlari sanoat va ishchi-xodimlarga xizmat koʻrsatishga ixtisoslashgan. Bu yerda Qoʻngʻirot shahri (42 ming), Oltinkoʻl va Elabad shaharchalari joylashgan. Shaharlarni rivojlantirish imkoniyati bor, xalqaro temir yoʻl tuguni, tabiiy resurs zahiralarni ishga solish asosida Nukus, Moʻynoq yoki Amudaryo

yo'nalishida logistika va sanoat klasterlarini tashkil etish, ekologik vaziyatni hisobga olib yashil shaharlarni rivojlantirish mumkin.

5. Chimboy-Taxtako'pir seliteb-transport rayoni. Markaziy va shimoli-sharqiy qismda joylashgan (Chimboy, Qorao'zak, Taxtako'pir tumanining g'arbiy qismi), chalacho'l va sug'oriladigan yerlar almashinadi, iqlimi kontinental. Bu yerdan mamlakatning asosiy transport yo'llari o'tadi, mahalliy qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, asosiy aholi yashash joylari hisoblanadi. O'rta darajada o'zlashtirilgan, transport-logistik funktsiyani bajaradi. Urbanizatsiya o'rta darajada 41,4 %. Chimboy shahri, Qorao'zak, Taxtako'pir, Ayteke shaharchalari, 1 ta shahar, 3 ta shaharcha bor. Agrosanoat, transport, ta'lim, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali Nukus yo'nalishida aglomeratsiya hosil qilish mumkin.

6. Amudaryo qayir-sug'orma dehqonchilik rayoni. Respublikaning markazi va janubini –Taxiatosh, Xo'jayli, Kegeyli, qisman Qo'ng'iro't, Chimboy, Nukus vohasini o'z ichiga oladi. Qayir va eski qayir tekisliklari, unumdor allyuvial tuproqlar tarqalgan, yirik kanallar bor. [5]. Xo'jaligi-paxtachilik, sholichilik, sabzavot yetishtirish, issiqxona xo'jaligi rivojlangan. Agrar yo'nalish ustun, urbanizatsiya o'rta darajada, qimmatli qishloq xo'jalik yerlari hisoblanadi. [7]. 3 ta shahar, 8 ta shaharcha bo'lib, urbanizatsiya 33 %. Istiqbolda yangi shaharlarni qurish joiz emas, mavjud shaharlarda qishloq xo'jaligi uchun qayta ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, aholi uchun ilmiy, maishiy- madaniy sohalarni rivojlantirish, oziq-ovqat klasterlari, agrosanoat majmualarini tashkil etish mumkin. Shaharlarni qishloq xo'jalik yerlariga zarar yetkazmasdan samarali foydalanish, uy-joylarni vertikal qurish, shaharlar ichida ham issiqxonalar, tomlarda sabzavotlar yetishtirish mumkin.

7. Nukus-Taxiatosh sanoat-urbanizatsiyalashgan rayoni. Respublika markazi, Nukus aglomeratsiyasi, Taxiatosh energetika va sanoat zonasi kiradi. Tekislik, iqlimi kontinental. Ma'muriy, ilm-fan, sanoat, madaniyat, ta'lim rivojlangan. Savdo, servis, transport infratuzilmasi yuqori darajada shakllangan. Eng urbanizatsiyalashgan rayon bo'lib, urbanizatsiya darajasi yuqori-70 % dan ortiq, 3 ta shahar, 2 ta shaharcha. Energiya borligi sababli bu yerda yengil, oziq-ovqat, qurilish materiallari, kimyo sanoatini rivojlantirish mumkin, yaqin joylashgan Chimboy, Taxiatosh, Xo'jayli, Qo'ng'iro't va boshqa aholi punktlari bilan bog'lanib, yirik logistika markazi va shahar aglomeratsiyasini rivojlanishga imkoniyat bor.

8. Janubiy agrar rayoni. Beruniy, To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarini o'z ichiga oladi. Yer yuzasi qora va sug'orma allyuvial tuproqlardan tarkib topgan. Sug'orma dehqonchilikdan cho'l zonasiga o'tish qismini egallaydi. [5]. Iqtisodiyoti tarkibi-qishloq xo'jaligi, o'rmon melioratsiyasi, himoya o'rmonlarini ko'paytirish, cho'llashishdan asrashga qaratilgan. Bog'dorchilik, sabzavotchilik, paxtachilik va chorvachilik yo'lga qo'yilgan. Agrosanoat majmualari rivojlangan. Shaharlari kichik va mahalliy qayta ishlovchi sanoat korxonalari joylashgan. Urbanizatsiya sust- 28,1 %. Katta shaharlar-Beruniy va To'rtko'l, jami 11 ta shahar aholi punktlari mavjud. Tabiiy sharoiti, Amudaryo bo'yida joylashgani, Xorazmga yaqinligi va xo'jalik ixtisoslashuvidan kelib chiqib, agrosanoat bo'yicha shaharlar klasterini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Tabiiy-ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy va urbanistik tahlillar asosida rayonlar quyidagi mezon bo'yicha 10 balli tizimda baholandi va ularda urbanizatsiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi (1-jadval):

- 9.0–10.0 — istiqbolli-asosiy rivojlanish rayoni
- 7.0–8.0 —balansda ushlab lozim bo'lgan rayon
- 5.0–6.0 — rivojlantirish cheklangan tarzda
- 3.0–4.0 — nojoiz, tabiiy inqirozli rayon

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-xo'jalik-urbanistik rayonlarini urbanizatsiyani rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha baholash va tavsiyalar

| № | Rayon nomi | Ball (mak.10) | Taklif va tavsiyalar |
|---|---|---------------|---|
| 1 | Ustyurt tabiiy muhofaza rayoni | 3-4 | O'zlashtirish cheklangan, tabiiy muhofaza rayoni, o'rmonlarni ko'paytirish, shahar qurilishi nojoiz |
| 2 | Orolbo'yi tabiiy ekologik rayoni | 3-4 | Inqirozli ekologik hudud, yashil zonalarni ko'paytirish lozim, shaharlarni rivojlantirish nojoiz |
| 3 | Mo'ynoq turistik-rekreatsiya rayoni | 5-6 | Istiqbolli turistik rayon, shaharlarni zarur nuqtalar da cheklangan tarzda turizm va ilmiy tadqiqot lar bo'yicha rivojlantirish mumkin, AR, VR onlayn turizm platformalarini joriy qilish mumkin |
| 4 | Qo'ng'iro't sanoat- xom ashyo rayoni | 7-8 | Istiqbolli sanoat –transport rayoni, shaharlarni rivojlantirish tavsiya etiladi. Suv, energiya, xom ashyoga avtomatlashtirilgan monitoringni joriy etish,chiqindilarni qayta ishlash, quyosh va shamol energiyalaridan foydalanishga o'tish |
| 5 | Chimboy-Taxtako'pir seliteb transport rayoni | 7-8 | Shahar infratuzilmasini rivojlantirish, yashil shahar, yashil energiya loyihalarini amalga oshirish, aholi va qishloq xo'jaligiga xizmatlar funktsiyalarini diversifikatsiya qilish, Nukus aglomeratsiyasi bilan bog'lash. |
| 6 | Amudaryo qayir-sug'orma dexqonchilik rayoni | 6-7 | Asosiy qishloq xo'jaligi rayoni, shaharlarni balansda ushlab agrosanoat yo'nalishida rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, qishloqlarga urbanizatsiyani olib kirish |
| 7 | Nukus-Taxiatosh sanoat-urbani-zatsiyalash-gan rayon | 8.5-9.5 | Asosiy istiqbolli urbanistik rayon, ikki markazli politsentrik aglomeratsiya-Nukus-ijtimoiy sohalar, boshqaruv, Taxiatosh sanoat-energetika markazi, Xo'jayli, Oqmang'it, Kegeylini yo'ldosh |

| | | | |
|---|----------------------|-----|---|
| | | | shaharlar sifatida rivojlantirish, vertikal o‘stirish, funktsional va hududiy diversifikatsiya qilish, urbanizatsiyani tartibga solish |
| 8 | Janubiy agrar rayoni | 6-7 | Turg‘un qishloq xo‘jalik rayoni, shaharlarni balansda ushlagan tarzda agrosanoat klasterlari va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida rivojlantirish lozim |

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa. Respublika shaharlarini rivojlantirishda istiqbolda har bir rayon xususiyatlarini, Orolbo‘yi tabiiy-ekologik, iqtisodiy–ijtimoiy, urbanistik imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzoq muddatli strategik rejalashtirish, har bir shaharni master rejalarni ishlab chiqish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, shahar qurilishida energiya tejamkor usul va materiallardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, himoya o‘rmonlarini ko‘paytirish, innovatsion va “aqlli shahar” texnologiyalarini qo‘llash mintaqada aholi ijtimoiy farovonligini oshirgan holda, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi va ekologik barqarorlikni saqlaydi.

Adabiyotlar

1. Bartrem C., Kurbanov M.I., Keller B.D., Fiori A., von Lindern I., Khajiev P.Z., Rustamov D., Lee J., Steiner M., Paluaniyazova Z. Organochlorine Pesticides and Salinity in Karakalpakstan, Uzbekistan: Environmental Health Risks Associated with the Aral Sea Crisis. // International Journal of Environmental Research and Public Health, vol. 22, 2025. – Art. 1751.
2. Dauletbaeva D. Qoraqalpog‘iston respublikasining hozirgi zamon urbanizatsiyasi va uning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2026.
3. Солиев А. Иқтисодий-ижтимоий география. – Тошкент: «Фан ва технология», 2014.
4. Soliev A., Tashtaeva S., Egamberdieva M. Shaharlar geografiyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020.
5. Хасанов И.А., Фуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: 2006.
6. United Nations Multi-Partner Human Security Trust Fund for the Aral Sea Region. (Report). – United Nations, 2018.
7. Partnership for Sustainable, Green, and Inclusive Development in the Aral Sea Region. December 12, 2025.
8. Таштаева С., Ёқубов О. Яшил урбанизм-замонавий шаҳарлар ривожланишининг асосий йўналиши сифатида. // Фан ва жамият, №4(1), 2022, 80-86-б.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI KICHIK HUDUDLARI IJTIMOYIY SOHALARINING
HUDUDIY TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISHI**

Tojiyeva Zulkumor Nazarovna – *geografiya fanlari doktori, professor*

z_tadjieva@mail.ru

Atabayev Arislanbek Amangeldi uli – *stajyor o‘qituvchi*

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ
МАЛЫХ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН**

Тожиева Зулхумор Назаровна – *доктор географических наук, профессор*

Атабаев Арыслабек Амангельдиевич – *стажёр преподаватель*

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

**TERRITORIAL ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF THE SOCIAL SPHERE
IN THE SMALL REGIONS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN**

Tojiyeva Zulkumor Nazarovna – *Doctor of Geographical Sciences, Professor*

Atabaev Arislanbek Amangeldievich – *trainee teacher*

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy soha, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilma, Xo‘jayli tumani, hududiy rivojlanish.

Rezyume. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik hududlarida ijtimoiy sohalar, xususan ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish holati o‘rganildi. Tadqiqot davomida hududda ijtimoiy xizmatlar qamrovi kengayib borayotgani, ta‘lim va tibbiyot tizimlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish hamda kommunal xizmatlar bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjudligi qayd etildi. Maqola yakunida hududni barqaror rivojlantirish uchun ijtimoiy sohalarni yanada takomillashtirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarurligi asoslab berildi.

Ключевые слова: социальная сфера, образование, здравоохранение, социальная инфраструктура, Ходжейлийский район, региональное развитие.

Резюме. В данной статье проанализировано состояние развития социальной сферы малых территорий Республики Каракалпакстан, в частности образования, здравоохранения и социальной инфраструктуры. В ходе исследования выявлено, что в регионе расширяется охват социальных услуг, а также наблюдаются положительные изменения в системе образования и медицины. Вместе с тем было отмечено наличие отдельных проблем, связанных с оказанием социальных услуг и коммунальным обслуживанием. В заключении обоснована необходимость дальнейшего совершенствования социальной сферы и расширения экономических возможностей для обеспечения устойчивого развития региона.

Key words: social sphere, education, healthcare, social infrastructure, Khojeli district, regional development.

Summary. This article studies the state of development of social sectors in small areas of the Republic of Karakalpakstan, particularly education, healthcare, and other infrastructure sectors. During the study, it was found that social service coverage in the region is expanding, and positive changes are occurring in the education and healthcare systems. At the same time, certain problems related to the provision of social and communal services were identified. The article concludes by substantiating the need to further improve the social sphere and expand economic opportunities to ensure sustainable regional development.

Kirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish ko‘p jihatdan respublika ma‘muriy-hududiy tuzilmasining quyi bosqichlaridan biri bo‘lgan qishloq ma‘muriy tumanlarida ishlab chiqarishni to‘g‘ri hududiy tashkil etish va boshqarishga bog‘liq. Ijtimoiy soha jamiyatning har bir a‘zosining ehtiyojlarini qondirish, yashash sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu soha davlat tomonidan aholi uchun taqdim etiladigan asosiy xizmatlar tizimini tashkil etadi va ularning sifatini oshirish, odamlarning turmush darajasini yaxshilash hamda jamiyatdagi tenglikni ta‘minlash maqsadida doimiy yangilanib boradi.

Ijtimoiy sohaning asosiy vazifasi – jamiyat a‘zosining ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqlarini himoya qilish va har tomonlama rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratishdir. Bu soha aholining sog‘lig‘ini saqlash, ta‘lim olish, madaniyatni rivojlantirish, mehnat resurslarini samarali boshqarish va ijtimoiy adolatni ta‘minlashni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy sohalarda amalga oshirilgan islohotlar va yangilanishlar davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir davlatda ijtimoiy sohaning rivojlanishi mamlakat farovonligi va aholining umumiy turmush sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, ijtimoiy soha nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning samarali rivojlanishi jamiyatdagi barcha qatlamlarning manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi.


